3. The Teacher asks one of the students to be the performer and their friends should follow him/ her. Children enjoy singing. There are lots of action songs. The students sing and act out the words of the song. Here is an example of an action song. Head, Shoulder, Knees and Toes, Knees and Toes Head, Shoulder, Knees and Toes, Knees and Toes And Eyes, and Ears, and Mouth and Nose Head, Shoulder, Knees and Toes, Knees and Toes [9:2]

Sample Material 2:

Context: Teaching Vocabulary (Verbs) New Words: Wash, Brush, Open, Close Procedures : The teacher teach some new vocabularies related to verbs, then gives command to the students for doing the instruction based on the verb, for example:

- Wash your hands your face your hair
- Brush your teeth your pants
- Open your book your window your bag
- Close your eyes your pencil case

In sum up TPR is one of an interesting method for teaching young learners because they directly practice the command with the physical movement. It is only suitable for teaching young learner, it is not suitable to be practiced for teaching adult. Based on the researcher, it is better method for teaching young learner who has kinesthetic learner style. In practicing this method, the teacher does not need much preparation to use this method in teaching learning process. It is good for teaching listening, speaking skills and improving students' vocabularies.

References

1. Asher. J. 1988. Learning Another Language Guide- Book. Los Gatos, Calif: Sky Oaks Production 553-554.
2. Brown, H. Douglas. 1994. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. New Jersey: Prentice Hall.
3. Cameron, L. (2001). Teaching Languages to Young Learners. Cambridge: Cambridge University Press. 159-179
4. Celce- Murcia, Marianne and Lois McIntosh (3rd Edition) (Eds). 2004. Teaching English as a Second or Foreign Language. Rowley, Mass: Newbury Hose.
5. Fauziyati, Endang. (2009). Introduction to Methods and Approaches in Second or Foreign Language Teaching. Surakarta: Era Pustaka Utama.
6. Larsen- Freeman, D. 1986. Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford: Oxford University Press.
7. McLaughlin, B. 1978. Second Language Acquisition in Childhood. Boston: Allyn and Bacon.
8. Muhren, A. 2003. Total Physical Response (TPR): and Effective Language Learning Method at Beginner/Intermediate Levels.
9. Rodgers,T. 2003. Methodology in the New Millenium. English Teaching Forum 41/4: 2-13
10. Widodo, H.P. 2005. Teaching Children Using a Total Physical Response (TPR) Method: Rethinking. English Journal. 235-248.

RESYUME. Yosh oʻquvchilar uchun ingliz tilini o'rgatish yaxshi usullarni talab qiladi, chunki bu erda ingliz tili ikkinchi yoki chet tili hisoblanadi. Yosh oʻquvchilar oʻz oilalari yoki atrofidagi odamlar bilan ingliz tilidan foydalanib muloqot qilishni mashq qilmaydi. Demak, agar oʻqituvchi faqat umumiy usuldan foydalansa, ularni oʻrgatish qiyin boʻladi. Ingliz tili oʻqituvchisi sifatida oʻquvchilarning ingliz tilini oson va muvaffaqiyatli oʻrganishi uchun yaxshi usulni tanlash.

Total Physical Response - yosh oʻquvchilar uchun ingliz tilini oʻrgatishning muqobil yaxshi usullaridan biri. Bu yosh oʻquvchilarga jismoniy harakatlarini qoʻllash orqali ba'zi buyruqlarni yoki ba'zi lug'atlarni osongina eslab qolishlariga yordam beradi. Talabalar nafaqat oʻrganish, balki qiziqarli va qiziqarli boʻladi. Umumiy jismoniy javob - bu sinfda faol boʻlishi kerak bo'lgan kinestetik oʻquvchi uchun juda yaxshi usul. Bu usul harakatda til mahoratini joriy etishga harakat qiladi va ingliz tili oʻqituvchisi uchta mas'uliyatga ega: oʻqituvchining aytgani va qilgan ishlariga taqlid qilishga tayyor boʻlgunga qadar oʻqituvchi, namuna sifatida va harakat nazoratchisi. Bu usul talabalarning tinglash va nutq qobiliyatlarini yaxshilash uchun yaxshi.

РЕЗЮМЕ. Преподавание английского языка для младших школьников нуждается в хороших методах, потому что английский здесь является вторым или иностранным языком. Молодые учащиеся не практикуются в общении на английском языке со своими семьями или окружающими людьми. Таким образом, будет трудно научить их, если учитель использует только общепринятый способ. Как учитель английского языка, выбирая хороший метод, чтобы ученики легко и успешно изучали английский язык.

Total Physical Response — один из альтернативных методов обучения английскому языку для юных учащихся. Это может помочь юным учащимся легко запомнить некоторые команды или словарный запас, используя их физические движения. Студентам будет не только познавательно, но и интересно и приятно. Total Physical Response — очень хороший метод для кинестетиков, которым необходимо быть активными в классе. Этот метод пытается внедрить языковые навыки в действие, и учитель английского языка имеет три обязанности: как инструктор, как образец для подражания и руководитель действий, пока они не будут готовы подражать тому, что сказал и сделал учитель. Этот метод хорош для улучшения навыков слушания и говорения учащихся.

SUMMARY. Teaching English for young learners needs some good methods because English here is as a second or foreign language. Young learners do not practice to make communication using English with their families or people around them. So, it will be difficult to teach them if the teacher only uses a common way. As an English teacher, choosing good method to make their learners learning English easily and successfully.

Total Physical Response is one of an alternative good method for teaching English for young Learners. It can help young learners to memorize some commands or some vocabularies easily through use their physical movement. The students will not only learnable but also interesting and enjoyable. Total Physical Response is very good method for Kinesthetic learner who need to be active in the classroom. This method tries to introduce the language skill in an action and the English teacher has three responsibilities: as an instructor, as a role model, and an action supervisor until they are ready to imitate what the teacher said and did. This method is good for improving students listening and speaking skills.

INGLIZ TILI GRAMMATIKASINI INDUKTIV VA DEDUKTIV USULLARDAN FOYDALANGAN XOLDA O`RGATISHNING BIR BIRIDAN FARQI

M.Y.Dauletmuratova – *o‘qituvchi*
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali

Tayanch so‘zlar: xorijiy tillar, ilm-fan, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ilmiy hamkorlik, ingliz tili, induktiv usul, deduktiv usul, maktablar, zamonaviy texnologiyalar, online telekanallar.

Ключевые слова: иностранные языки, наука, политический, экономический, социальный, культурное и научное сотрудничество, английский язык, индуктивный метод, дедуктивный метод, школы, современные технологии, онлайн телеканалы.

Key words: foreign languages, science, political, economic, social, cultural and scientific relations, the English language, inductive and deductive methods, schools, modern technologies, online channels.

Ona vatanimiz O‘zbekiston o‘zmustaqilligiga erishganidan so'ngjahon hamjamiyatining teng huquqli a’zosi sifatida ko'plab xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli ko‘p tomonlama aloqalarni yolga qo‘yib kelmoqda. Yurtimiz istiqboli, xalqimizning farovon kelajagi yolida uzoq va yaqin qo‘shnilarimiz bilan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ilmiy hamkorlikning yoiga qo‘yilishi g‘oyat katta ahamiyatga egadir. Chet mamlakatlar bilan bunday yaqin aloqalarning rivojlanib borishi o‘z navbatida chet tillarini, ayniqsa, ingliz tilini mukammal biladigan kadrlarga bo‘lgan talabning keskin oshishiga sabab bolmoqda. Shujihatdan olib qaraganda, so‘nggi yillarda ingliz tilini o‘rganishharbir zamon bilan hamnafas yashaydigan shaxs uchun ulkan hayotiy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ilm-fan jadal rivojlanayotganligi hech birimizga sir emas.Shuningdek, yosh avlodning xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz-tlini o’rganishga bo’lgan qiziqishi ortib bormoqda.Shu boyis, umumta’lim maktablarida bu tilni chuqurroq o’rgatish uchun pedagog xodimlardan innovatsion usullardan keng foydalanish talab etilmoqda Shu sababdan, 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Chet tillarini o’rganish tizimini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi hamda 2013-2014 yildan boshlab umumta’lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni uzluksiz o’rgatishning joriy etilishi buning yaqqol isbotidir. Ingliz tili jahon tili sifatida deyarli barcha sohalarda eng kerakli til sifatida namoyon bo’lmoqda, shu sababli nafaqat boshlang’ich sinflarda, iqtisodiy, fan, va madaniy jihatdan rivojlangan davlarlarning tillarini o’rganish jahon ilm-fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashning bosh omili ekanligini to’liq anglagan holda yuqori sinf o’quvchilari doirasida ham kasb tanlashlarida albatta tilning ahamiyatiga katta e’tibor qaratilmoqda. Boshqa sohalar singari til o’rganish ham o’quvchi yoshlarning zehni bilan birgalikda yosh davrlariga ham bog’liq.

Kichik yoshli bolalarda til o’rganishga bo’lgan xohish-istak juda yuqori, ayniqsa hozirgi axborot kommunikatsiya vositalari bilan bu holat yuqori ko’rstkichlarni ko’rsatmoqda.Davlatimiz tomonida maktablarda yaratilgan shart-sharoitlar, o’quv xonalarining zamonaviy texnologiyalar bilan johzlanganligi, yosh bilimli kadrlar bilan ta’minlanganligi, maktab darslaridan tashqari mustaqil shug’illanish uchun barcha sinflar uchun online telekanallardagi televizion online darslarning tashkil etilganligi tahsinga sazovordiz. 1 va 2- sinf o’quvchilari tildagi grammatik, leksik, fonetik, birliklarni tushunmasliklari mumkin ammo multfilmlar, o’yinlar, rasmlar orqali tilni a’lo darajada o’zlashtirishlari mumkin.

J. Jalolov fikriga ko’ra, grammatikani o’quvchilarga o’rgatishda asosan ikkita yo’ldan foydalanishimiz mumkin:

1. Induktiv.
2. Diduktiv.

O’quvchilarga avval qoida so’ngra esa misol beriыригInduktiv usulhissoblanadi.Mazkur usul ko’pincha yuqori sinf o’quvchilari uchun foydali.Masalan zamonlar, predloglar, artikllar yuqori sinf o’quvchilari uchun ma’lum termenlar bo’lib ular gaplarda ega, kesim aniqlovchi, to’ldiruvchi, hol kabi gap bo’laklarini qo’yib gap tuza olishadi.

Diduktiv usulda esa avval misol so’ngra qoida beriladi. Maktab yoshidagi bolalarga ingliz tilini o’rgatishda avvalo bolalar uchun rang-baranglikka e’tibor berishimiz zarur. Rasmlar asosida yoki qo’shiq va she’rlar orqali ham ingliz tili grammatikasini o’rgatishimiz mumkin. Shuningdek, o’yinlar, mashqlar orqali mavzu tanishtirilib, so’ngra qoidaga bog’lab tushuntiriladi. Boshlang’ich sinf o’quvchilari ega, kesim, fe’l va boshqa birliklar haqida ma’lumotga ega bo’lmaganliklari sababli ularga o’yinlar qo’shiqlar orqali mavzu tushuntirish samaraliroq. Masalan Can –ingliz tilida “qila olmoq” modal fe’li bo’lib qo’shiqlar handout materiallar orqali o’rgatiladi.

-Can you play football
-Can you phone call
-It is very easy
-Can you do it Nansy?

Psixologlar fikriga ko’ra yoshi katta insonlarga nisbatan bolalarda yangilikka qiziqish, o’qish, o’rganishga bo'lgan ishtiyoq 70-80% kuchliroq bo'lar ekan.Kundalik hayotimizda ham bajara ololmaydigan vazifalarni ham bolalar ogohlantirishlarga qaramasdan bajarib ko’rishga harakat qilishadi.Bir xillikdan juda tez zerikishadi shu sababli pedagog kadrlardan yangicha uslublarda, noan’anaviy tarzda darslarni tashkil etish, o’rganilayotgan xorijiy tilning muhitini to’liq yarata olish talab etiladi.

Shunday ekan ustoz-muallimlar interfaol, innovatsion va qiziqarli usullardan foydalanib darslarni tashkil etishlari lozim. O’quvchilar bilan individual tartibda , guruhlarda va juftliklarda ishlashlarini joriy etishi turli musobaqalar ko’rinishida o’yinlar tarzida, rang-barang ko’rgazmali qurollardan foydalanilgan holda dars o’tishlari va har bir darsga albatta alohida tayyorgarlik ko’rib kelishlari talab etiladi. Bunday tipdagi darslaro tilga bo’lgan mehrni, ishtiyoqni oshiradi, nofaol o’quvchilarni faollashtiradi, o’quvchilar o’rtasida sog’lom raqobatni shakillantiradi.Raqobat esa yuksalishning poydevori.

Ingliz tilini o’qitishdagi yana bir muhim jihat shuki o’quvchining qay holatda ma’lumotni to’laqonli qabul qilishini nazorat qilish. Bir guruhdagi bolalarning o’y xayollari, fikrlashi, dunyoqarashi ma’lumotni qabul qilishi turlicha bo'ladi.Shunga ko’ra o’qituvchi har bir o’quvchining xarakteri xususiyatidan kelib chiqqan holda ta’lim jarayonini olib borishi kerak. Misol uchun, qaysidir o’quvchida ko’z bilan eslab qolish, yana birida eshitish orqali eslab qolish qobiliyati tabiatdan shakillangan bo’lishi mumkin. Shu xususiyatlarga ko’ra ingliz tilini o’rganish asosiy 3 yo’nalishda bo’ladi.

- ❖ Visual learning- ko’rish orqali ma’lumotni eslab qolish
- ❖ Auditory learning -eshitish orqali ma’lumotni eslab qolish
- ❖ Kinaesthetic learning- harakatlar orqali ma’lumotni eslab qolish

Yuqoridagi xususiyatlarni inobatga olgan holda o’qituvchi o’quvchilar bilan dars mobaynida, mashqlar bajarishda, rol playlar tayyorlashda,o’yinlar orqali mavzu tushintirilsa yoki tashkillashtirilsa sezilarni natija hosil qiladi va o’quvchida til o’rganishga motivatsiya beradi.

Quyida mana shunday mazmunli dars tashkil etishda darslarda foydalanishimiz mukin bo'lgan didaktik o'yinlar va pedagogik texnalogiyalardan bir nechtasini ko'rib chiqamiz.

❖ Kim tezroq-o'yin maqsadi writing-yozish texnikasini rivojlantirish. O'yinning borishi:inglovchilarga gaplar yozilgan kartalar beriladi va kartadagi gaplarning so'zlari notartib joylashgan bo'ladi. Kim birinchi va to'g'ri tartibda joylashtirib yozsa shu o'quvchi g'olib bo'ladi. Bu o'yin ko'proq yuqori sinflarda samara beradi.

❖ Men kimman?- o'yin maqsadi speaking-gapirish texnikasini rivojlantirish. O'yinning borishi: guruhdagi xohlovchi chiqib biror narsa yoki shaxsni nomini aytmasdan tasvirlaydi va qolgan o'quvchilar ta'rifga ko'ra kim yoki nimaligini topishi kerak. Bu o'yin nutqiy savodxonlikni oshiradi. Bu o'yin ko'proq boshlang'ich sinflarga xos.

❖ Davomiy hikoya-o'yin maqsadi vocabulary-so'z boyligini rivojlantirish. O'yinning borishi:sinf 2 guruhga bo'linadi va 2 turdagi hikoyalar yarim tayyor holatda beriladi va guruhlar o'z fantaziyalarigan kelib chiqqan holda hikoyani davom ettirib oxiriga yetkazadilar. Qaysi guruhda ko'proq yangi so'z ishlatilsa shu guruh g'olib hisoblanadi. Bu o'yin o'quvchilarni bir-birlari bilan hamjihatlikda ishlashga o'rgatadi. Bu o'yin yuqori sinflarda yaxshiroq samara beradi.

❖ Noisy dictation-o'yin maqsadi grammatikani rivojlantirish. Sinfdagi o'quvchilar bir biriga yuzma-yuz qilib joylashtirilishi bilanmazkur o'yin boshlanadi va vaqt belgilaninib bir vaqtda bir birlarini ham eshitib ham ro'parasidagi o'quvchining aytga so'zlarini ilg'ab to'g'ri yoza olishi kerak. Bu o'yin biroz shovqinli bo'ladi va aynan mana shu shovqin ularga hatto shunday vaziyatda ham so'zlarni ilg'ay olishni rivojlantirish imkonini beradi. Listening- eshitish texnikasini oshiradi. Ingliz tilida so'zlar eshitilganidek yozilmaydi, masalan speak-gapirmoq so'zida {ea} diftongi [i] tovushini beradi [spi:k]. Agar o'quvchi so'zlarni to'g'ri anglay olsa demak bu yaxshi natija. Bu o'yin boshlang'ich hamda yuqori sinflarda ham qo'llaniladi.

Taniqli metodistlar ta`kidlashicha, ingiliz tili grammatikasini o'rgatishda, avvalambor, grammatika minimumini to'g'ri tanlash va ingliz tili grammatikasini o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish taqozo etiladi. Ingiliz tili grmmatikasini o'ziga xos qiyinchliklari va xususiyatlari quydagilar: ingiliz tilidagi noto'g'ri fe'llar mavjudligi, ingliz tilidagi gap qurilishni qat'iyligi, ingliz tilidagi artikillar, predlog va zamonlarning ko'pligidir. Yuqoridagi kabi xususiyatlar ingliz tili grammatikasini o'zbek tili grammtikasidan farqlaydi.

Maktablarda kuzatilayotgan muammolar qatorida o'quvchida darsga nisbatan passivlik, zerikish, diqqatni jamlay olmaslik kabi jihatlar ham mavjud.Ingliz tilini o'rgatishdagi leksik qiyinchiliklarga kelsak, ular quyidagilar: ingliz tilidagi deyarli barcha so'zlar turli ma'nolarni anglatadi. Ya'ni bir so'z birdan oshiq ma'noni anglatadi. M. Norovaning ta'kidlashicha, ingliz tilida bitta so'z maksimal 23ta ma'noni berar ekan. Ingliz tili lug'atining ma'lum qismi boshqa tillardan kirib kelganligi; Ingliz tilining idiomalarga boyligi hamda bir qancha boshqalar

Xulosa qilib aytganda, chet til o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelish tabiiy, albatta.O'qituvchilar o'quvchilarning qayerda qanday qiyinchiliklarga uchrayotganliklarini kuzatib borib uni bartaraf etish yollarini topib o'quvchilarga yengillik yaratib borishlari darkor.Zero, til materiallarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar nutq faoliyatlarining barcha turlarida ko'nikma xosil qilishlariga to'sqinlik qiladi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqbol va buyk kelajagi yo'lida hizmat qilish — eng oliy saodatdir. -T.: «O'zbekiston». 2015.
2. Norova M. Tarjimada leksik birlik va leksik transformatsiyning qo'llanilishi. Maqola 2-b.
3. Мухаммаджонов Ф.М. O'rta maktab o'quvchilarining ingliz tili o'rganishda duch keladigan qiyinchiliklari. Ф.М.Мухаммаджонов, Д. Р. Юсупова. Текст : непосредственный. // Молодой ученый. 2016. № 3.1 (107.1).
4. www.scientificprogress.uz «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 Volume: 1, ISSUE: 4 148.

REZYUME. Ushbu maqolada ingliz tili grammatikasini induktiv va deduktiv usullardan foydalangan xolda o`rgatishning bir biridan farqi hamda ularning ahamiyati haqida so`z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируются различия и особенности использования индуктивного и дедуктивного метода в обучении английской грамматике.

SUMMARY. There are analyzed the differences of using inductive and deductive ways of teaching grammar and their peculiarities in this article.

YOSH BADIIY GIMNASTIKACHILARNI XOREOGRAFIK MASHQLARI ORQALI JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

T.A.Djumaniyazova – *katta o'qituvchi*
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

Tayanch so'zlar: xoreografiya, jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, majmua, nazorat sinovlari.
Ключевые слова: хореография, физическая подготовка, техническая подготовка, комплекс, экзамены.
Key words: choreography, physical training, technical training, complex, exams.

Mavzuning dolzarbligi. Asosiy etiborimizni yosh badiiy gimnastikachi qizlarni sport bilan, jumladan badiiy gimnastika sporti bilan, shug'ullanishi ularning salomatligiga va jismoniy to'g'ri rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi hech kimga sir emas.

Badiiy gimnastika bilan shug'ullanish davomida yosh qizlarni gimnastika sohasiga oid mashqlarni, jumladan gimnastikada keng qo'llanadigan buyumlar bilan bajariladigan mashqlarni, bajarishni boshlang'ich o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birgalikda jismoniy sifatlariga etibor qaratish lozim, Ushbu o'rinda bunday mashqlarni bajarish jarayoni, tezligi va boshqa siru – sinoatlarini bajarish malaka va ko'nikmalarini mukammal o'zlashtirish usullarini ishlab chiqish, har tomonlama o'rganish va tajribada sinovdan o'tkazish hamda ular asosida yosh avlodni tarbiyalashni tashkil qilish bugungi kun talabi hisoblanadi. Yuqorida bayon etilgan fikr – mulohazalar tanlangan mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Pedagogik kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki,badiiy gimnastikani sport turida xoreografiya mashqlari yuqori saviyali ustalarni tayyorlashni samarali vositasi sifatida tan olingan. Uning yordamida musobaqalar maydoniga olib chiqilgan kompozitsiyalarni yanada yorqin, betakror, ifodali, ko'rimli bo'lishini ta'minlaydi. "Xoreografiya" atamasi raqs tuzish bilan birga raqs va mimika san'atining barcha turlarini mujassam etadi. Aynan xoreografiya bilan shug'ullanish jarayonida gimnastikachilar san'atga

hammadan ko‘proq oshno bo‘ladilar. Umuman, san’at deganda voqe’likni obrazlar orqali aks ettirishni tushunamiz. Raqs san’ati esa bu obrazni tana xarakatlari va mimika (ya’ni yuz ifodasi) orqali etkazishdir. SHu bois xoreografiya shug‘ullanuvchi gimnastikachilar tana xarakatlari orqali muayyan emotsional xolatlarni aks ettirish, turli kayfiyatlarni ifodalash ko‘nikmalari, shuningdek yorqin va esda qolarli obrazni shakallantirish qobiliyati rivojlanadi.

Bundan tashqari, xoreografiya bilan shug‘ullanish jarayonida buriluvchanlik, egiluvchanlik, koordinatsiya, barqarorlik, engil va baland sakrash kabi xususiyatlar paydo bo‘ladi; to‘g‘ri qaddi-qomat shakllanadi; tayanch-xarakat apparati mustaxkamlanadi va nihoyat xarakatlanish madaniyati va ijodiy fikrlash qobiliyati shakllanadi, bu esa jismoniy sifatlarni rivojlantirishida juda muhim xususiyatdir.

Tadqiqotning maqsadi: yosh qizlarni badiiy gimnastika mashg‘ulotlarida bajariladigan mashqlarni boshlang‘ich o‘rgatish uslubini ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari: yosh badiiy gimnastikachilarni, BOSM qatnashchilarning badiiy gimnastika mashg‘ulotlarida boshlang‘ich o‘rgatishmashqlarni ishlab chiqilgan dasturini tajribada

Tadqiqot natijalari. Gimnastikachilarning xoreografik (texnik) tayyorgarligi darajasini ob’ektiv va aniqroq aniqlash maqsadida va surunkali ularning tayyorgarligida kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash uchun 2 marotaba yiliga (may-iyun va sentabr-oktabr oylari har o‘quv yilining) badiiy gimnastikachilarning kompleks tekshiruvi (testlash) o‘tkazildi.

1 jadval. Tajriba guruhi gimnastikachilarining xoreografik tayyorlov bo‘yicha tavsiya etilgan dasturlarining ahamiyatliligi ko‘rsatkichlari

№	Dastur mashqlari	Bajarilishi uchun baho			
		1 yil	2 yil	3 yil	4 yil
	1	2	3	4	5
I	Qo‘l va oyoq pozitsiyasi	6.5 ± 1.7	6.9 ± 1.9	7.5 ± 1.7	7.5 ± 1.7
	demiplie	5.7± 2.3	5.9± 2.7	7,9± 2.3	7,7± 1.3
	grandplie	4.6 ± 0.95	4.7± 0.8	7.6 ± 0.95	7.5 ± 1,3
	releve	5.2± 1.2	5.4± 1.9	6.2± 1.2	6.1± 0.2
	batmantandyu	6.7± 0.9	6.9± 2	7.7± 0.9	7.5± 1.1
X ±δ		5,74±1.41	5,96±1,86	7.38±1.41	7,26±1,12
2	batmantandyujete	6.1±1.5	6,3±1,7	7.1±1.5	7.0±0.5
	rond de jamb par ter	5.4± 2.1	5,9± 2	7.4± 2.1	7.1± 2.2
	rond de jamb an leer	4.7± 2.1	5,3±,1,2	6.7± 2.1	6.5± 1.2
	andeor	5.3± 1.1	5,5±1,8	7.3± 1.1	7.0± 1.0
	andedan	6.7±1.0	6,9±1,3	7.7±1.0	7.3±1.5
	batmanfondyu	6.9±1.5	7,3±1,7	7.9±1.5	7.8±1.8
	batmanfrappe	5.9±0.71	6,4±1,1	7.9±0.71	7.6±1,1
	botyu	5.1±1.3	5,4±1,9	6.1±1.3	6.0±1.6
	passe	5.7±1.4	6,1±1,6	7.7±1.4	7.2±1.2
	Relevelyant	4.9±0.67	5,2±1,3	6.9±0.67	6.6±0.6
	develole	5.1±1.7	5,4±1,8	7.1±1.7	7.0±0.7
	adajio	4.9±1.7	5,1±1,2	6.9±1.7	6.5±1.3
	attetyud	5.1±1.2	5,4±1,8	7.1±1.2	6,7±1.5
	terbushon	4.9±0.97	5,0±1,2	6.9±0.97	6.5±1.9
	grandbatman	6.5±0.83	7,2±1,3	7.5±0.83	7.1±1.8
X ±δ		5,54 ±1.21	5,89±1,52	7,21±1.74	6,9±0,66
3	pike	5.2±1.7	5.6±1.9	6.2±1.7	6.0±0.7
	balanse	6.4±1.4	6.8±1.2	7.4±1.4	7.1±1.1
	pordebra	4.9±1.4	5,4±1,6	7.9±1.4	7.9±1.4
	halq raqslari kombinatsiyalari "Paxta".	6.8±1.1	7,1±1.3	7.8±1.1	7.3±1.5
	halq-xarakterlietyud o‘rtada.	5.4±0.67	5.8±0.3	7.4±0.67	7.3±0.9
	To‘lqin va siltanishlar	6.6±1.4	6.8±1.7	6.6±1.4	6.4±1.1
	muvozanatlar	6.3±1.7	6.5±1.9	6.2±1.7	5,9±1.1
	sakrashlar	4.2±1.5	4.5±1.1	8,3±1.5	8,1±1.1
	burilishlar	6.3±1.7	6.8±1.5	7.3±1.7	7.0±1.0
	X ±δ	5,8±1.39	6,1±1,38	7,3±1.55	7,0±1.1

	Ko‘pkurash	5,7±1.55	6,1±2,0	7,23±1.45	6,9±1.1
	Ritmik gimnastika -	5.2± 1.7	5,7±1,2	7.9± 1.7	8,6± 1.9

Jadval 2. Tajriba guruhi badiiy gimnastikachilarning Egiluvchanlik tavsiya etilgan dasturlarining ahamiyatliligi ko‘rsatkichlari.

Egiluvchanlikning nazorat mashqlari aniqlanganda faqatgina 1% qizlar egiluvchanligi baland darajada ko‘rsatishdi. Qolgan mashqlar bo‘yicha baland ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishmadi. Past natijani esa 54% dan ortiq

p/p	Normativni yozma ifodasi				
		baland	o‘rta	past	topshirilmadi
1	Asosiy xolatdan oldinga egilish, qo‘llar bilan tizzani quchoqlash, va qorin bilan ko‘krakni songa tekkazish. Ortiqcha zo‘riqishsiz 3 soniya ushlab turish.		5 12.5%	20 50%	15 37.5%
2	Gimnastika skameykasida oldinga egilish. O‘lchash skameykani yuqori tomonidan uchinchi barmoqni orasi lineyka orqali aniqlanadi.		6 15%	22 55%	12 30%
3	«baliqcha» - tayanchga qorin bilan yotib, qo‘l va oyoqlarni bukish. Barmoqlar bilan peshonaning oralig‘i o‘lchanadi.	2 5%	8 20%	19 47.5%	11 27.5%
4	Tayoqchani orqaga va oldinga o‘tkazish. Panjalarni orasi lineyka orqali aniqlanadi.		4 10%	23 57.5%	13 32.5%
5	SHapagat chap, o‘ng va ko‘ndalang. Lineyka orqali tekshiriladi.		5 12.5%	20 50%	15 37.5%
6	CHanoqni tayanchdan uzmasdan yoki, gimnastika devoriga gavdaning orqa qismi bilan turib 3 soniya oyoqlarni oldinga ko‘tarib ushlab turish gradus orqali tekshiriladi. gradusda o‘lchanadi.		3 7.5%	27 67.5%	10 25%
	jami	**1%**	**12.9%**	**54.5%**	**31.6%**

qizlar ko‘rsatdi. 31% dan oshiq qizlar egiluvchanlik mashqlarini topshirolmadi. Kelib chiqqan natijalardan ko‘rinib turibdiki, qizlarning egiluvchanlik darajasi talabga javob bermaydigan xolatda. Xoreografiya mashqlarini o‘zlashtirish uchun egiluvchanlik asosiy vosita hisoblanadi.

Jadval 3. Tajriba guruhi badiiy gimnastikachilarning Etezkor kuchni tavsiya etilgan dasturlarining ahamiyatliligi ko‘rsatkichlari

№ p/p	Normativni yozma ifodasi				
		baland	o‘rta	past	topshirilmadi
1	Ikki oyoq bilan uzunlikka sakrash.		7 17.5%	22 55%	11 27.5%
2	Qadamlab sakrash. Oyoqning o‘ng yoki chap tomoni bilan sakrab, ikkala oyoqning bittasiga qo‘nish.	2 5%	9 22.5%	20 50%	9 22.5%
3	Asosiy xolatdan uch martta sakrash. Sifat va uzunlik baxolanadi.		5 12.5%	28 70%	7 17.5%
	jami	**1%**	**18.5%**	**58%**	**22.5%**

Tezkor kuchni nazorat mashqi natijalarining ko‘rsatkichlari aniqlanganda faqatgina 1% qizlar tezkor kuchi baland darajada ko‘rsatishdi. Qolgan mashqlar bo‘yicha baland ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishmadi. Past natijani esa 58% dan ortiq qizlar ko‘rsatdi. 22.5% dan oshiq qizlar tezkor kuch mashqlarini topshirolmadi. Kelib chiqqan natijalardan ko‘rinib turibdiki, qizlarning tezkor kuch darajasi qo‘yilgan talabga javob bermadi. Xoreografiya mashqlarini o‘zlashtirish uchun tezkor kuch ma’lum darajada kerakli vositalardan biri Hisoblanadi.

Jadval 4. Tajriba guruhi badiiy gimnastikachilarning Muvozanat saqlash tavsiya etilgan dasturlarining ahamiyatliligi ko‘rsatkichlari

№ p/p	Normativni yozma ifodasi				
		baland	o‘rta	past	topshirilmadi
1	Bir oyoqda muvozanat saqlab turib, ikkinchi oyoq bukilgan xolatda tovonni tizza bo‘g‘imiga yaqinlashtirib turib, qo‘llar oldinga, ko‘zlar yumilgan xolatda.		6 15%	19 47.5%	15 37.5%
2	Oyoq uchida muvozanat saqlash. Ikkinchi oyoq orqaga, qo‘llar yonga.		8 20%	20 50%	12 30%
3	5 ta o‘mbaloq oshish, xar biri 2 soniyada bajariladi va joyida 5 ta sakrash.	2 5%	12 30%	23 57.5%	3 7.5%
	jami	1%	22.4%	51.6%	25%

Muvozanatni saqlash funksiyasini nazorat qilishni natija ko‘rsatkichlari aniqlanganda esa faqatgina 1% qizlar muvozanatni saqlash funksiyasini baland darajada ko‘rsatishdi. Qolgan mashqlar bo‘yicha baland ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishmadi. Past natijani esa 51.6% dan ortiq qizlar ko‘rsatdi. 25% dan oshiq qizlar tezkor kuch mashqlarini topshirolmadi. Kelib chiqqan natijalardan ko‘rinib turibdiki, qizlarning muvozanatni saqlash darajasi qo‘yilgan talabga javob bermadi. Xoreografiya mashqlarini o‘zlashtirish uchun muvozanatni saqlash asosiy vosita xisoblanadi.

YUqorida aytilganlarga tayangan holda jadval (1,2,3,4) keltirilgan misollarni hisobga olganda tajriba jarayonida olingan ma’lumotlarni solishtirib quyidagi xulosaga kelish mumkin:

- boshida ilgari surilgan tadqiqot gipotezasi 9-11 yoshli gimnastikachilarni xoreografik mashqlarga o‘qitish maqsadida o‘quv-trenirovka jarayonini qurish mumkinligi haqida o‘zining amaliy tasdig‘ini topdi;
- taklif etilgan etiltirib-rivojlantiruvchi komplekslar maxsus-harakatlanish komplekslari va maxsus-jismoniy sifatlarni o‘quv-trenirovka mashg‘ulotlari jarayonida rivojlantirishga imkon beradi;
- xoreografik tayyorgarlik vositalarini ratsional taqsimlash, shuningdek yil bo‘yicha dasturiy o‘quv metodlarini effektiv qo‘llash nafaqat xoreografik mashqlarning katta xajmini muvafaqqiyatli o‘zlashtirishga balki eng asosiysi estetik jihatdan oqilona musobaqaviy kombinatsiyalarni erkin mashqlarda yakkacho‘p taxtada shakllantirishga imkon beradi .

Lekin o‘quv-trenirovka jarayonining tajribada tasdiqlangan va samarali tavsiya etilgan xoreografiya mashqlari estetik vositalar sifatida o‘rgatish metod va vositalari shuningdek maxsus-harakatlanish sifatlarini rivojlantirish faqat nazorat va rasmiy musobaqalarda tekshirish mumkin bo‘ldi, mustaqil ekspertlar guruhi IBO‘OZSMtrenerlari va etakchi xoreograflarni taklif etgan holda.

Adabiyotlar

1. Xaytmetov I.S Gimnastikaning sport turlarida xoreografik mashqlarini o‘tkazish uslubiyoti O‘quv-uslubiy qo‘llanma –T.: «Fan va texnologiya», 2016,130-b.
2. Eshtaev A.K. Sport gimnastikasi mashgulotining nazariy asoslari. Uslubiy qo‘llanma. T.: O‘DJTI nashriyot-matbaa bo`limi, 2009, 113-b.
3. Eshtaev A.K. Karabaeva D.S. Xasanova N. R. Badiiy gimnastikada buyumsiz bajariladigan mashqlarni o‘rgatish uslubi. O‘quv qo‘llanma. “Fan va texnologiya nashiriyoti” -T.: 2013, 252-b.
4. Умаров М.Н., Эштаев А.К. Программные требования гимнастики и технология их распределения по годам обучения //Методическое пособие. - Т.: Издательско-полиграфический отдел УзГИФК, 2009, -С. 124.
5. Umarov M.N., Ishtaev D.R. Kasbiy-pedagogik bilim va ko`nikmalarni gimnastika darsida shakllantirish. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. -T.: O‘DJTI nashriyot-matbaa bo□limi, 2010, 107-b.
6. Umarov M.N. Gimnastika. O‘quv qo‘llanma. -T.: 2015, 400-b.
7. Efiminko A.I. Yo‘ldoshev K.K, Umarov M.N. Gimnastika darsining samaradorligini oshirish usullari. (Metodik qo‘llanma). -T.: 1995, 102-b.

REZYUME. Ilgari surilgan tadqiqot gipotezasi 9-11 yoshli gimnastikachilarni xoreografik mashqlarga o‘qitish maqsadida o‘quv-trenirovka jarayonini ko‘rish mumkinligi haqida o‘zining amaliy tasdig‘ini topdi, taklif etilgan rivojlantiruvchi komplekslar maxsus-harakatlarning komplekslari va maxsus-jismoniy sifatlarin o‘quv-trenirovka mashg‘ulotlari jarayonida rivojlantirishga imkon beradi.

РЕЗЮМЕ. Исследовательская гипотеза нашла свое практическое подтверждение, что можно рассматривать учебно-тренировочный процесс с целью обучения гимнасток 9-11 лет хореографическим упражнениям, предлагаемые развивающие комплексы представляют собой комплексы специальных движений и специальных физических качеств. позволяет развиваться во время тренировок.

SUMMARY. The gynecology of the research has found that the 9-11 year old gymnastics team has found practical proofs that the training process can be trained to teach choreographic exercises, and the proposed developmental complexes have been specially formulated for special motion complexes and physical characteristics, which will allow them to develop in the course of training sessions.

БИТИРУВЧИЛАРНИНГ ШАХСИЙ ВА КАСБИЙ РИВОЖЛАНИШИДА МОСЛАШУВЧАН ИЖТИМОИЙ-ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМНИНГ ЎРНИ

А.С.Джураев – *педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори*
Бош илмий-методик марказ

Таянч сўзлар: мослашувчан таълим, таълим тизими, ассимиляция, шахсий ривожланиш, касбий ривожланиш.
Ключевые слова: адаптивное образование, образовательная система, усвоение, личностное развитие, профессиональное развитие.
Key words: adaptive education, educational system, assimilation, personal development, professional development

Олий таълим тизими бошқарувига мослашувчан технологияларни қўллаш орқали ўқитишнинг эришилган натижалари ўқитиш диагностикасига ҳисса қўшадиган интеллектуал тизимни ишлаб чиқишни тақозо этади. Талабаларнинг таълим натижаларини, шу жумладан мослашувчан технологияларни баҳолаш тизимини таҳлил қилиш устувор ўринни эгаллайди. Билимларни бошқариш тизимларида автоматик текширишни таҳлил қилиш ҳам ўзига хос аҳамиятга эга.

“Мослашувчан бошқарув” атамаси яхши бошқарувда мавжуд бўлган одатий мослашувдан ташқарига чиқадиган мослашишни англатади. Мослашувчан бошқарув - вазият ёки тушунишдаги ўзгаришларга жавобан режаларни ўзгартириш ва бу қарорларни ишлаб чиқиш учун зарурий маълумотдан фойдаланишдир.

Мослашувчан бошқарув классик, чизиқли ёндашувлардан режалаштириш, амалга ошириш ва баҳолашга парадигма ўзгаришини ифодаловчи доимий ноаниқлик шароитида бошқарув ёндашувини англатади. Ахборотдан фойдаланишга бундай ёндашув режалаштириш босқичида батафсил режалар тузиш учун етарли маълумот тўплаш имкони бўлмаганда керак бўлади. Бу доимий ноаниқлик шароитида ўрганиш ва керак бўлганда мослашиш учун атайлаб амалга ошириладиган ҳаракатларни ўз ичига олади.

Мослашувчан бошқарув - бу амалга ошириш жараёнида мақсадларни ўзгартириш эмас, балки ўзгаришларга жавобан мақсадларга эришиш учун фойдаланиладиган йўлни ўзгартиришдир. Айни шу маънода, университетда университет профессор-ўқитувчиларини касбий тайёрлашнинг мураккаб ва кўп омилли хусусияти уни кўриб чиқишда тизимли ёндашувдан фойдаланишни талаб қилади. Уни ҳал қилиш йўлларидан бири сифатида биз ўқувчиларнинг имкониятларини ҳисобга олган ҳолда қурилган, уларнинг хилма-хил эҳтиёжлари ва манфаатларини қондиришга қаратилган, уларнинг ҳаётини ўз тақдирини ўзи белгилаши ва ўзини ўзи бошқариши учун шароитларни таъминлайдиган мослашувчан ўқув жараёнини яратишни кўриб чиқамиз.

Психологик мослашув шахснинг фаолияти билан белгиланади ва турар жой ва ассимиляция бирлиги сифатида ишлайди. Мослашув кўрсаткичлари сифатида ташвишнинг йўқлиги ёки пастлиги ва ўзини ўзи қадрлашнинг юқори даражаси ҳисобга олинади.

Ижтимоий мослашув деганда, шахснинг ижтимоий фаоллигини шакллантириш ва ривожлантириш жараёни, унинг ҳаётий фаолиятини тартибга солишнинг ижтимоий, ижтимоий-психологик ва биологик механизмлари тушунилади.

Ижтимоий мослашув - бу шахс ёки ижтимоий гуруҳнинг ижтимоий муҳит билан ўзаро таъсирининг бир тури бўлиб, унда ижтимоий субъектларнинг талаблари ва кутишлари, уларнинг имкониятлари ва ижтимоий муҳитнинг ҳақиқати билан мувофиқлаштирилади. Шундай қилиб, мослашувнинг ижтимоий, физиологик, психологик, биоижтимоий, ижтимоий-маданий ва бошқа турлари ўртасидаги фарқларга қарамай, бўлажак мутахассисни касбий тайёрлашнинг ҳақиқий жараёнида ўзаро боғлиқ ҳолда улар шахсни мослаштиришнинг ягона жараёнининг алоҳида жиҳатлари бўлиб чиқади. касбга. Шахснинг касбий мослашуви икки томонлама ўзаро таъсир жараёни бўлиб, унинг давомида шахсда ҳам, умуман инсон психикасида ҳам, касбий тайёргарлик тизимида ҳам, унинг меъёрлари, қоидалари, қадриятларида ўзгаришлар содир бўлади. Мослашув жараёнида шахс ва атроф-муҳит ўртасидаги ўзаро муносабатлар уйғунлашади.

Педагогикада шахсни ўқитиш жараёнига ушбу атаманинг киритилиши ҳар бир шахснинг қадр-қиммати, унинг оптимал ривожланиши ва ўзини ўзи ривожлантириш, қобилият, истеъдод ва қобилиятларни очишга асосланган таълимни қуришнинг гуманистик концепциясини амалга ошириш зарурати билан боғлиқ эди. мослашувчи шахслар ва ижтимоий муҳитнинг самарадорлигини ошириш учун тегишли шарт-шароитларни яратишдир.

Шундай қилиб, "мослашиш" атамаси ўқитувчиларнинг бошқарув фаолиятини ўқувчиларнинг назорат қилинадиган ва ўзини ўзи бошқарадиган фаолияти билан касбий тайёргарлик тизимида мувофиқлаштиришга олиб келадиган мураккаб динамик жараён сифатида тушунилиши керак. Ушбу ўзаро таъсирнинг изчиллигига эришилади:

- талабани ўқув жараёнининг асосий субъекти сифатида тан олиш, бўлажак мутахассиснинг субъектив тажрибасини аниқлаш ва тизимлаштириш орқали уни ривожлантириш воситаларини аниқлаш;
- талабанинг шахсини ривожлантириш психологик-педагогик диагностикаси, талабаларнинг эҳтиёжлари ва мотивларини аниқлаш;
- касбий тайёргарлик ва шахсни ҳар томонлама ривожлантириш жараёнини талабаларнинг индивидуал типологик хусусиятларига мослаштирадиган педагог-ўқитувчининг бошқарувчи таъсири;
- талабанинг ўз фаолиятини акс эттириш асосида ўзини ўзи бошқаришнинг юқори даражаси.

Ижтимоий-гуманитар фаннинг профессор - ўқитувчиларини касбий тайёрлашнинг мослашувчан тизими - бу ўзаро таъсир қилувчи ўқув жараёни субъектларининг ўзаро, атроф-муҳит ва уларнинг маънавий ва моддий қадриятлари ўртасидаги ҳамкорликка асосланган ижтимоий-шахсий шартли яхлитлиги, ижтимоий муҳитни ўзгартириш орқали талабаларнинг индивидуал хусусиятларига мослашиш ҳамда шахснинг касбга киришишини оптималлаштириш ва унинг касбий муҳит билан ўзаро

муносабатларини уйғунлаштириш мақсадида бўлажак мутахассиснинг касбий компетенциясини шакллантиришнинг педагогик ҳолатидир.

Университетда ижтимоий-гуманитар фаннинг профессор- ўқитувчиларини касбий тайёрлашнинг мослашувчан тизими ўзининг тузилишидан ташқари, уни яратишнинг ўзига хос хусусиятлари билан боғлиқ бўлган бир қатор муҳим хусусиятларга эга. Белгиланган тизим келажакдаги ижтимоий фан ўқитувчисининг касбий компетенциясини шакллантириш жараёнини илмий асослаш, узлуксиз бошқариш, технологик қўллаб-қувватлаш ва амалий амалга оширишга қаратилган бўлиши керак.

Ижтимоий-гуманитар фаннинг профессор-ўқитувчиларини касбий тайёрлашнинг мослашувчан педагогик тизимининг моҳияти унда тегишли элементларнинг мавжудлиги билан белгиланади, уларсиз у ишлай олмайди.

Ижтимоий-гуманитар фаннинг профессор-ўқитувчиларини касбий тайёрлашнинг мослашув тизимининг марказида ушбу тизимнинг умумий субъекти бўлиб, унинг мақсадларини, методлари, усуллари, технологиялари, воситаларининг мазмунини белгилайдиган талаба ва университет ўқитувчисининг шахсияти туради.

Фикримизча, тжтимоий-гуманитар фан профессор-ўқитувчиларининг касбий тайёргарлиги натижалари, адаптив педагогик тизим самарадорлигини баҳолаш мезонлари ижтимоий педагогларни касбий тайёрлашнинг мослашувчан педагогик тизими билан тавсифланади. Касб-ҳунар таълимининг асосий мақсади бўлажак мутахассис шахсни ҳар томонлама ривожлантиришдир, шунинг учун талаба шахси педагогик тизимнинг ўзига хос "объекти-субъекти" бўлиб, бир вақтнинг ўзида унинг мақсади сифатида ишлайди. Касбий тайёргарликнинг мослашув тизимининг самарадорлиги келажакдаги мутахассиснинг субъективлиги билан таъминланади, бу ўз-ўзини билиш, ўз тақдирини ўзи белгилаш, ўз-ўзини ривожлантиришга қаратилган фаолият сифатида тушунилади.

Субъективликнинг энг муҳим хусусияти унинг процессуал табиати, чексизлиги ва очиқлиги бўлиб, у ижтимоий педагогнинг касбий компетенциясининг динамик хусусиятини таъкидлайди. Субъективлик тоифаси шахс тоифаси билан диалектик бирликда, чунки субъектнинг фаолияти мақсадли, мотивацион ва қиймат-семантик шахсий шаклланишларга туртки бўлиб, маҳсулот ва фаолият натижаси шаклида объектив баҳоланиши мумкин. Шу боисдан ҳам, талабанинг субъективлиги, шахснинг касбий намоён бўлиши, ўзини намоён қилиш, ўзини ўзи англаш учун фаол режани ташкил қилади.

Шахс ривожланишининг энг юқори даражаси сифатида субъективлик инсон потенциалининг табиий ҳолатини амалга оширишга ёрдам беради. Ўз-ўзини англаш инсоннинг асосий қадриятларидан бири бўлиб, унинг ўз қобилиятларини оптимал тарзда намоён этиш ва уларни самарали касбий фаолият жараёнида амалда қўллаш қобилиятини акс эттиради.

Университет ўқитувчиси томонидан касбий таълимнинг мослашув тизимида педагогик фаолият мақсадларини белгилаш Давлат олий касбий таълим стандартида ижтимоий ўқитувчининг шахсиятига қўйиладиган талабларда белгиланган ижтимоий буюртмани ҳисобга олган ҳолда амалга оширилади. Ушбу тартибни талабаларнинг шахсий хусусиятлари, имкониятлари, эҳтиёжлари билан уларнинг таълим ва шахсий салоҳиятини ўрганиш, касбий ва шахсий ривожланиш истиқболларини лойиҳалаш асосида боғлаш керак.

Мослашувчан таълим тизимининг асосий характеристикалари бундай тизимларни лойиҳалаш ва амалга ошириш жараёнини таъминлайдиган технология мавжудлигига асосланади. Ҳар қандай педагогик лойиҳа - бу ўз навбатида устувор педагогик қадриятларга боғлиқ бўлган муайян мақсадларга эришиш учун режалаштирилган ва амалга ошириладиган ҳаракатлар, зарур шарт-шароитлар ва воситалар тизимидир. Шу билан бирга, бўлажак мутахассисни касбий тайёрлаш натижалари нафақат қўлланиладиган педагогик технологияларга, балки педагогик фаолиятни баҳолаш тизимига, ўқитувчиларни самарали ва ижодий меҳнатга рағбатлантиришга, ўқитишда қулай психологик муҳитни яратишга боғлиқ.

Мослашувчан менежмент деганда, бошқарувчи ва бошқариладиган қуйи тизимларнинг индивидуал хусусиятлари ва атроф-муҳитни ҳисобга олган ҳолда, режалаштирилган натижага эришиш учун мақсадли, психо-тежамкор, ресурслар билан таъминланган ўзаро таъсири жараёни тушунилади.

Келажакдаги ижтимоий ўқитувчининг касбий тайёргарлиги учун мослашувчан тизимни лойиҳалаш ижтимоий йўналтирилган ташқи ва ички шахсий йўналтирилган омиллар билан белгиланади. Ташқи, хусусан унинг атроф-муҳит билан профессионал ўзаро муносабатлари қуйидаги асосий йўналишларда амалга оширилади:

- касбий фаолиятга мослашиш: унинг мазмуни, мақсадлари, воситалари, амалга ошириш технологияси, фаолият тури ва интенсивлиги;
- ташкилий ва тартибга солувчи: ишлаб чиқариш талабларига, меҳнат интизомига, ташкилий меъёрларга, қоидаларга ва бошқаларга мослашиш;
- ижтимоий-ижтимоий: касбий ижтимоий функцияларига, ижтимоий ўқитувчининг ижтимоий-профессионал мақомига мослашиш;
- сўзнинг кенг маъносида ижтимоий: мутахассиснинг касбий фаолияти содир бўлган ижтимоий шароитларга - ижтимоий-сиёсий, этник, ҳуқуқий, диний, минтақавий ва бошқа муҳитга мослашиш.

Мутахассиснинг касбий мослашувининг ушбу соҳаларининг ҳар бири унинг маълум даражадаги тайёргарлиги, мослашувчан потенциали мавжудлигини назарда тутади.

Мутахассиснинг касбий мослашувининг ички омиллари бўлажак ижтимоий ўқитувчининг ижтимоий-педагогик фаолиятни касбий танлаш мотивациясининг етарлилиги, касбий компетенциянинг талабларга мувофиқ шаклланиш даражасига асосланган ички мослашув салоҳиятини ўз ичига олади.

Фикримизча, келажакдаги ижтимоий-гуманитар фаннинг профессор-ўқитувчиларини касбий тайёрлаш тизимини мослашувчан бошқариш қуйидагилар билан тавсифланади:

- мослашувчан бошқарув жараёнида педагогик жараённинг ҳар бир иштирокчисига турли майл ва қобилиятлари учун шароит яратилади. Бундай шароитда педагогик тизим субъектларининг эҳтиёжларига, мотивацион соҳаларига нима мос келишини тушуниш, асосланиши керак;

- мослашувчан бошқарув ўз субъектларининг хусусиятлари ва у томонидан яратилган шароитлар орқали инсоннинг жисмоний табиати, ижтимоий ва маънавий - ахлоқий моҳиятидан келиб чиқади, ижтимоий-педагогик фаолият қадриятлари тизимига асосланади;

- мослашувчан бошқарув, бир томондан, шахснинг индивидуал хусусиятларини, хусусан эҳтиёжи доираси, идрок этиш даражаси, эмпатия ва фаолият жараёнида иштирок этиш қобилиятини имкон қадар кўпроқ ҳисобга олишга интилади. Бундай икки томонлама стратегия шахсга касбий ва таълим муҳитида ўз маконини эгаллашга имкон беради ва уни тез ўзгарувчан касбий фаолият шароитларига мослаштиради;

- мослашувчан бошқарувнинг мақсади - шахсни сақлаш ва ривожлантириш, малакали мутахассисни тарбиялашдир. Мақсадлар шундай поғоналарда тақдим этилиши керакки, унда таълим мазмунининг таркибий қисмлари, яъни билимлар, фаолият усуллари ва муносабатлар ўртасида мавжуд бўлган объектив муносабатлар амалга оширилади. Шунингдек, ҳар бир талабанинг ўзига хос хулқ-атвор стратегиясини, касбий ривожланиш йўналишини, инсон маданияти шароитида ўзини ўзи англаш ва такомиллаштириш йўналишларини мустақил, онгли равишда танлаши учун шароит яратиш керак;

- мослашувчан бошқарувни амалга оширишда талабаларни касбий тайёрлаш мазмунида жамиятнинг устувор қадриятларини, шунингдек қадриятлар, эътиқодлар, фаолият мотивларини белгилайдиган ижтимоий-педагогик фаолиятнинг аксиологик асослари каби таркибий қисмлар мавжуд. Муҳими шахс, таълим мазмуни ўзгарувчан хусусиятга эга бўлса-да, маълум бир шахс учун муҳим бўлган мазмун ўзлаштирилади;

- ижтимоий-гуманитар фан профессор-ўқитувчиларининг касбий тайёргарлиги жараёнини мослашувчан бошқариш ўқитишни ташкил этишнинг принципиал жиҳатдан янги моделига асосланади, бу фаолият назариясининг асосий қоидаларини амалиётга самарали татбиқ этишни таъминлайди. Ўқитиш, шахс фаолиятларидан бири сифатида, мослашувчан тизим шароитида, асосан, фаол, мустақил, бошқариладиган фаолиятга айланади;

- мослашувчан бошқарув ҳар бир ўзини ўзи бошқариш ва биргаликда бошқаришни, ўз фаолиятини акс эттиришни талаб қилади, натижада педагогик жараённинг бошқа иштирокчиларининг ўз ҳаракатлари ва позицияларини, ўз-ўзини англайди.

Университетнинг ўқув жараёнини бошқаришнинг адаптив тизимининг асоси - бу педагогик жараён иштирокчиларининг психофизик хусусиятларини, мойилликларини, қобилиятларини ҳисобга олган ҳолда, индивидуаллаштириш ва дифференциялаш орқали унинг мослашувчанлиги, мажбурий компенсацион диагностика ва тузатишга асосланган ҳолда, ҳар бир талабанинг касбий Компетенциясининг ривожланишини назорат қилишга қаратилади.

Мослашувчан таълим тизимининг муҳим хусусиятларидан бири унинг ишлаб чиқариш қобилиятидир. Илмий тадқиқотлар ва ўқитувчиларнинг касбий тайёргарлиги амалиёти таҳлили шуни кўрсатадики, адаптив тизимда турли хил педагогик технологиялар қўлланилиши мумкин: цикло-стреаминг, даражаларни фарқлаш, мослашувчан ўқитиш усуллари, модулли. Бу технологияларнинг барчасига умумий бўлган нарса нафақат таълим мазмунини, балки мустақил ишлашга, шахснинг ўзини ўзи ривожлантиришига, унинг фаоллиги ва ижодкорлигига эътибор қаратган ҳолда ўқувчиларнинг фаолиятини тизимлаштириш, ёрдам кўрсатиш, келажакда мутахассиснинг ўз фаолияти натижаси учун жавобгарлиги, ўз имкониятларини синаб кўриш ва намойиш қилиш учун шароит яратишга асосланади.

Таълимнинг фундаментал моҳиятининг асосий тамойилига мувофиқ, унинг мазмуни қатъий илмий бўлиши, илмий билимларнинг ижтимоий-педагогик тармоғининг ҳозирги ҳолатини объектив равишда акс эттириши ва уни ривожлантириш тенденциялари ва истиқболларини ҳисобга олиши керак. Билим, кўникма, малакалар маълум тартибда шакллантирилиши керак, хусусан ўқув материалининг ҳар бир элементи бошқалари билан мантиқий боғланган бўлиши керак, кейингиси олдингисига асосланиб, янгисини ўзлаштиришга тайёрланиши керак, деб ҳисоблаймиз.

Фаолият ёндашуви нуқтаи назаридан ижтимоий-педагогик таълим мазмуни қуйидаги таркибий элементларга эга:

унинг натижалари шаклида мустаҳкамланган когнитив фаолият тажрибаси - билим;

фаолиятнинг маълум усулларини амалга ошириш тажрибаси - намуна бўйича ҳаракат қилиш қобилияти шаклида;

ижодий фаолият тажрибаси - муаммоли вазиятларда ностандарт қарорлар қабул қилиш қобилияти шаклида;

ҳиссий муносабатларни амалга ошириш тажрибаси - шахсий йўналишлар шаклида. Бу элементлар ўзаро шундай боғланганки, ҳар бир олдинги элемент кейингисига ўтиш учун зарурий шарт бўлиб хизмат қилади.

Анъанавий таълим тизими сингари, адаптив таълим тизими ҳам қатъий, бир неча босқичли таркибга эга. Мослашувчан тизимдаги асосий таркиб ҳамма учун очиқ бўлиши керак, энг қобилиятли талабаларга эмас, балки энг кам қобилиятли талабаларга эътибор қаратиш лозим. Фақат бу ҳолатда, кўпчилик талабалар учун жисмоний ва психологик ортиқча юкламасдан стандартни ҳақиқатан ҳам ўзлаштириш мумкин. Асосий мазмун асосида касбни янада чуқур ривожлантириш танланган профилга, бўлажак ижтимоий ўқитувчи учун энг қизиқарли бўлган касбий билим соҳасига мувофиқ амалга оширилади.

Мослашувчан таълим тизими таълим дастурлари таркибида таълимнинг у ёки бу шаклини танлашни таъминлайдиган табақалаштирилган бўғинларнинг мавжудлигини, бажарилаётган вазифанинг мураккаблик даражаси, мазмунининг ўзгарувчанлиги орқали талабаларнинг касбий тайёргарлигини ўзгартириш имкониятини яратади. Шунга кўра, ҳар бир талаба индивидуал таълим йўналишини шакллантириш имкониятига эга бўлади, шу жумладан ўқув

дастурининг мажбурий асосий фанлари билан бир қаторда, индивидуал фанлар тўплами ва уларни ўрганиш жадвали, индивидуал тадқиқот режасини шакллантириш, индивидуал илмий-тадқиқот ва илмий-педагогик амалиёт дастурлари, курс ва битирув малакавий ишлари бўйича индивидуал иш жадваллари ишлаб чиқилади.

Таълим мазмуни, агар ўқув вазиятига у учун семантик аҳамиятга эга бўлган вазифа шаклида киритилган бўлса, талабанинг шахсий фаоллигини юзага келтиради. Талабаларга йўналтирилган таълим соҳасида тадқиқотлар олиб борган олимлардан Э.В. Бондаревская, В.П.Беспалко, Д.А.Белухин, С.В.Кулневичларнинг ишларига асосланиб, мослашувчан таълим тизими мазмунининг қуйидаги таркибий қисмларини ажратиб кўрсатиш мумкин:

- аксиологик, бўлажак мутахассисни умуминсоний ва касбий қадриятлар дунёсига киритишни таъминлайди;
- умумий ривожланиш, талабаларнинг ақлий қобилиятларини, умумий илмий Компетенцияларни ривожлантириш усулларини ўз ичига олади;
- талабаларнинг ижтимоий-педагогик фаолиятга қизиқишини уйғотадиган педагогик билим, кўникма ва малакаларни чуқур ўзлаштиришни, умумий педагогик Компетенцияларни ривожлантиришни таъминлайдиган ўқитиш;
- когнитив, келажакдаги мутахассиснинг маънавий ривожланишининг асоси сифатида инсон, маданият, тарих, табиат ҳақидаги билимлар тизимини шакллантиришга имкон беради, ижтимоий педагогиканинг асосий тоифалари ва тушунчаларини амалга оширишнинг асосий жиҳатларини очиб бериш;
- бўлажак мутахассислар томонидан ижтимоий-педагогик фаолиятнинг мазмунини ўзлаштириш тажрибасини қамраб оладиган, касбий фаолиятда шахснинг ўзини ўзи англаши учун зарур бўлган ижодий қобилиятларни, талабалар фаолиятининг турли усулларини ривожлантиришга қаратилган фаолият-ижодий, ижтимоий ўқитувчининг самарали фаолияти учун зарур;
- рефлексив-шахсий, шахснинг ўзини ўзи билишини, унинг рефлексив қобилиятларини ривожлантиришни таъминлайди, ўзини ўзи бошқариш, ўзини ўзи такомиллаштириш, ахлоқий ўзини ўзи белгилаш усулларини ўзлаштиришга қаратилган, келажакдаги ҳаётий позициясини шакллантиради;
- талабанинг касбий Компетенциясини шакллантиришда эришилган натижаларни ўз-ўзини баҳолашга, уни ривожлантиришдаги муаммоларни, ўз-ўзини такомиллаштириш ва ўз-ўзини ривожлантириш асосида уларни ҳал қилиш йўллари ва механизмларини тушунишга қаратилган.

Мослашувчан таълимда қўлланиладиган технологиялар субъектларнинг табиий ҳамкорлигини, суҳбатларни, шахсий муҳим муаммоларни ҳал қилишни ва тажрибани бепул текширишни акс эттириши керак. Мослашувчан таълим технологияларини амалга оширишнинг асоси бўлажак мутахассис томонидан ўз фаолиятини акс эттириш асосида монологдан диалокка, ижтимоий назоратдан ривожланишга, бошқарувдан ўзини ўзи бошқаришга ўтишдир.

Мослашувчан таълимга хос бўлган тушуниш ва ўзаро тушуниш бўлажак ижтимоий ўқитувчининг касбий тайёргарлиги жараёнининг барча субъектлари билан алоқа, ҳамкорлик, тенгликни ўз ичига олади.

Юқорида келтирилган тавсия ва муҳокамалар асосида ушбу ҳолатларни янада такомиллаштириш аҳамиятлидир.

-Олий мактабларда ёшлар миллий маданиятни оширишга қаратилган фаолиятни йўлга қўйиш;

-Замон талабига кўра ҳар бир ўқувчи-талабанинг ўз устида ишлашини назоратга олган ҳолда уларда миллий қадриятларга ҳурмат кўникмаларини шакллантириш;

-Ўқув муассаларида “Миллий қадриятларимиз-фахримиз” шиори остида кўплаб тадбирлар ўтказиш ва бу орқали ўқувчи ёшлар онгида миллий ўзликни англаш, миллий дунёқарашни шакллантириш;

-Миллий маънавиятимизнинг шаклланишида ўз ҳиссасини қўшган ўзбек маърифатпарварлари ва уларнинг ўлмас мероси билан ёшларни яқиндан таништириш, улардаги вафо, садоқат, ватанпарварлик, миллий ўзликни англашда кўмаклашувчи ёндашувларини амалий ҳаётимизга тарғиб этиш;

-Ёшларни замонавий билим олиши асосида миллий маданиятимизни замонага мос хос билимлар билан бойитиб такомиллаштириш;

Олий таълимда билим олаётган ёшларнинг аксарияти ёш оила соҳиб ва соҳибалари бўлса айримлари эса бўлажак ота-оналардир. Демак, олий таълимда ўз билимини ошираётган талабалардаги мавжуд миллий тарбия эртанги кундаги пойдеворнинг мустаҳкамлигига заминдир. Чунки, тарбия ҳавога ўхшайди. Уни кўриб бўлмаса ҳам таъсирини ҳар сонияда сезиш мумкин.

Бугун ҳар бир ёш ўз устида ишлаш ва замонавий билим олишга интилиши зарур. Яъни замонавий билимларни олиб, миллий замонавий тарбияни ўзида ривожлантириши орқали маънавиятини ўстириши ва ёш авлодни ривожланган тарбия асосида баркамол шахс бўлиб ўсишишида ўз хиссасини қўшмоғи аҳамиятлидир.

Адабиётлар

1. 2019 йил 31 декабрдаги “Узлуксиз маънавий тарбия концепцияси” ПҚ-4307 сонли қарори.
2. Қуронов М. “Болам бахтли бўлсин десангиз…” –Тошкент: “Маънавият”, 2013.
3. Назаров. Қ. Аксиология (Қадриятлар фалсафаси). –Тошкент: «Академия», 2011.

4. Ҳусанов Б., Ғуломов В. “Муомала маданияти” Таълим нашриёти. –Тошкент: 2009.
5. Мардонов Ш.Қ. Педагог кадрларни таълимий қадриятлар асосида тайёрлаш ва малакасини оширишнинг педагогик асослари: пед. фан. докт…. дисс…. –Тошкент: 2006, 302-б.
6. Қуронов М. Ўзбекистонда умумий ўрта таълим мактабларида миллий тарбияинг илмий-педагогик асослари: пед. фан. номз…. дисс…. –Тошкент: 2000, 155-б.
7. Ерназаров Р.У. Миллий ва умум инсоний қадриятлар диалектикаси: пед. фан. номз…. дисс…. –Тошкент: 1993, 163-б.
8. Маматқулова Р. Миллий маънавий меърос асосида унверситетларнинг талабаларида хулқ-одоб фазилатларини тарбиялаш: пед. фан. номз…. дисс…-Тошкент: 1995, 221-б.
9. Шарафутдинова Х. Ўқув-методик мажмуа. Педагогик фаолият психологияси. –Термиз: 2019.
10. gazeta.uz

РЕЗЮМЕ. Ушбу мақолада олий таълимда таҳсил олаётган талабаларга қадимий анъаналаримиз ва боқий қадриятларимизни ҳозирги замон илм-фани ютуқлари билан уйғунлаштирган ҳолда ўргатиб боришнинг афзаллиги ўрганилади. Бугунги кунда педагогик ҳамкорлик асосида миллий мулоқот маданиятини ривожлантиришда урф-одат, анъана, миллий, умуминсоний, таълимий қадриятларни, миллий маънавий меъросимизни мукаммал билишимиз зарурдир. Бунинг учун эса педагог талабалар билан мулоқотини тўғри ташкил этиши ва сўзлашишни, мулокот олиб боришни доимо ўрганиб бориши аҳамиятлидир. Чунки бу педагогга дарсни самарали олиб бориш имконини беради. Шунга кўра мақолада сухбат, лекция, хикоя қилиш каби усулларидан унумли фойдаланиш асосида таълим-тарбия жараёнига миллий мулоқот маданиятини ривожлантириш омилларининг олиб киришнинг аҳамиятлилик даражаси илмий жиҳатдан таҳлил қилинган.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматриваются достоинства обучения студентов высших учебных заведений путем сочетания наших древних традиций и вечных ценностей с достижениями современной науки. Сегодня на основе педагогического сотрудничества нам необходимо совершенное знание обычаев, традиций, национальных, общечеловеческих, воспитательных ценностей, нашего национального духовного наследия в развитии культуры национального общения. Для этого важно, чтобы педагог правильно организовывал свое общение с учащимися и постоянно учился говорить и общаться. Потому что это позволяет педагогу эффективно провести урок. Соответственно, в статье научно анализируется важность внедрения в учебный процесс факторов развития национальной культуры общения на основе эффективного использования таких методов, как беседа, лекция, рассказывание историй.

SUMMARY. This article highlights the benefits of teaching higher education students our ancient traditions and eternal values in combination with the achievements of modern science. Today, in the development of a culture of national dialogue on the basis of pedagogical cooperation, it is necessary to have a thorough knowledge of customs, traditions, national, universal, educational values, our national spiritual heritage. To do this, it is important that the teacher properly organizes communication with students and constantly learns to talk, to communicate. Because it allows the teacher to conduct the lesson effectively. Accordingly, the article scientifically analyzes the importance of the introduction of factors in the development of a culture of national communication in the educational process based on the effective use of methods such as conversation, lecture, storytelling.

TALABALARNING INTELLEKTUAL-KOGNITIV SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

J.S.Otepbergenov – *pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent*
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so‘zlar: intellekt, salohiyat, kognitiv bilim, intellektual-kognitiv salohiyat, ta`lim tizimini raqamlashtirish, bo‘lajak pedagog-o‘qituvchilar, intellekt nazariyasi.

Ключевые слова: интеллект, потенциал, познавательные знания, интеллектуально-познавательный потенциал, цифровизация образовательной системы, будущие учителья-педагоги, теория интеллекта.

Key words: intelligence, potential, cognitive knowledge, intellectual-cognitive potential, digitization of the educational system, future pedagogues-teachers, theory of intelligence.

Jahonda qabul qilingan “insonning butun hayoti davomida ta`lim olishi” g‘oyasi yurtimizda ta`lim sohasidagi asosiy printsiplaridan biri sifatida belgilanishi [1] o‘z-o‘zidan har bir shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirib borishini talab etadi. CHunki XXI asr inson kapitaliga bo‘lgan ijtimoiy buyurtmani vujudga keltirmoqda. Ayniqsa, yoshlarga samarali ta`lim va tarbiya berishda muhim rol` o‘ynaydigan pedagog-kadrlarning intellektual-kognitiv salohiyatini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

“Intellektual-kognitiv salohiyat” tushunchasini ilmiy-pedagogik fenomen sifatida tahlil etish uning tarkibini tashkil etuvchi “intellekt nazariyasi”, “kognitsiya nazariyasi” va “salohiyat nazariyasi” masalalarini alohida ilmiy-pedagogik jihatdan o‘rganishni talab etadi.

Ilm-fanda intellekt nazariyasi asosan kreativlik va ijodkorlik bilan bog‘liq holda tahlil etilgan. Aytish joizki, intellekt masalasi asosan psixologik jihatdan o‘rganilgan bo‘lib, bu borada CHar`z Spirmenning “Intellektning ikki omilli nazarisi” (umumiy va spetsifik), Xorn Kerrol Kattelning uch darajali modeli, Govard Gardnerning “Intellektning ko‘p darajali nazariyasi”, Robert Sternbergning “Intellektning uchlik nazarisi” (analitik-komponentli, tajriba-ijodiy, amaliy-kontekstual), Djoy Pol Gilfordning “Intellekt strukturasining modeli” nazariyasi (operatsiya, mazmun, natija), Mayk Andersonning “”Intellekt va kognitiv rivojlanish nazariyasi” singari nazariyalar shakllangan. Mazkur nazariyalarning o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, psixolog olimlar tomonidan mazkur fenomenga turlicha yondashuvlar shakllangan. Bu esa o‘z navbatida “intellekt” tushunchasi keng qamrovli tuguncha ekanligidan dalolat beradi. Lekin intellekt bilan shug‘ullangan olimlar tomonidan uning qo‘yidagi jihatlari bo‘yicha yaxlit fikrga kelganligini ko‘rish mumkin. YA`ni, intellekt insonlarga qo‘yidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- mantiqiy va ratsional fikrlash,
- turli xil muammo va masalalarni echish,
- ijtimoiy me`yorlar, urf-odat va an`analarni anglash va tushunish,
- turli xil vaziyatlarni tizimli tahlil etish,
- o‘zining hayotiy tajribalari asosida o‘qish va hayotiy muammolarni hal etish va h.k.

Aynan bu kabi hususiyatlarni bo‘lajak pedagog-o‘qituvchilarda shakllantirish ta`limning sifatini oshirishga xizmat qiladi. CHunki bugungi pedagog-o‘qituvchilarning oldiga qator vazifalar belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining “Ta`lim tug‘risida”gi Qonunida “pedagog-o‘qituvchilar o‘quv mashg‘ulotlarini sifatli o‘tkazishi; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan,

o‘qitish va tarbiyaning ilg‘or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi; ta`lim oluvchilarning psixologik va o‘ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan shaxslarni o‘qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e`tibor qaratishi lozimligi» singari majburiyatlari belgilangan [1]. Bu kabi majburiyatlarni bajarishda, albatta, bo‘lajak o‘qituvchilarning talabalik davridan boshlab intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirib borish maqsadga muvofiqdir.

Kognitivlik masalasi ham psixolog va pedagog olimlar tomonidan shuningdek, tibbiyot sohasida ham ilmiy jihatdan o‘rganilmoqda. Ayniqsa, pedagogik jihatdan uning turli qirralari tahlil etilgan. Masalan, A.S.Kats [6], Vyazovova E.V. [5], D.V.Dudko [5], M.T.Mirsolieva [8], N.A. Muslimov [9], M.D.Pardaeva [12], J.S.Otepbergenov [11] singari olimlar tomonidan kognitivlikning turli qirralari tahlil etilgan. Masalan, A.N.SHamov umumiy o‘rta ta`lim maktablarida o‘zga tillar leksikasini o‘rganishga kognitivlik yondashuvni modellashtirish masalasini ilmiy jihatdan o‘rgangan [15] bo‘lsalar, U.SH.Begimqulov [2], O.G‘.Davlatov [4] singari olimlar esa ta`lim tizimiga kompetentsiyaviy yondashuvni amalga oshirishda pedagoglarning o‘quv-bilish faoliyatini va kognitivlik kompetentligini rivojlantirishning didaktik asoslarini tahlil etishgan. Ilmiy izlanishlarning natijasi ularoq kognitiv pedagogika sifatida pedagogika fanining alohida tarmog‘i sifatida ajralib chiqmoqda. Bunga S.F.Sergeev, M.E.Bershadskiy, O.M.CHorosavay singari olimlarning umumiy tahriri ostida tayyorlangan monografiyasini [13], B.A.Кыдырова [7] ilmiy ishlarini misol qilib olishimiz mumkin.

Olima Z.R.Muxamadieva o‘zining ilmiy izlanishlari jarayonida bo‘lajak mutaxassislarda intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish oliy ta`lim muassasalarining dolzarb vazifalaridan biri ekanligini alohida ta`kidlagan holda uning qo‘yidagi holatlar bilan bog‘liq ekanligini bildiradi. Bular:

- iqtisodiy omillarning rivojlanishga ta`sir etuvchi omillarning asosiysi – bu intellektual maxsulotlar hisoblanadi. Mulk shaklining asosiy kaliti esa intellektual-kognitiv komponentlardir. Aynan intellekt va kognitsiya ilm bilan ishlab chiqarishning rivojlanishini, xalqaro jarayonlarda davlatning o‘rnini belgilab beradi,

- intellektual-ijodiy va kognitiv maxsulotdorlik jamiyatning regressiv chizgilariga, uning destruktiv tendentsiyalariga qarshi turadigan mexanizm hisoblanadi,

- atrof-muhitda sodir bo‘layotgan hodisa va voqealarga inson o‘zining intellektini qo‘llash orqali tahlil qila olsa va baholasa uni boshqalarning manipulyatsiya qilishining oldini olish imkoniyati kengayadi [10].

Demak, talabalarning intellektual-kogntiv salohiyatini rivojlantirish bugungi davr talab etayotgan raqamlashtirilgan sharoitga mos kadrlarni tayyorlashga asos bo‘lib xizmat qiladi. CHunki raqamlashtirish nafaqat bugungi kun chaqirig‘i, balki ta`lim sohasidagi eng yirik muammolarni hal etishning samarali ta`sirini ko‘rsatadigan, insanlarning shaxsiy va kasbiy hayotida muhim o‘rinni egallaydigan transformatsion jarayon hisoblanadi. Lekin shunga qaramasdan raqamli texnologiyalarni ta`lim jarayoniga olib kirish, ulardan samarali foydalanish bo‘yicha jahon miqyosida qator muammolarning yuzaga kelayotganligi aniqlangan. SHulardan biri – bu oliy ta`lim tiziga raqamli texnologiyalarni joriy etishga xalaqit qilayotgan bar`erlar hisoblanadi. Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu kabi bar`erlar ikkita yo‘nalishda ko‘zga tashlanayotganligi e`tirof etilgan [14]. Bular:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishdgi bar`erlar (raqamli transformatsiya bo‘yicha strategik rejalarning yo‘qligi, raqamli texnologiyalarni joriy etishga resurslarning etishmasligi, OTMlarda IT-infrastrukturaning etarlicha rivojlanmaganligi va h.k.)

2. Pedagogik-psixologik yo‘nalishdgi bar`erlar (raqamli texnologiyalarni qo‘llashga doir ko‘nikma va malakalarning etishmasligi, yangi texnologiya va innovatsiyalarni ta`lim jarayoniga olib kirishga doir qiziqmshning so‘stligi, pedagoglar va talabalar o‘rtasida raqamli texnologiyalarni ta`lim jarayoniga olib kirishning qiyinligi haqidagi tushunchalarning shakllanganligi, ular uchun yaratilib dasturga aylanib qolgan konfort zonadan chiqib ketishga bo‘lgan xoxishning yo‘qligi va h.k.).

Ko‘rsatib o‘tilgan bar`erlarning ikkita turi ham bugungi kun talabalaridan informatsion-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalardan ta`lim jarayonida samarali foydalanishga doir ham bilim, ya`ni kognitiv salohiyatni hamda intellektual, ya`ni aqliy salohiyatini talab etadi.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. (23.09.2020) // Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020., 03/20/637/1313 – сон.
2. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти: пед.фан. док. ... дисс. – Тошкент: 2007, 305-б.
3. Вязовова Е.В. Формирование когнитивной компетентности у учащихся на основе альтернативного выбора учебных действий (на примере обучения математике). – Нижний Тагил: 2009, -С.140.
4. Давлатов О.Ғ. Талабаларда ахборот хавфсизлигини таъминлаш компетентлигини тарихий-маданий мерос воситасида ривожлантириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ...дисс. – Тошкент: 2018, 177-б.
5. Дудко Д.В. Когнитивная компетентность личности будущего педагога и динамика ее формирования //Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцена. Вып.63. 2008, № 2. – С. 63-67.
6. Кац А.С. Когнитивные стили совеременных педагогов: от дифиниции к реализации. //Вестник Чувашского государственного педагогичекого университети им. И.Я.Яковлева. 2020 №3 (108). –С. 176-182. https://cyberleninka.ru/article/n/kognitivnye-stili-sovremennyh-pedagogov-ot-definitsii-k-realizatsii
7. Кыдырова Б.А. Когнитивная педагогика: основные проблемы и и возможности. https://cyberleninka.ru/article/n/kognitivnaya-pedagogika-osnovnye-problemy-i-vozmozhnosti
8. Мирсолиева М.Т. Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг касбий компетентлилигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш: педагогика фанлари бўйича фан доктори (DSc). ...дисс. – Тошкент: 2019, 225-б.
9. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед.фан.докт. ... дисс. -Тошкент: 2007, 357-б.
10. Мухамадиева З.Р. Теоретические основы развития интеллектуально-когнитивного потенциала студентов в условиях кредитной системы обучения в вузах Республики Таджикистан. Автореф. дисс. к.п.н. –Душанбе: 2013. https://www.dissercat.com.
11. Отепбергенов Ж.С. Ахборот таълим муҳити шароитида талабаларда когнитив компетентликни ривожлантириш технологияси. Пед.фан.фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Нукус: 2020, 130-б.
12. Пардаева М.Д. Умумий ўрта таълим мактабларида компетенциявий ёндашувни жорий этишнинг методик тизимини бошқариш (информатика ва ахборот технологиялари фани мисолида): педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ...дис. автореф. – Тошкент: 2020, 49-б.

13. Сергеев С.Ф., Бершадский М.Е., Чоросавай О.М. Когнитивная педагогика: технологии электронного обучения в профессиональном развитии педагога: монография. СВФУ им. М.К.Аммосова, Инст-т непрерывного проф. образования. – Якутск, 2016. – 337с. https://www.s-vfu.ru/universitet/rukovodstvo-i-struktura/instituty/ipkp].
14. Тернер Е.Ю. Цифровизация высшего образования: барьеры цифровой трансформации в высших учебных заведениях и онлайн-обучение (Ocl). Вестник Чувашского государственного педагогического института им. И.Я.Яковлева. 2022. №4 (117). –С.170-176.
15. Шамов А.Н. Когнитивный подход к обучению лексике: моделирование и реализация (базовый курс немецкого языка.- Автореф дисс. докт.пед.н., - Тамбов: 2005. -С.49. https://nauka-pedagogika.com

REZYUME. Maqolada ta`limni sifat bosqichiga ko‘tarish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylanayotgan bugungi kunda ta`lim tizimga raqamli texnologiyalarni olib kirish muhim ahamiyat kasb etishi ta`kidlangan holda ushbu jarayonlarga bo‘lajak pedagog-o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash masalasi tahlil etilgan. Bunday ayniqsa ularning kognitiv, ya`ni ularning o‘z sohasini yaxshi bilishi hamda intellektual, ya`ni aqliy salohiyatga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy tahlil etilgan. SHu bilan bir qatorda maqola intellekt nazariyasi tahlil etilgan holda bugungi kunda talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini oshirish ilmiy-pedagogik muammo ekanligi ilmiy asoslangan.

РЕЗЮМЕ. В статье анализируется вопрос с акцентом на важную значимость внедрения цифровых технологий в систему нынешнего образования, который становится одним из приоритетных задач государственной политики по продвижению образования на качественный уровень, подчеркивающий профессиональную подготовку будущих педагогов-учителей к этим процессам. Научно проанализировано, что такое важное значение имеют их когнитивные, то есть их высокое знание своей сферы, а также их интеллектуальные, то есть умственные потенциалы. Вместе с этим, анализируя теорию интеллекта, в статье научно обоснована научно-педагогическая проблема повышения интеллектуально-когнитивного потенциала студентов в нынешнее время.

SUMMARY. The article analyzes the issue of professional training of future teachers for these processes, emphasizing the importance of introducing digital technologies into the education system today, when raising education to a quality level is becoming one of the priority tasks of state policy. It is scientifically analyzed that it is especially important for them to be cognitive, that is, to know their field well, and to have intellectual, that is, mental potential. Moreover, the article analyzes the theory of intelligence and scientifically substantiates that increasing the intellectual and cognitive potential of students today is a scientific and pedagogical problem.

PEDAGOG-TARBIYACHINING KASBIY MAHORATINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

D.Reymbergenova – *magistrant*
N.Sultanova – *magistrant*
Q.D.Tleumbetova – *docent*
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so’zlar: mahorat, pedagogika, kasbiy tayyorgarlik, metodlar, vazifa, tarbiyachi, talaba, sifat, pedagog.
Ключевые слова: мастерство, педагогика, профессиональная подготовка, методы, задача, воспитатель, ученик, качество, педагог.
Key words: skill, pedagogy, professional training, methods, task, educator, student, quality, pedagogue.

Bugungi kunda poedagog-tarbiyachilarning kasbiy salohiyatni oshirishga katta e’tibor berilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarining professor-pedagoglari tarkibi tomonidan ishlab chiqilayotgan va foydalanilayotgan o‘qitish texnologiyalari bo‘lajak mutaxassis tarbiyachilarning kasbiy salohiyatining qaror topishi va tarbiyalash, ta’lim tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, kasbni egallashning kasbiy-ahamiyatli bazasini yaratishga, kasbiy faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish uchun nazariy, amaliy va motivatsiyali tayyorgarlikning va qodirlikning sekin-asta shakllanishida ahamiyatli hisoblanadi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda va pedagog olimlarning ilmiy izlanishlarida “mahorat”, “kompetentsiya” degan tushuncha keyingi paytlarda bir xil ko‘lamda keng qo‘llanilib kelinmoqda. “Kasbiy salohiyat” – tushunchasi esa, shaxsning doimo o‘sib boruvchi tasnifi bo‘lib, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni echish qobiliyati, o‘z bilimi, o‘quv va hayotiy tajribalari, qadriyatlari va qiziqishlarini unga safarbar etish imkoniyatlari hisoblanadi.

«Kasbiy salohiyat» atamasi ta’lim sohasiga pedagoglar va psixologlarning izlanishlari natijasida kiritilgan edi. Pedagogik mahorat, noan’anaviy vaziyatlarda yoki kutilmagan hollarda o‘zini qanday tutish, muloqotga kirishish, raqobatdoshlari bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l topish, mavhum vazifalarni bajarishda, ziddiyatli ma’lumotlardan foydalanishda, hamisha rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda qanday harakat qilishi kerakligi to‘g‘risida nazariy bilimlar zarurligini isbotlab beradi.

Kasbiy salohiyat o‘z bilimlarini doimiy boyitib borishni, yangi va kerakli axborotlarni o‘rganishni, bugungi kun va davr talablarini his va idrok etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o‘z amaliy faoliyatida qo‘llashni talab qiladi. Kasbiy salohiyat egasi bo‘lgan tarbiyachi muammolarni hal etishda o‘zi o‘zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo‘lgan metodlarni tanlab olib qo‘llashi, to‘g‘ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko‘z bilan qarashi kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi aniqlanagan.

Agarda pedagogning kasbiy mahorat dasturiga amaliy qaralsa, u holda birinchi o’ringa uning integral sifati – tarbiyachining mahoratidan iborat bo’ladi. Pedagogik mahoratga berilgan ta'riflar shuncha ko’p bo’lishiga qaramay, ularda mahoratning qaysidir tomonlari albatta ifodalanadi.

Mahorat - bu yuqori va doimo yuksalib boruvchi tarbiya va o’qitish san'atidan iborat. Pedagog – o’z ishining ustasi, o’z fanini chuqur biluvchi, fan va san'atning mos sohalari bilan yaxshi tanish, amalda umumiy va yoshlar psixologiyasini yaxshi tushunuvchi, o’qitish va tarbiyalash metodikasini har tomonlama biluvchi hamda yuqori madaniyatga ega bo’lgan mutaxassis. Pedagogik nazariyada tarbiyachi mahoratini ikki xil tushunish mavjud. Birinchisi, pedagogik mehnatni tushunish bilan bogliq bo’lsa, ikkinchisi tarbiyada pedagog shaxsi asosiy o’rin tutadi.

Umuman olganda, zamonaviy o‘qitish uslublari va tadqiqotchilarning ilmiy-pedagogik xulosalari shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda ta’lim “pedagogik ta’sir” asosida emas, balki “o‘zaro ta’sir” asosida, bunda pedagogik faoliyat asosida interfaol shaklda tashkil etilishi lozim [4:58].

Pedagog- tarbiyachi vaziyatdan kelib chiqib, o'zini qanday qilib to'g'ri tutish kerakligini bilishi kerak. Bu o'quvchilarga alohida e'tibor berishda, o'quvchilarni darsda faol ishtirok etishga undashda namoyon bo'lishi mumkin, natijada o'quvchi hayajonli musiqa tinglashdan tortib, jarayonning kognitiv qismidan zavqlanadi. Bolalarni diqqat bilan kuzatib borish orqali ularning idrok etish darajasini, asarni ijro etish sifatini, o'ziga xos ish uslubini va shunga

mos ravishda musiqa faoliyatining muayyan turi natijasini aniqlash mumkin. Mimikadan foydalanish ham ijobiy natija berishi mumkin. Demak, masalan, bola o`qituvchining nigohining mos ifodalariga ko`ra (boshni orqaga, oldinga yoki yonga egib) ishni bajarish jarayonida o`ziga yuklangan vazifani tushunib, bajara oladi. Mimikaning ushbu elementlari bolalar bilan oldindan muhokama qilinishi va shunga mos ravishda unga tushunarli bo'lishi muhimdir. [6:58].

Mahoratni egallash uchun ko'p narsani bilish va foydalanishni bilish zarur. Tarbiya printsiplari va qonunlarini hamda uning tashkil etuvchilarini bilishi zarur. O'quv-tarbiyaviy jarayon va uning tashkil etuvchilarni samarador texnologiyalardan foydalanish uchun har bir konkret holat uchun ularni to'g'ri tanlab olishni, diagnostikalashni, oldindan bilishni va berilgan daraja va sifat jarayonini loyihalashni juda yaxshi bilishi zarur.

Pedogogik mahorat – shaxsning pedagogik sifatlari majmui va tarbiyachi tomonidan kasbiy pedagogik faoliyatni mustaqil ravishda samarali tashkil etishni ta'minlash bo'lib, u pedagogning faoliyat mohirligini eng yuqori choq-isiga erishganligini bildiradi [3:12]. Tarbiyachilik kasbi o'z mohiyatiga ko'ra o'ta individualdir. Har bir tarbiyachining muhim hayotiy o'rni, uning o'z ishining ustasi bo'lishdir. Pedagog-tarbiyachi mahorati uning faoliyatida ko'rinadi. Pedagog-tarbiyachi avvalo pedagogik jarayonning qonuniyatlari va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim. Shu ma'noda pedagogning umumlashgan malakalari va uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga molik bo'ladi. Biroq mahorat — bu alohida qudrat. Yuqori va kichik darajada usta bo'lishi mumkin emas. Mahoratga erishish ham, erishmaslik ham mumkin. Haqiqiy usta mehnat faoliyati choġidagina go'zaldir.

Pedagogik mahorat yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqarolik va kasbiy mavqeini ifodalaydi [1:16]. «Pedagogik mahorat» bir kategoriya sifatida o'zining ilmiy asoslariga ega. Turli tadqiqotchilar ishlarida ayni bir hodisani tavsiflash uchun turlicha tushunchalardan foydalanish boshqacha ma'no va mazmun tomonlariga ega [2:78]. Turli muallif asarlarida pedagogik mahoratning yagona, tan olingan ta'rifining yo'qligi uni tadqiqotning jonli jarayoni deb xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Tushunchalar, fikrlaming turli-tumanligi bu hodisaning murakkabligi va ko'p qirraliligidan dalolat beradi. Barcha ta'riflarda urg'u shaxsga beriladi va shu tariqa ular pedagogik mahoratning sotsial mohiyatini aks ettiradi.

Ta'lim islohoti yangicha fikrlovchi, asrimizning shiddatli axborot oqimida to‘g‘ri yo‘l topa oladigan, axborotlardan unumli, yosh avlod ta'lim-tarbiyasi, kasb-hunar o‘rganishida foydalana oladigan, izlanuvchan, ijodkor pedagogni shakllantirish vazifasini ko‘ndalang qilib qo‘ydi [11:82]. Bu ishning muhimligi shundaki, pedagogik tajriba ta'lim mazmuniga qanchalik yangilik kiritilmasin, qanchalik mukammal dasturlar, darsliklar va ta'lim standartlari yaratilmasin, ularni o‘quv-tarbiya jarayoniga joriy qilish tarbiyachi shaxsi va pedagogik mahoratiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi.

Modomiki shunday ekan, malaka oshirish jarayonida nimalarga asosiy e'tiborni qaratish yoki uning maqsadi nimalarda o‘z ifodasini topadi? Fikrimizcha bunda:

- har bir pedagogning shaxsiy sifatlari va kasbiy mahoratini oshirish bilan birga o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ham eng so‘nggi yangiliklar bilan tanishtirib borish;

- kasbiy - pedagogik faoliyatning yuqori darajada bo‘lishi uchun yangiliklarni amaliyotga qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- pedagoglarda yangiliklarga tashnalik va doimo mustaqil o‘qish hissini tarbiyalash;

Shunday qilib, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi

ularning ijodiy imkoniyatlarini, shaxsiy sifatlarini va kasbiy bilim, ko‘nikma va takomillashtirib, o‘quvchilar ta'lim- tarbiyasining sifatini ko‘tarishga erishishdir.

Pedagog tarbiyachi bolalar bilan ishlashga tayyorgarlik ko'rayotganda o'z qobiliyatini baholashi, o'rganilayotgan musiqiy asarning ayrim tomonlarini hisobga olishi va shundan keyingina ishni tashkil qilishi kerak. Imkoniyatlarni ob'ektiv baholash tarbiyachining kasbiy tayyorgarlik darajasini, jismoniy holatini, pedagogik qobiliyatini belgilaydi [9:108]. Shaxsiy va kasbiy fazilatlarning uyg'unligi uning imkoniyatlari chegarasi va doirasini aks ettiradi. Vaqti-vaqti bilan u yoki bu darsni videoga yozib olish va ushbu darsning materialini, uni amalga oshirish sifatini boshidan oxirigacha tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Agar pedagog-tarbiyachi bolaga ta'lim va tarbiya jarayonida yordam berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsa, bolaning mehnati natijasida erishgan badiiy vazifalari uni pedagog talabiga yaqinlashtiradi. Pedagog-tarbiyachilar bilan muloqot qilishda munosabatlarni o‘rnatish usullaridan biri bo‘lgan tashkiliy uslub muhim ahamiyatga ega [7:218]. Darsda talabalarni boshqarishning demokratik uslubi aniq badiiy va musiqiy vazifalarni muhokama qilish, tashabbuslarni rag'batlantirish va tarbiyachi va talabalar o'rtasida faol musiqiy ma'lumot almashishda namoyon bo'ladi. Har bir tarbiyachining pedagogik taktikasi individualdir, o'zini turli yo'llar bilan namoyon qiladi, ko'pincha o'quvchining darajasiga, uning ehtiyojlariga bog'liq. Lekin tarbiyachining talablari tarbiyachi ularga ishonch bildirsa, o‘quvchilarga hurmat bilan munosabatda bo‘lsagina talabalar tomonidan qabul qilinadi. Shu bilan birga, har doim ham talabaning shaxsiyatiga ishonchli va ongli ravishda ijobiy munosabatni ko'rsatish tavsiya etilmaydi [3:65]. Pedagog-tarbiyachi bolalar bilan ijobiy munosabatda bo'lish vaziyatini yaratishi, ular bilan faqat muayyan ziddiyatlarni hal qilish uchun emas, balki ularni halol, adolatli hal qilish, yuzaga kelgan bahsli vaziyatni to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish, aniqrog'i, ikkinchisini hal qilish kerak.

Uzluksiz ta'limning har bir bo‘g‘inida tabaqalashtirish hoxish bilan emas, balki ehtiyoj asosida tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq. Eng avvalo uni metodologik, umumpedagogik, psixologik va didaktik jihatlarini va bularni o‘quv jarayoniga tadbiq qiluvchi pedagoglarni tayyorlash bilan bog‘liq. Uning ilmiy asoslarini ishlab chiqib, pedagoglar unga tayyorlanmasa, yana boshimiz o‘rtamiyona yondoshishdan chiqmaydi [9:47]. Malaka oshirish tizimida faoliyat ko‘rsatuvchi tarbiyachilar ta'kidlaydilarki, har doim guruhlarda tinglovchilarning tayyorgarligini uch xil: kuchli, o‘rtacha va pastni mahoratlilarni uchratish mumkin. Pedagog0tarbiyachi tenglashtirish prinsipi asosida o‘quv materiali mazmunini kuchli tinglovchiga tayanib tanlasa, kuchsiz tinglovchining mazkur va boshqa fanlarga bo‘lgan qiziqishi pasayadi. Agar tarbiyachi past tayorgarligi bo‘lgan tinglovchiga tayansa, bunda yuqori va o‘rtacha tayyorgarligi bo‘lgan bolalarning malaka oshirishdagi o‘qishga qiziqishi yo‘qoladi. Shuning uchun o‘rtacha yondoshish prinsipidan voz kechib, taxsil oluvchilarning real indivudial xususiyatlarini hisobga olish shu kunning taqozosi hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Амонов М.Н. Особенности формирование организаторских качеств у учащихся педагогических колледжей //Научное пространство: актуальные вопросы, достижения и инновации. 2020.

2. Gulboyev A.T. Ea'limda pedagogik qadriyatlar //Scientific progress. 2021. T. 2. №. 7.

3. Гулбоев А.Т. Аспекты и особенности целостного педагогического процесса. //Вопросы науки и образования. 2021. №. 10 (135).
4. Гулбоев А. Т. Педагогик ташхис воситасида ўқитувчилар малакасини узлуксиз ошириш.. Педагогика. фан. ном. 2010.
5. Гулбоев А. Т. Формирование профессиональных компетенций экономистов. //Вестник науки и образования. 2020. №. 5-2 (83).
6. Жураев Б. Т. Гуманизация дидактических отношений между учителем и учащимся в педагогических идеях Востока //VIII Лазаревские чтения" Лики традиционной культуры в современном культурном пространстве: ренессанс базовых ценностей?". 2018.
7. Жураев Б.Т. Деятельность педагога по гуманизации учебновоспитательного процесса //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. 2017. Т. 31.
8. Жураев Б.Т. Некоторые вопросы наставничества в педагогическом наследии Хусаина Воиза Кошифи //Социально-культурная деятельность: векторы исследовательских и практических перспектив. 2016.
9. Ходжаев Б.К., Жураев Б.Т. Повышение нравственно-эстетической культуры слушателей института повышения квалификации работников народного образования //Экономика.
10. Ходжаев Б. К., Ходжаев Б. Б. Подготовка студентов педагогического факультета к формированию эстетической культуры у школьников //Формирование патриотизма у молодежи средствами социально-культурной деятельности: векторы исследовательских и практических перспектив. 2016.
11. Ortiqov O.R. O'qituvchi faoliyatida pedagogik deontalogiya va kompentlikning roli va ahamiyati //Scientific progress. 2021. Т. 2. №. 5.

REZYUME. Biz bu maqolada ta'lim sohasida asosan maktabgacha ta'lim yo'nalishida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning kasbiy mahoratini shakillantirish asoslari, ularning vazifalari va kasbiy mahoratni oshirish texnologiyalari haqida bayon qilamiz.

РЕЗЮМЕ. В данной статье мы описываем основы формирования профессионального мастерства педагогов, преимущественно работающих в сфере дошкольного образования, их задачи и технологии повышения квалификации.

SUMMARY. In this article, we describe the basics of professional skill formation of pedagogues, who are mainly working in the field of preschool education, their tasks and technologies of professional skill improvement.

ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМ МАЗМУНИ ОРҚАЛИ ЛИНГВИСТИК КОМПЕТЕНЦИЯ ШАКЛЛАНТИРИШ

С.С.Тажбенова – *педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент*
Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти

Таянч сўзлар: лингвистик компетенция, ёндашув, билим, муаммо, ғоя, назарий билим, субъект.

Ключевые слова: лингвистическая компетенция, подход, знание, проблема, идея, теоретическое знание, субъект.

Key words: linguistic competence, approach, knowledge, problem, idea, theoretical knowledge, subject.

Бугунги кунга қадар бошланғич синфларда ўқувчиларнинг кейинги босқичларда касбий, маънавий-аҳлоқий тарбиясига мустаҳкам пойдевор яратувчи таълимни барқарор тараққий эттириш асносида она тилин ўқитишга катта этибор берилиб, дарсларда ўқувчиларни таълим суъбектига айлантириш уларнинг тил ходисаларини тадқиқ этишларини уюштириш, шу йўл билан мустақил хулоса чиқаришларига эришиш, олган билимларини нутқий амалиётда татбиқ этиш куникмаларини шакллантириш юзасидан изланишлар олиб борилмокда. Шунга кўра ҳам бошланғич таълим босқичида ўқувчиларга назарий билимларни амалда қўллашни ўргатиш долзарб аҳамият касб этади.

Лингвистик компетенция тилнинг қонун-қоидаларига амал қилган ҳолда тил бирликларини онгли ва тўғри қўллай олиш малакаси билан тавсифланади. Шундай компетенцияси шаклланган киши ўзининг адабий тилда саводли фикр баён қилиши билан ажралиб туради. Бу даражага инсон таълим босқичларида ўқиб-ўрганиш орқали эришади. Албатта, бу борада мактабдаги она тили таълимининг тўғри танланган мазмуни, тўғри амалга оширилган таълимий тадбирларнинг хизмати беқиёс.

Бошланғич синфлар она тили таълими мазмуни орқали лингвистик компетенцияни шакллантириш учун пойдевор қўйилади. Бу даврда она тилининг қонун-қоидаларини қай даражада эгаллаш мумкин, деган савол туғилиши табиий. Шубҳасиз, саволга ўқув фани давлат таълим стандартлари ва ўқув дастурларида белгиланиб, амалиёт натижалари асосида тобора стабиллашиб бораётган таълим мазмуни билан жавоб бериш жоиз. Бу борада она тили ўқитувчиларининг таълим мазмуни юзасидан тўплаган илғор иш тажрибаларини оммалаштириш ҳам муҳим роль ўйнайди

Бошланғич синфлар она тили дарсларида икки хил компетенция (нутқий компетенция ва лингвистик компетенция) устида иш олиб борилади. «Умумий ўрта таълимнинг Давлат таълим стандарти» да белгиланган нутқий компетенция хориж методист олимлари тавсифлаган лингвистик компетенцияга, лингвистик компетенция тавсифи эса тил компетенциясига ўхшаш мазмунда белгиланади. Бунга «Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасаларида Она тили фанини ўкитишнинг асосий вазифаси» ҳам ишора қилади:

ўқувчи шахсини фикрлашга, ўзгалар фикрини англашга, ўз фикрини оғзаки хамда ёзма шаклда саводли баён қила олишга қаратилган нутқий компетенцияни ривожлантириш;

ўкувчиларда грамматикага оид ўзлаштириладиган билимларни (фонстика, лекснкология, сўзнинг таркиби, сўз ясалиши, морфология, синтаксис, ёзув ва имло, тиниш белгилари, нутқ услублари, стилистикага оид тушунчаларни) ривожлантнриш;

она тилининг кенг имконнятларидан унумлн фойдалапган холда тўғри ва равон баён эта олишни ривожлантиришга қаратилган лингвистик компетенцияларни шакллантришдан иборат [1].

Бошланғич синф она тили таълими мазмуни ва методларига компетенциявий ёндашув таълим самарадорлигини янги сифат даражаси мезонлари асосида баҳолашда ўз ифодасини топади. Ушбу даража нутқий ва лингвистик компетенцияларнинг шаклланиши билан тавсифланади

Грамматик билимларни талаб қиладиган ҳолатларда аввал лингвистик компетенция, кейин тил ҳодисалари бўйича тегишли билимларнинг ҳосил бўлишига қараб нутқий компетенция устидаги иш олиб бориш мақсадга мувофиқдир. Грамматик билимларни талаб

қилмайдиган ҳолатларда эса нутқ ўстириш ишлари мухтор йўналиш сифатида амалга оширилаверади.

Бошланғич синфларда лингвистик компетенциянинг қай тарзда шаклланиши, шаклланиш жараёни қандай кечиши хусусида ҳали ҳам аниқ бир ечимга келингани йўқ. Одатда, муаллифлар ўқувчиларнинг таълим мазмунини ўзлаштиришларига доир умумий талаблар ҳақида гапирадилар, мавзуларни ўрганиш жараёнини компетенцияларни ҳосил қилиш сари йўналтириш борасида таклиф ва тавсиялар баён қиладилар.

Р.А.Йўлдошев, Л.Р.Миржалоловалар лингвистик компетенциянинг шаклланиш жараёнини қуйидагича тушунтирадилар: «Одатда, она тилидан ҳар гал янги мавзуни ўрганиш жараёнига компетенциявий ёндашув жорий этилса, билим → кўникма → малака чизиғида олиб бориладиган таълимнинг пировард натижаларига (малака талабларига) тўлиқ эришиш шарт, яъни ушбу чизиқнинг охирги нуқтаси – малака шаклланган босқич таъминланиши шарт: малака ҳосил бўлса, компетенция қўлга киритилди деб саналиши мумкин. Аён бўладики, кўникма ҳосил бўлгандан кейиноқ компетенция шаклланмайди, чунки компетенция билимни ўзлаштириш, амалда қўллаш кўникма ва малакаларидан юқори турувчи ҳолат: лаёқат ёки қобилият, таълимнинг пировард натижаси, маҳсулидир» [2]. Муаллифларнинг изоҳлашича, «...билим, масалан, қаратқич келишиги, унинг сўроқлари, -нинг қўшимчаси ёрдамида ҳосил қилиниши ҳақидаги маълумот тегишли савол-жавоблар ёрдамида хотирада олиб қолинади, ниҳоят, қаратқич келишиги айтилганда, сўроқлари ва қўшимчаси автоматик ёдга келадиган бўлади: лингвистик компетенция шаклланади» [2].

Лингвистик компетенция даражаси тил бирлигини тўғри қўллай олиш билан тавсифланар экан, унинг баркамоллигига коммуникатив компетенция орқали эришилади: фикр баён қилаётганда кимгадир ниманидир хабар бериш, бунда овозни мулоқот вазиятига мослаш, таъсирчанликни таъминлаш ва кўпгина муомала-аралашувга хос оҳанг жилоларига эътибор беради. Маълум бўладики, коммуникатив компетенция лингвистик компетенциянинг тўлақонли шаклланишини таъминлайди. Бошланғич синф она тили дарсларида масаланинг бу жиҳатлари эътибордан четда қолмаслиги керак.

Лингвистик компетенциянинг шаклланишга доир билимлар тил бирликларини эгаллаш мазмунида ишлаб чиқилса, нутқий компетенциялар нуқтаи назаридан улар коммуникативликка йўналтирилган бўлиши лозим. Т.В.Лебедеванинг изоҳлашича, «Коммуникатив компетенция – бу ўзгаларни тушуниш ва мулоқот мақсадлари, соҳалари, вазиятларига монанд шахсий нутқий хулқ-атвор дастурини яратиш лаёқатидир» [3]. Ўқувчи ўзида лингвистик компетенцияни шакллантирар экан, эгаллаган билимларидан бошқалар уни тушуна оладиган қилиб тўғри, оҳангига эътибор бериб гапиришда фойдаланишдан ташқари, тенгдошларининг нутқидаги ютуқ ва камчиликларга эътиборли бўлиб, баъзан ўз тушунчалари билан ўртоқлашишлари ҳам керак бўлади.

Бошланғич синфлар она тили дарслари нутқий фаолият турлари тақозо этадиган реал ҳолатлар: талаффуз, имло ва бошқа хил хатоларни бартараф этиш учун хизмат қиладиган билимларнинг ҳаммасини қамраб олишнинг иложи йўқ, албатта. Масалан, морфологик шакллар кўп, улар содда ёки мураккаблашган қўлланиш ҳолатида бўладики, таълим мазмунига уларнинг барчасини киритиш ҳақида гап ҳам бўлиши мумкин эмас. Лекин бундай билимлар ўрганилмайдиган дарсларнинг кўп бўлиши ҳам ножоиз: таълим мазмуни оптимал берилмоғи даркор. Бошланғич синф она тили дарслари кейинги босқич таълим мазмуни учун муносиб пойдевор бўла олиши, она тилининг бойлигига йўл очиб бериши керак. Бу бойлик қирраларидан бир йўналиши сўз маънолари, морфологик шакллар маънолари, синтактик қурилмалар маънодошлиги каби тил ҳодисалари орқали намоён бўлади.

Хуллас, лингвистик компетенция нутқий фаолият турларининг (нутқни тинглаб тушуниш, гапириш, ўқиш, ёзиш) бўйича уч хил таълим мазмуни унсурларидан ташкил топади: тилнинг қонун-қоидалари, тил бирлигини тўғри қўллай олиш, фикрни коммуникативликка асосланган ҳолда баён қилиш қоидалари. Шундагина лингвистик компетенциянинг шаклланишида баркамоллик таъминланиши мумкин.

Адабиётлар

1. Умумий ўрта таълимнинг Давлат таълим стандарти: // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. 2017. 141-141-б.

2. Yo‘ldoshev R.A., Mirjalolova L.R. Ona tili ta’limida kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent: Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi», 2019, 7-8-b.

3. Лебедева Т.Л. Формирование языковой компетенции на уроках русского языка: Материалы Августовская конференция 2016 г. Балтийск: МБОУ СОШ № 5.

РЕЗЮМЕ. Мазкур мақолада бошланғич синф она тили таълими мазмуни ва методларига лингвистик компетенцияни шаклантириш йўллари ҳақида баён этилган.

РЕЗЮМЕ. В данной статье описаны способы формирования лингвистической компетенции к содержанию и методам обучения родному языку в начальной школе.

SUMMARY. This article describes the ways of forming linguistic competence to the content and methods of teaching the native language in elementary school.

EFFECTIVE APPROACHES OF TEACHING WRITING

F.M.Tlektesov – *trainee teacher*
D.M.Yusupova – *MA student*
Nukus state pedagogical institute named after Ajiniyaz

Tayanch so‘zlar: boshqariladigan yondashuv, jarayonli yondashuv va janr yondashuvi, yozish malakasi, parafrazalash.

Ключевые слова: контролируемый подход, процессный подход, жанровый подход, письменная компетентность, перефразирование.

Key words: controlled approach, process approach, and genre approach, writing competence, paraphrasing.

It is generally accepted that teaching writing is considered challenging by many language teachers. In point of the fact that writing competence encompasses methods for structuring and developing arguments at the micro and macro levels in addition to word choices, sentence variations, punctuation choices, and other linguistic tools for cohesion and coherence. Adopting a writing pedagogy that explicitly teaches students how to think in ways that are good for writing is crucial. From the middle of the 1940s until the middle of the 1960s, controlled composition was widely used in writing classes. Based on the behaviorist view that repetition and imitation will lead to

habit formation (e.g., writing grammatically correct sen-sentences), this method of teaching aims to improve students' written works' accuracy. An illustration of controlled creation is for instructors to give test sentences of a picked construction, and afterward understudies are entrusted to compose a couple of sentences following that example. Beginning in the middle of the 1960s, English language teachers came to the realization that students needed to concentrate not only on the grammatical accuracy of their sentences but also on the purposes of writing. As a result, educators adopted a rhetorical function approach, shifting the emphasis of instruction away from accuracy at the sentence level and toward the discourse level, where writing goals like description, comparison, and contrast were emphasized. The process approach to writing has gained popularity since the 1970s.

Teachers now encourage students to pay attention to macro-level communicative purposes rather than the writing's form or correctness. According to Silva (1990), the process approach aims to let students' ideas determine the form of a piece of writing. As Crossley, Roscoe, and McNamara (2014) propose that "Effective composing cannot be characterized just through a solitary arrangement of predefined highlights. Instead, there are multiple profiles of successful writing" (p. 184). More specifically, some successful writers write longer essays (Crossley, Weston, McLain Sullivan, & McNamara, 2011) with fewer grammatical, spelling, and punctuation errors and less vocabulary (McNamara, Crossley, & Roscoe, 2013). Essays written by other successful authors feature sentences that are more syntactically complex (Crossley, et al., 2011) and with improved control over the coherence of the text (Crossley, et al., 2014).

Teachers must therefore be explicitly aware of the necessary skills and procedures to teach writing effectively. This point of view views writing as a skill that can be learned through hard work and discipline rather than as a natural talent. Indeed, "learning to write is something like learning a second language even in one's native language. No one is a "native speaker" of writing." Generally, everybody figures out how to compose at school" (Leki, 1992, p. 10). To put it another way, Canagarajah (2006) says that we need to inform students that very few authors are born with the ability to write in English as their native tongue. In order for students to write effectively, they must explicitly acquire the necessary skills and employ well-thought-out strategies.

The essential role of competence in writing:

Competence in writing is the ability to produce a well-written piece of work that serves a particular purpose. For instance, in order to fulfill the requirements of a specialized context (such as classroom practice, take-home assignment, or in-class examination); students adopt a narrative style as well as rhetorical techniques when writing an entertaining and engaging story. Students can effectively implement the following fundamental academic discourse skills once they are aware of the significance of the writing's purpose, audience, and context.

Paraphrasing:

Direct quotation and paraphrase means to present the ideas of the original author using different word choices and sometimes word/sentence order changes from the original text. When students want to keep the original form and wording of the quoted texts, they use direct quotation. When paraphrasing, it should be made clear to students that they must use adequate language. At the end of the day, the significance conveyed by the first creator should be caught fundamentally and not misshaped. Students must acknowledge the original source in both the body of the essay and the reference list whenever they paraphrase or directly cite a source. Students should include not only the author's last name and the publication year, but also, if available, the page numbers. They ought to surround the original texts with direct quotation marks. It is necessary to explicitly teach students that they cite or paraphrase for legitimate reasons, such as to place their paper in a specific context, to define key terms to find common ground between the writer and the reader, to support their own position, or sometimes to show that opinions on a particular topic are divided in order to set the stage for further arguments.

Lexical importance:

Because it can make an essay appear sophisticated and intriguing, lexical variety is an essential component of effective writing. According to Ferris (2014), p. 89, the term "lexical variety" refers to "interesting word choice or effective use of vocabulary in writing." Texts with more lexical variety typically achieve higher scores and make a stronger impression on readers. If students want to increase lexical variety in their writing, they can use word processing software's built-in thesaurus and dictionary, consider the context of the sentence, and maintain a consistent level of formality (Ferris, 2014, pp. 100-103). Be that as it may, lexical assortment alone is inadequate for making a decent paper. The importance of other aspects like content, idea development, argumentation quality, correct grammar, and mechanics cannot be overstated.

The role of Passive Voice:

Passive voice Teachers typically discourage students from using the passive voice in writing and encourage them to use the active voice as much as possible. However, there are at least two reasons why the passive voice is sometimes preferred in academic writing. First, writers can focus on a specific object for its importance by using the passive voice, away from actors who only play minor roles. Ferris (2014) provided a good illustration of this point. The experiment, which was carried out simultaneously in labs on four distinct continents, produced outcomes of international significance" (p. 175). In this example, the author emphasizes the significance of the experiment as the foundation for notable outcomes, regardless of the participants. The passive voice is used for two more reasons, one of which is to allow writers to deliberately distance themselves from their statements. They might be able to improve the objectivity of the statements by using the passive voice to minimize their identities, which is also frequently appropriate for scientific writing.

Gathering information:

Methods of thinking: The information-focused approach versus the knowledge transformation approach to writing (Bereiter & Scardamalia, 1987) explains the differences in the thinking processes utilized by novice and experienced writers at various stages of their compositions. New writers often take the information-focused approach because they tend to write down all the facts and information they know about a subject without first setting a specific macro rhetorical goal. A writer's overall objective for their essay is the macro rhetorical goal (Chandrasegaran & Schaetzel, 2004, p. 46). The purpose of a writer's speech is to persuade the reader to support their thesis through a series of speech acts. The reader is persuaded into agreeing that the essay's arguments and explanations back up the thesis. We should inform students that the thesis itself is not the same as the macro rhetorical goal. Only the essay's main topic is mentioned in the thesis. Throughout the various stages of the composition, from planning to organizing to writing and revising their essays, the novice and experienced writers are distinguished by the information-focused approach as opposed to the knowledge transformation approach. New writers frequently ask themselves these questions during the planning stage: what they know about the subject, whether they have enough points to include in the essay, where they can find additional information, and how to make a piece of information relevant to the subject of the essay. In contrast,

experienced writers focus more on the seven rhetorical situ-situations (purpose, audience, and context) when writing their piece. They carefully consider the information and rhetorical strategies that will work best in the given situation. This means that they consider and rank various pieces of information or actions in terms of how they might contribute to the larger rhetorical objective, and they use this strategic thinking to decide whether to include or reject materials. During the organization stage, novice authors typically present information chronologically. Experienced writers, on the other hand, tend to think about how different ways to arrange the information help them achieve their rhetorical goal. They check to see that the structure of the organization meets the rhetorical situation. They anticipate what the reader would like to know about their essays or whether or not they would agree or disagree with particular parts. To put it another way, they actively consider the reader's expectations and reactions during the writing process. When they are writing or revising, novice writers frequently have trouble deciding what to say next (in the following sentence). Before deciding how to proceed, they typically reread the preceding sentence or clause. Typically, they are overly concerned about spelling and grammar errors. As a result, their vocabulary and sentence structures are typically straightforward. They are probably preoccupied with writing's minute details in general. On the other hand, experienced writers refer to the macro rhetorical goal when deciding what to say next. This strategic goal anticipates the reader's expectations and possible agreement or disagreement. They select words that are appropriate for the overall rhetorical circumstance and ensure that the content and organization will assist them in achieving their objective. They frequently rewrite or reorganize texts in larger chunks, such as paragraphs, guided once more by the larger rhetorical objective. It is important to note that writers using the knowledge transformation approach to writing and the information-focused approach to writing have distinct ways of thinking. It is extremely difficult, if not impossible, to observe how "novice writers make the cognitive transition to a knowledge transforming model, nor do they spell
out whether the process is the same for all learners" in practice (Hyland, 2011, p. 19). When writing information reports or entries for an encyclopedia, for example, even experienced writers will sometimes employ the information-focused approach because it is more appropriate. The author's responsibility in this type of writing is to explain and impart their knowledge of the subject matter. e. Building an argument at both the macro and micro levels From the previous section, we learned that making sure to include information relevant to the essay's macro-rhetorical objective can help us build an argument at the essay's broad discourse level.

References

1. Bereiter C., & Scardamalia, M. (1987). The psychology of written communication. Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum.
2. Canagarajah A. S. (2006). Negotiating the local in English as a lingua franca. Annual Review of Applied Linguistics, 26, -P. 197-218.
3. Chandrasegaran A., & Schaetzel, K. (2004). Think your way to effective writing (3rd ed.). Singapore: Pearson/Prentice Hall
4. Crossley S. A., Roscoe, R., & McNamara, D. S. (2014). What is successful writing? An investigation into the multiple ways writers can write successful essays. Written Communication, 31(2), 184-214.
5. Crossley S. A., Weston, J., McLain Sullivan, S. T., & McNamara, D. S. (2011). The development of writing proficiency as a function of grade level: A linguistic analysis. Written Communication, 28(3), 282-311.
6. Ferris D. R. (2014). Language power: Tutorials for writers. Boston, New York: Bedford/St. Martin's.
7. Hyland K. (2011). Learning to write: issues in theory, research, and pedagogy. In R. M. Manchón (Ed.), Learning-to-write and writing-to-learn in an additional language (pp. 17- 35). Amsterdam: John Benjamins.
8. Leki I. (1992). Understanding ESL Writers: A guide for teachers. Portsmouth, New Hampshire: Boynton/Cook Publishers
9. McNamara D. S., Crossley, S. A., & Roscoe, R. (2013). Natural language processing in an intelligent writing strategy tutoring system. Behavior Research Methods, 45(2), 499-515.
10. Silva T. (1990). Second language composition instruction: developments, issues, and directions in ESL. In B. Kroll (Ed.), Second language writing: Research insights for the classroom. Cambridge, UK: Cambridge University Press.

REZYUME. Yozishni o'rgatish jarayonida o'qituvchilar darslarni samarali tashkil etish uchun to'g'ri yondashuvlarni tanlash imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak, shuning uchun yozish uslublarini aniq tushuntirish nuqtai nazaridan yondashuvlarni tanlashning roli juda muhimdir.

РЕЗЮМЕ. В процессе обучения письму преподаватели должны уметь выбирать подходящие подходы, чтобы организовать уроки более продуктивно, поэтому роль выбора подходов имеет решающее значение с точки зрения четкого объяснения стилей письма.

SUMMARY. In the process of teaching writing instructors need to be able to choose appropriate approaches in order to organize lessons more productive, therefore, the role of selecting approaches is crucial in terms of explaining writing styles clearly

TALABALARDA MULOQAT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI

K.Y.Uzakova – *doktorant*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: muloqot, ijobiy ta'sirlar, namunalar asosida o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyat, muomala maromi, mulohaza yuritish uslubi, munosabatga kirishish uquvchanligi.

Ключевые слова: общение, позитивное влияние, само коррекция на основе ролевых моделей, перевоспитание, личная возможность, этикет, стиль рассуждений, реляционная гибкость.

Key words: communication, positive influences, self-correction based on role models, re-education, personal opportunity, etiquette, reasoning style, relational flexibility.

Muloqot muvaffaqiyatining negizi shaxsning ruhiy dunyosi, ehtiyojlari motivatsiyasi, xarakter xislati, individual-tipologik xususiyati, qobiliyati, e'tiqodi kabi fazilatlar, sifatlar namoyon bo'lishi, rivojlanishi hisoblanadi. Muloqot tashqi ijobiy ta'sirlar, namunalar asosida o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ro'yobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi. Barkamol insonlaming muomala maromi, mulohaza yuritish uslubi, munosabatga kirishish uquvchanligi, vaziyatdan chiqish salohiyatiga boshqa odamlar ham taqlid qiladi va hayot tajribasida unga rioya etib yashaydi.

Odamlar o‘rtasidagi shaxslararo munosabat jarayonida g‘ayritabiiy ijtimoiy holat yoki hodisaga ongli tayanish

— o‘zini-o‘zi mukammallashtirish, ro‘yobga chiqarish, boshqarish, baholash, o‘zigao‘zi buyruq berish shaxsning ruhiy dunyosida muhim kamolot bosqichidir. Shuning uchun ichki va tashqi taqlidni tushunish hamda bosqichma-bosqich egallab borish

— bo‘lg‘usi mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi hamda barkamol shaxs sifatida shakllanishining garovidir. Muloqotga kirisha olmaslikning asosiy sababi

— o‘zini-o‘zi ortiqcha yoki past baholash tufayli o‘ziga va uni qurshab turgan odamlarga noto‘g‘ri munosabatdir.

Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo‘lib, asosan, quyidagilarga ahamiyat berish ijobiy samara beradi:

1) hamkorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha a’zolari o‘rtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsional muhitni taqqoslash imkoniyatini yuzaga keltirish;

2) muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir a’zoning qulay mavqeini ta’minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

3) insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari to‘g‘risidagi axborotni egallashiga oid maxsus mashg‘ulotlarni uyushtirish.

4) shaxslararo munosabatlar va muloqot usullariga mo‘ljallangan ishbilarmonlik o‘yinlari, psixodrama, trening tizimini yaratish.

Inson o‘zini idora qilish, turli vaziyatlarda o‘zini tutish fazilatlari o‘zlashtirilayotgan davrda ba’zi bir qoidalarga rioya qilsa, hamkorlik jarayonida ma’lum yutuqlarga erishadi:

1. Ijtimoiy hodisalaming tashqi voqe bo‘lishi ichki ruhiy holat va uning mazmunini aks ettirib ikki tomonlama aloqa tufayli mazkur jarayon yuzaga keladi.

2. Ixtiyoriy, faol diqqatning tashqi obyektlarga yo‘naltirilganligi va to‘planganligi tu rli omillar ta’siri tufayli samaradorlik darajasini pasaytiradi, asabiy holat ishchanlikni kamaytirib, muloqot maromiga putur yetkazadi.

3. Inson o‘zini erkin, ozod, bemalol his etish hislatini o‘zlashtirishi uchun jismoniy keskinlik, asabiy taranglik, aqliy zo‘riqish orqali ko‘zlangan maqsadiga yetishi mumkin [1].

Insonning uni o‘rab turgan olamga o‘zaro ta’siri obyektiv munosabatlar tizimida namoyon bo‘Ladi. Obyektiv munosabat va aloqalar so‘zsiz har qanday real guruhlarda paydo bo‘ladi. Guruh a’zolarining bu obyektiv o‘zaro munosabatlari subyektiv shaxslararo munosabatlarda aks etadi. Har qanday ishlab chiqarish odamlarning o‘zaro birlashishini talab qiladi. Hech bir kishilik jamiyatida odamlar bilan munosabat o‘matilmasa, ular bir-birini to‘gcri tushunmaydi, to‘laqonli birgalikdagi faoliyatni tashkil eta olmaydi. Masalan, o‘qituvchi o ‘quvchilarga biror mavzuni o‘rgatish uchun ular bilan munosabatga kirishish! kerak. Muloqot kishilaming hamkorlikdagi faoliyati, ehtiyojlari asosida tug‘iladigan, ular o‘rtasidagi aloqa rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir. Muloqot hamkorlikdagi faoliyat qatnashchilari o‘rtasida axborot almashinishni o‘z ichiga oladi, bu muloqotning kommunikativ ko‘rinishida ifodalanadi. Odamlar bir-biri bilan munosabatga kirishishda tildan muomala vositasi sifatida foydalanadilar.

Muloqotning ikkinchi jihati muomalaga kirishuvchilarning o‘zaro ta’siridir. Bunda faqat so‘zlar emas, balki harakat va holatlar ham almashinadi.

Masalan, O‘qituvchi bilan talabar o‘rtasida biror so‘z aytmasdan muomalaga kirishish mumkin.

Muloqotning uchinchi tomoni muomalaga kirishuvchilarning bir-birini idrok qilishidir. Muomalaga kirishuvchilarning bir-birini to‘g‘ri tushunishi muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, muloqotning shartli uch tomonini ajratish mumkin:

Kommunikativ (axborot berish),

Interaktiv (o‘zaro ta’sir) va

Perseptiv (o‘zaro idrok qilish).

Muloqotning bu uch tomonining birligi muomalaga kirishuvchi kishilarning o‘zaro munosabati va hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish usuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Muloqotning mazmuni — axborot almashish, o‘qituvchi tomonidan turli kommunikativ vositalar yordamida o‘quvchilar bilan o‘zaro tushunish va o‘zaro munosabatlarni tashkil etishdir. Pedagoglarning tarbiyaviy va didaktik vazifalarini o‘qituvchi hamda o‘quvchilar jamoasi o‘rtasida munosabatlarni ta’minlamay turib amalga oshirib bo‘lmaydi. Birgalikdagi faoliyat davomida odamlar turli fikrlar, o‘y-xayollar, his-kechinmalar bilan o‘rtoqlashadilar.

Bunda o‘y-fikrlar, his-kechinmalarni axborot sifatida, kommunikatsiyani esa axborot almashinuvi siftida talqin etish mumkin. Ammo insonlararo kommunikatsiya shunchaki axborot almashinuvidan iborat emas.

Chunki uloqot jarayonida axborot nafaqat uzatiladi, balki shakllantiriladi, aniqlashtiriladi, rivojlantiriladi. Demak, inson muloqotini shunchaki axborot almashinuvidan iborat jarayon, deb hisoblash mumkin emas. Muloqot jarayonida axborot bir tomondan ikkinchi tomonga harakatlanishdan tashqari, faol almashinadi (kommunikativ jarayon ishtirokchilari bir-biriga axborot yuborayotganda, bir-birining motivlari, maqsadlari va boshqalarni tahlil qiladilar).

Shuningdek, muloqot jarayonida axborot almasha turib, kishilar belgilar tizimi orqali bir-biriga ta’sir etishi mumkin (insonlararo axborot almashinuvida, albatta, suhbatdosh xulq-atvoriga muayyan ta’sir o‘tkaziladi). Muloqot jarayonida kommunikator (axborot yuborayotgan kishi) va retsipiyent (axborot qabul qilayotgan kishi) bir xil kodlashtirish hamda dekodlashtirish tizimiga ega bo‘lishi kerak. Yagona tizimni qabul qilishgina kommunikativ jarayon ishtirokchilariga bir-birini tushunish imkonini beradi.

Muloqot jarayonida faqat insonlararo komntunikatsiyaga xos to‘siqlar vujudga kelishi mumkin. To‘siqlar nafaqat belgilar tizimidagi farqlar, balki ijtimoiy-siyosiy, diniy, kasbiy farqlar yoki umuman dunyoqarash, olamni his etishdagi farqlar tufayli vujudga kelishi mumkin

Muloqotning o‘zaro birgalikda harakat qilish va faoliyat ko‘rsatish jarayonida odamlarni birlashtiradigan umumiy narsa ishlab chiqarish tarzida tushunilishi ana shu umumiy narsa muloqot vositasi sifatidagi tildan iborat ekanligini bildiradi. Til muloqotga kirishuvchilar o‘rtasida aloqa bog‘lanishini ta’minlaydi. Uni bu maqsad uchun tanlangan so‘zlar mohiyatiga ko‘ra kodlashtirgan holda axborotni ma’lum qilayotgan kishi ham, bu mohiyatning kodini ochgan, ya’ni uning ma’nosini oshkor etgan va ana shu axborot asosida o‘z xulq-atvorini o‘zgartirgan holda bu axborotni qabul qilayotgan kishi ham tushunadi.

A.V.Petrovskiy fikricha, axborotni boshqa kishiga yo‘llayotgan kishi (kommunikator) va uni qabul qilayotgan kishi (retsipiyent) munosabat va birgalikdagi faoliyat maqsadlariga erishish uchun mohiyatlarni kodlashtirish va kodini ochishning bitta yagona tizim idan foydalanishlari, ya’ni bitta tilda so‘zlashishlari kerak. Mohiyat — belgining tevarak-atrofdagi voqelikni bilishni ifoda etadigan qism sifatidagi mazmunga ega bo‘lgan jihatidir. Qurol odamlarning mehnat faoliyatini ifodalagani singari belgilar ham ularning bilish faoliyati va munosabatini namoyon qiladi.

lashtirish va uzatish vositasi sifatidagi tilni tarkib toptiradi. Til yordamida muloqotga kirishish tufayli borliqning alohida bir kishining miyasidagi in’ikosi boshqa odamlarning miyasida aks etayotgani bilan doimiy ravishda to‘ldirilib turadi — o‘y-fikrlarini ayirboshlash, axborot uzatish ro‘y beradi. O‘qituvchi u yoki bu so‘zni ishlatganda

uning o‘zi ham, uning tinglovchilari ham yolg‘iz o‘sha bitta hodisani nazarda tutishadi va ularda anglashilmovchilik yuz bermaydi. Mohiyatlar tizimi kishining butun hayoti davomida rivojlanib va boyib boradi.

Shunday qilib, faoliyat muloqotning bir qismi, uning tomoni; muloqot faoiiyatning bir qismi va tomonidir. Lekin muloqot va faoliyat barcha hollarda yaxlit (buzilmas) birlikni tashkil etadi.

Til muomala vositasidir. Til muomalaga kirishuvchilar o‘rtasidagi kommunikatsiyani ta’minlaydi, chunki uni axborot beruvchi ham, axborotni qabul qiluvchi ham birday tushunadi. Boshqa kishiga axborot beruvchi (kommunikator) va uni qabul qiluvchi (retsipiyent) muloqot jarayonida bir xil tildan foydalanishi kerak, aks holda bir-birini to‘g‘ri tushunolmaydi. Axborot almashishda bola onasiga savollar beradi va u javob beradi, bu javoblardan bola o‘z faoliyatida keyinchalik foydalanadigan umumiy bilimlarning faqat ozgina qismini oladi. Umumiy bilimlarning bu qismini bola til shaklida, til yordamida so‘z belgilari tizimida hosil qila oladi. Oliy o‘quv yurtlarida ham xuddi shunday bo‘ladi: Talaba yangi mavzu haqida barcha bilimlarni o‘qituvchining tushuntirishidan yoki darslikdan, ya’ni til yordamida o‘zlashtiradi. Bu yerda til o‘zining muhim vazifalaridan birini bajaradigan, ya’ni yashash vositasi, ijtimoiy-tarixiy tajribani berish va o‘zlashtirish vositasi tarzida namoyon bo‘ladi.

Har bir alohida odamning ish-harakati va faoliyatini ko‘pincha ijtimoiy qiymatga ega bo‘lmagan o‘zga kishilarning bevosita tajribalari belgilaydi. Masalan, men oshxona tomon yo‘l olaman. Yo‘lda o‘rtog‘im uchrab menga: «oshxona yopilgan», deydi. Shu paytda bu xabar mening faoliyatimni ma’lum bir tarzda boshqaradi: men qayrilib, boshqa oshxona tomon jo‘nayman. Bu yerda til o‘zining boshqa muhim vazifasi bilan, ya’ni vosita yoki kommunikatsiya usuli yoki odamning xatti-harakatlarini boshqaruvchi bir vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Har qanday kommunikatsiya, har qanday munosabat suhbatdoshiga ta’sir qilishdan iboratdir.

Har bir alohida odamning ish-harakatlari va faoliyatlarini har bir ayrim kishilaming shaxsiy tajribasi belgilaydi. Odamning «shaxsiy» tajribasi, o‘z individual tajribasi boshqa kishilaming tajribalari va ijtimoiy tajribaning o‘ziga xos aralashmasidan iborat. Odam hayvondan farqli o‘laroq, o‘z harakatlarini rejalashtira oladi. Bunday rejalashtirishning va umumiy fikriy masalalarni hal qilishning asosiy quroli tildir. Demak, biz tilning vazifasi aqliy faoliyatning (idrok, xotira, tafakkur, xayol) quroli sifatidagi vazifasidir. So‘z belgilar tizimi sifatida tildan nutq faoliyatida foydalaniladi.

O‘quv yurtlaridagi talabalarni kelajakda yosh avlodni tarbiyalash jarayonida tarbiya vazifalarini amalga oshirishi jarayoni, o‘quvchilarga ko‘rsatadigan ta’siri o‘quvchi ko‘rib, eshitib va bajarib borayotgan mazmunlarning muayyan darajada o‘zgarishini taqozo qiladi. Pedagog ko‘rsatadigan ta’sirning turlicha samara kasb etishi zamirida uning shaxsiyatiga oid xususiyatlar, uning o‘zini davom ettirish, o‘zining shaxsiyatiga oid mazmunlami yoshlarga o‘tkaza bilish qobiliyati, uning pedagogik munosabati xarakteri va samaradorligi mujassamlashgandir.

Pedagogik muloqot — pedagogik ta’siming ajralmas sifatidir. Bu o‘qituvchi va o‘quvchining ta’lim-tarbiya jarayonidagi professional muloqoti bo‘lib, unda ma’lumot almashinadi va o‘quvchilarga o‘quvtarbiyaviy ta’sir o‘tkaziladi. Bunda ikki yoqlama muloqot yuzaga kelishining asosi sifatida o‘zaro hurmat va ishonch xizmat qiladi. Pedagog o‘quvchilar bilan muloqotga kirishish jarayonida ulardan hurmat kutadi. O‘quvchilar ham o‘qituvchidan hurmat va ishonchni talab etadilar. Bu pedagogik ta’sirning samarali yo‘li bo‘lib, tajribali pedagoglar bolaning o‘z-o‘zini hurmatlashiga asoslangan holda munosabatlarni tashkil etadilar va shu orqali o‘zaro munosabatlarni amalga oshiradilar.

Muloqotning o‘ziga xos 3 ta darajalari mavjud. Bular: makro darajada (katta) — insonlar bilan muloqot qilish barcha odob-axloq normalariga suyangan holda amalga oshiriladi. Mezo darajada (o‘rta) — muloqot ma’lum mavzu asosida kechadi (masalan, askiyada ma’lum mavzudan chekinmaslik).

Mikro daraja (kichik) — muloqotning oddiy shakllari, savol-javob tariqasida yuz beradi. Muloqotning turlari: shaxslararo (inson-inson), shaxsiy-guruhiy (guruh-guruh), ommaviy kommunikatsiya (radio, televideniye, ro‘znomalar va oynomalar) kabi turlari mavjud [2].

Pedagogik muloqotda ijodiylik quyidagilarga bog‘liq:

— o‘quvchilar bilan o‘zaro birgalikda harakat qilish (A.A.Bodalev);

— bolaga ta’sir qilishda uning xulq-atvorini boshqarish, o‘zaro harakatning turli yo‘llarini qo‘llash;

— o‘qituvchining o‘z-o‘zini boshqara olishi; — o‘zaro munosabatlar jarayonidagi ijodiylik xarakterini saqlay bilish (Ya.L. Kolominskiy, A.V. Petrovskiy).

Demak, o‘qituvchi o‘quvchilar bilan ziddiyatlarga borsa, qandaydir muammo tug‘ilsa darhol hal qilishi lozim. Pedagogik muloqotdagi ijodiylik ham shunda bilinadi. Pedagogik muloqotda o‘qituvchi bolaning ko‘ziga qarab uning xayolidan nima kechayotganligini bilib olishi kerak. Ijodiylik o‘zaro munosabatlardan boshlanadi.

Har bir pedagog o‘z tajribasidan, uslubidan kelib chiqib bolalar bilan muloqotda bo‘lishi, nostandart usullami izlab topishi kerak. Pedagogik ta’sir ham pedagogik muloqotdagi ijodiylik orqali amalga oshiriladi.

Ijodiylikni amalga oshirish uchun quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

— bir necha o‘qituvchilarning darslarini kuzatish, unda o‘quvchilarning kayfiyatini, o‘qituvchining bolalar bilan bo‘ladigan munosabatlarini o‘rganish;

— o‘qituvchining darsda qanday usullami qo‘llashi, muloqotni qanday tashkillashtirish, o‘quv-tarbiyaviy muammolami yechishini aniqlash;

— o‘zining muloqot texnologiyasini boshqa o‘qituvchining texnologiyasiga taqqoslashi;

— tajribali o‘qituvchilarning tarbiyaviy soatlarida qatnashish orqali muloqot jarayonidagi o‘quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash;

— o‘zining darsidagi muhit bilan boshqa tajribali o‘qituvchining darsidagi muhitni taqqoslash orqali xulosa chiqara olish [3].

Kasbiy-pedagogik muloqot — murakkab hodisa. Shaxs kasbiypedagogik muloqot qilishdan awal o‘z oldiga bir necha vazifalarni qo‘yadi. Jumladan, muloqot maqsadini, muloqot qachon, qayerda, necha yoshlilar bilan o‘tkazilishini rejalashtiradi.

Pedagogik muloqotning eng muhim bosqichi — modellashtirish hisoblanadi. Bu bosqichdan muhim, mas’uliyatli muammoni hal qilishda foydalaniladi. Masalan, darsga tayyorlanish, ma’ruzani rejalashtirish ham shu bosqichga kiradi.

Birinchidan, dasturga mos ravishda dars loyihasi tuziladi.

Ikkinchidan, o‘quvchilarning individual xususiyatlari hisobga olinadi. Uchinchidan, dars jarayonida qo‘llanadigan ta’lim-tarbiya usullari tanlanadi. To‘rtinchidan, bolaning aqliy rivojlanish qobiliyati hisobga olinadi. Ikkinchi bosqich — bevosita muloqot bosqichi.

Buni «kommunikativ hujum» deb atash mumkin. Chunki O‘qituvchi tashabbusni to‘liq o‘z qo‘liga olib dars boshlaydi. Uchinchi bosqich esa muloqotni boshqarish bosqichi bo‘lib, kasbiy kommunikatsiyaning muhim tarkibiy qismidir.

Kasbiy-pedagogik muloqotning vazifasi — texnologiyani o‘zlashtirish bo‘lib, unda o‘qituvchi iliq munosabatlarni qo‘llay oladi, natijada pedagog shaxsi namoyon bo‘ladi.

Darsda tashabbusni qo‘lga olish usullari quyidagilardan iborat:

— sinf bilan aloqani yo‘lga qo‘yishda zudlik bilan harakat qilish;

— tashkiliy ishlardan dars jarayonining muhim bosqichiga tezlik bilan o‘ta olish;

— sinfning ijtimoiy-psixologik yakdilligini, «biz» hissini shakllantirish;

— vaziyatga qarab bolalar bilan muloqot usullarini qo‘llash;

— butun sinf jamoasi bilan yaxlit aloqani tashkillashtirish;

— latofat, samimiylik, sofdillikni o‘zida shakllantira olish, darsda namoyon qila olish;

— taqiqlangan pedagogik talablami kamaytirish, vaziyatga qarab ish tutish;

— mimika (yuz ifodasi), pantomimika (harakatlar), ko‘z bilan ta’sir qilish (noverbal muloqot) ni faol qo‘llash;

— o‘zaro bir-birini tushunishni his qilish (V.A. Kan — Kalik). Kasbiy-pedagogik muloqotning muvaffaqiyatli bo‘lishida o‘qituvchining kommunikativ madaniyati muhim o‘rin egallaydi.

Bola o‘qituvchining dildan gapirayotganligini his qilib turishi kerak. Aks holda ishonchli, samimiy muloqot amalga oshmaydi. Ayrim pedagoglar bolalar bilan ularning yoshini hisobga olmasdan muloqotda bo‘ladilar. O‘qituvchi bola katta bo‘layotganligini sezib tursa, bu uning muloqot madaniyati shakllanayotganligidan dalolat beradi.

Muloqot madaniyati individual uslublarini shakllantirish metodikasi 1.O‘quvchilar bilan muloqot qilish madaniyatining individual shaxsiy xususiyatlarini o‘rganishi:

- o‘quvchilar shaxsiy xususiyatlarini mustaqil tahlil qilish;
- o‘quvchilar ichki imkoniyatlariga har tomonlama tavsif berish;
- o‘qituvchining muloqot madaniyatini to‘g‘ri tashkil etishi.

2.Shaxsiy muloqotda ro‘y beradigan kamchiliklarni darhol bartaraf etishi:

- kamchiliklarga barham berish choralarini darhol izlab topish;
- har qanday vaziyatda o‘quvchilarga qo‘pollik qilmaslik; S o‘quvchi shaxsini mensimaslik kabi salbiy holatlarni bartaraf etish.

3.O‘qituvchi o‘zi uchun muloqot madaniyatining eng qulay bo‘lgan uslublarini tanlab olishi:

- pedagogik faoliyatiga monand muloqot madaniyati modelini ishlab chiqishi;
- o‘z-o‘zini kuzatish bilan muloqotdagi yutuq va kamchiliklarini muntazam taqqoslab borishi;
- muloqotda milliy ma'naviyatimiz, urf-odat va an'analarimiz imkoniyatlaridan doimiy foydalanish.

4.Muloqot madaniyatida pedagogik faoliyat qonuniyatlaridan chetga chiqmaslik:

- har bir o‘quvchining individual xususiyatlariga mos muloqot
- tizimini ishlab chiqishi;
- muloqotning tarbiyaviy ta'sirini va samarasini e'tirof etish; S muloqot madaniyati asosida pedagogik mahoratni namoyish etish.

Pedagogik faoliyatni endigina boshlayotgan yosh o‘qituvchilar o‘z kasbiy mahoratlarini oshirish maqsadida o‘quvchilar bilan muloqot madaniyatini shakllantirish ustida muntazam ish olib borishlari zarur. Ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muloqot ma-daniyati o‘qituvchi va o‘quvchilarning bevosita o‘zaro munosabatini ma'lum bir maqsad sari hamjihatlikka yo‘naltiruvchi kuchdir.

Bu o‘rinda o‘qituvchi quyidagi vaziyatlarni e'tiborga olishni alohida ta'kidlash lozim: - o‘qituvchining ilk tarbiyaviy faoliyatidan boshlab muloqot mada-niyatiga rioya qilishi, bu jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasi bilan har kungi muomalani vaziyatga qarab rejalashtirishi, har bir harakat, so‘z ohangiga e'tibor, an'anaviy muloqotning eng yaxshi xusu-siyatlarini o‘zlashtirishi; - muloqot asosida sinf jamoasidagi turli vaziyatlarni qayd etish, o‘quvchilar xattiharakatining oldingi holati bilan, tarbiyaviy faoliyatdan keyingi holatini qiyoslab chiqib baho berish; -o‘z muloqot uslubi natijalarini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilib, kamchiliklarni uzluksiz bartaraf etib borish.

Zarur so‘z, ovozdagi yoqimli ohang, hulq-atvorni vujudga keltirish;

- pedagogik muloqot madaniyatining samarali kechishi uchun uning shartsharoitlarini bilib olishning o‘zi kifoya qilmaydi, o‘quvchilar bilan o‘zaro muomalaning "ustoz-shogird" an'analariga xos boshlanishi va o‘zaro fikr almashish asosida muhim vazifalarni hal qilish bilan muomala obyektining diqqatini o‘ziga jalb qilish;

- muloqot obyekti, ya'ni o‘quvchining diqqatini o‘ziga jalb qilish deganda nimani anglash kerak? Buning ma'nosi o‘qituvchi o‘zining xushmuomalaligi, madaniyati, go‘zal xulqi, muloqotda o‘quvchilar qalbiga yo‘l topa olishi bilan o‘z mahoratini namoyish qilib, muloqot madaniyatining tashkiliy shakllariga ijtimoiy-psixologik negizni asos qilib olishidir.

Ko‘rsatib o‘tilgan vaziyatlar asosida pedagogik ta'sir ko‘rsatish uchun, o‘qituvchining pedagogik muloqot madaniyatiga, etikasi va odob-axloqiga, dilkashligiga, muosharat odobiga alohida talablar qo‘yiladi. Ushbu fazilatlar o‘qituvchining sinf jamoasida, otaonalar bilan muloqot qila bilishida, o‘quvchilar bilan aniq maqsadni ko‘zlagan holda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishida va ularni boshqara olishida muvaf-faqiyatlar garovidir.

Xulosa o‘rnidashuni aytish mumkinki,Kasbiy faoliyatning noyob fazilati bo‘lmish pedagogik muloqot madaniyatiga amal qiladigan yosh o‘qituvchi quyidagi xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirishi ya’ni shakillantirishi lozim:

- mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy talablari va ehtiyojlariga mos bo‘lgan yuksak ma'naviyat darajasidagi qarashlar, kuchli va barqaror e'tiqod, davlatimiz ideallari, milliy g‘oya va istiqlol mafkurasiga sodiqlik, vatanparvarlik, fidoyilik tuyg‘ulari shakllangan ijtimoiy-siyosiy faol shaxs;

- o‘quvchilarga samimiy mehr-muhabbat, ularning har qanday ehtiyojlari, qiziqishlari, xatti-harakatlari motivlarini, xulq-atvorlarini tushunish ko‘nikmasi va malakasining shakllanganligi;

- jamiyatda ro‘y berayotgan hodisalar, jahonda ro‘y berayotgan voqealar, tabiatga, borliqqa, shaxslararo, guruhlararo, millatlararo munosabatlarga nisbatan pedagogik kuzatuvchanlik, yangilikka, ijodiy izlanishga nisbatan intilish qobiliyatining mayjudligi;

- pedagogik faoliyatning barcha jabhalarida odamlarning xatti-harakatlari, munosabatlaridagi xususiyatlarni oqilona tushunish, o‘z faoliyatiga nisbatan refleksiv munosabatni tarkib toptirish;

- har qanday favqulotda vaziyatlarga, jamiyatda ro‘y berayotgan yangiliklarga nisbatan hamda ijtimoiy

- iqtisodiy o‘zgarishlarga omilkorlik va aql-idrok bilan munosabatda bo‘lish, o‘z oldiga to‘g‘ri maqsad qo‘ya olish, reja tuzish, bevosita nazorat qilish, boshqarish va o‘z imkoniyatlarini namoyon eta olish;

- pedagogik faoliyatlarda, jamoatchilik tizimida muvaqqat guruhiy munosabatlarda ommaviy harakatlarda tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatini namoyish etishi;

- dunyoqarashi va tafakkur ko‘lamining kengligi, dunyoviy bilimlarnibilishga nisbatan qiziqishining serqirraligi, ilmiy izlanishlarga moyilligi, muayyan ilmiy

salohiyat va pedagogik mahorat darajasini muntazam oshir-oshirib borishi;

- o‘quvchilar bilan muloqotda layoqatliligi, nutq madaniyatining mantiqan ixcham, ma'noli, ta'sirchan kuchga egaligi, psixologik ta'sir o‘tkazish uslublari bilan qurollanganligi. Har bir o‘qituvchi uchun o‘quvchilarga to‘g‘ri, omilkor axborot uza-tish va unga suhbatdoshini ishontira olishi kasbiy zaruriyat hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. E. G‘oziyev. Muomala psixologiyasi. -T.: 2001, 23-b.
2. Davletshin M. G. Umumiy psixologiya. -T.: 2002, 62-b.
3. V.A.Kan — Kalik. Учителю о педагогическом общении. -M.: 15-16-b.
4. Mahmudov N.M. O‘qituvchi nutq madaniyati. Darslik. -T.: O‘zb. Milliy kutubxonasi, 2007, 185-b.
5. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. -T.: «O‘qituvchi», 1996, 192-b.
6. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. Asarlar 15-tom.- T.: "Fan" 2005.
7. Ochilov M. Muallim qalb me'mori: Saylanma. —T.: «O‘qituvchi», 2000.
8. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahofat. -T.: "Iqtisodmoliya". 2009, 240-b.
9. IleflarorHKa. (rioa pe,a. Il.H. FlHUKacHCToro).- M.: neaarorHiec-Koe o6uiqecTBO POCCHH, 2003, -P.608.

REZYUME. Muloqot — shaxslararo munosabatlarning asosiy ko‘rinishi bo‘lib, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan o‘zaro ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, o‘zaro axborot almashadilar, bir-birlariga ta’sir o‘tkazadilar, bir-birlarini his qiladilar, tushunadilar. Shuning uchun muloqot ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida ishtirok etib, hamkorlik faoliyatining moddiy, ma’naviy, madaniy, emotsional, motivatsion qirralarining ehtiyoji sifatida vujudga keladi. Insonda yuzaga keladigan har xil ehtiyojlami maqsadga muvofiq ravishda qondirish muloqot maromiga bog‘liq bo‘lib, shaxslararo munosabat barkamol avlod, komil inson g‘oyalari qaror topishiga xizmat qiladi.

РЕЗЮМЕ. Общение – это основная форма межличностных отношений, с помощью которой люди мысленно общаются друг с другом, обмениваются информацией, влияют друг на друга, чувствуют и понимают друг друга. Поэтому общение как социально-психологическое явление принимает участие во всех сферах общественной жизни и возникает как потребность в материальном, духовном, культурном, эмоциональном, мотивационном аспектах сотрудничества. От ритуала общения зависит удовлетворение всевозможных потребностей человека в соответствии с целью, а межличностные отношения служат утверждению идеалов совершенного поколения и совершенного человека.

SUMMARY. Communication is the main form of interpersonal relations, with the help of which people communicate with each other mentally, exchange information, influence each other, feel each other and understand . Therefore, communication as a socio-psychological phenomenon takes part in all spheres of social life and arises as a need for material, spiritual, cultural, emotional, motivational aspects of cooperation. Satisfying all kinds of human needs in accordance with the purpose depends on the ritual of communication, and interpersonal relations serve to establish ideals of a perfect generation and a perfect person.

MILLIY DÁSTÚRLER, ÚRP-ÁDETLERDIŃ TIYKARǴÍ FUNKCIYALARÍ HÁM RUWHÍY TÁRBIYADAǴÍ ÁHMIYETI

S.M.Utepbergenova – *magistrant*

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

Tayanch so’zlar: dastur, milliy dasturlar, urf -odatlar, millat, tarbiya, milliy tarbiya, mentalitet.

Ключевые слова: программа, национальные программы, традиции, нация, образование, национальное воспитание, менталитет.

Key words: program, national programs, traditions, nationality, upbringing, national upbringing, mentality.

Milliy dástúrler, úrp-ádetler jámiyettegi sociallıq qatnasıqlardıń túrlerin, mádeniyatınıń dárejesin kórsetiwi menen birge tárbiyanıń da tiykarǵı quralların adamlardı jámiyetlik qadaǵalawdıń hám biriktiriwdiń áhmiyetli formasında kórsetedi.

Jer júzinde eki mińnan aslamıraq milletler, xalıqlar, qáwimler bolsa, olardıń hár qaysısınıń milliy dástúrleri, úrp-ádetleri bolıp, bular xalıqtıń ruwxıy faktorı bolıp xızmet etedi. Tiykarınan, ózini bay tariyxına iye bolǵan xalqımızdıń da ózine tán dástúrleri, úrp-ádetleri milliy mentaliteti sheńberinde qáliplesken bolıp, ásirler dawamında ruwxıy qádiriyat sıpatında áwladtan-áwladqa ótip keledi. Bunı biz shańaraqta bar bolǵan tárbiyalıq kórinislerde gúzetiwimiz múmkin. Búgingi kúnimizde de óziniń jańasha kórinislerinde sáwlelenbekte.

Milliy dástúr - degenimiz haslında áwladtan-áwladqa jetkeriletuǵın hám tariyxıy tiykarda qáliplesetuǵın úrp-ádet, ulıwmalıq tártip, ádep-ikramlılıq norması bolıp esaplanadı. Úrp- ádetlerdiń kopshiligi shańaraqlıq turmısqa tiyisli bolıp, balanıń tuwılıwı hám tárbiyası (besik toyi, súnnet qılıw), neke (pátiya toyi, toy) menen baylanıslı boladı.

Milliy dástúr hám úrp-ádetlerdiń eń áhmiyetli ulıwmalıq funkciyası adamlar arasındaǵı rawajlanıwshı hám ózgeriwshi turaqlılıqtıń ózin támiynlew bolıp tabıladı. Turaqlılıq bolmasa rawajlanıw bolıwı múmkin emes. Turaqlılıqtı támiynley otırıp milliy dástúrler, úrp-ádetler jámiyetlik bolmıstıń tiykarǵı áhmiyetli jaǵdayın dúzedi. Tariyxtıń hár bir jańa basqıshında jámiyetlik qatnasıqlar tek saqlanıp ǵana qalmastan, al ózgerip jańalanıp ta turadı. Solay etip, milliy dástúrler, úrp-ádetler arqalı qayta óndiriw payda boladı, eski qatnasıqlardan házirgi hám keleshektegi qatnaslar payda bola basladı. Usınıń nátiyjesinde hár bir jańa áwlad ótken ásirlerdiń miyrasınan tásir alıp, ótkendegige boysınıwǵa májbúr boladı.

Milliy dástúr hám úrp-ádetler óndiris usılların hám oǵan sáykes keletuǵın óndiris qatnasıqların tártiplestiriw formaları ǵana emes hám olardı ózimshelilikten, tosqınlıqtan azat etiwdıń quralı bolıp esaplanadı.

Milliy dástúrler, úrp-ádetlerdiń jáne bir áhmiyetli funkciyası saqlawshılıq yaki qadaǵalawshılıq. Belgili francuz sociologi E.Dyurkgeym bılay dep jazadı: «Dástúr adamlardıń jámiyetten tayar túrinde tabatuǵın, olardıń tártiplerin jónleytuǵın hám háreketke keltiretuǵın qaǵıydaları bolıp esaplanadı. Dástúrdi buzǵanı ushın berilgen jaza toparlardıń birligin saqlawǵa járdemlesetuǵın saqlawshı qural bolıp tabıladı» [1].

Milliy dástúrler, úrp-ádetlerdiń jámlestiriw funkciyası da bar. Bunda milliy dástúr hám úrp-ádetler sociallıq birlikti qáliplestiriwdiń quralı hám tiykarı, nızamı sıyaqlı bolıp kórinedi. Bunıń anıq mısallarınıń biri - mánawiy birigiwler, olardıń awızbirshiligin hám jámleniwin saqlawǵa urınıwshılıq esaplanadı. Shınında da milliy dástúr hám úrp-ádetler jámlestiredi, aralastıradı, qáliplestiredi. Sonıń menen qatar dástúrdiń jámiyetshiligi geyde tikkeley emes, al qıyalıy sırtınan qosıp qoyıw jaǵdayında da bolıwı múmkin. Mısalı: «ózimizdiń balaǵoy» degen sıyaqlı jámlestiriwshilik.

Milliy dástúrler, úrp-ádetlerdiń málimlemelik funkciyasıda bolıp, olar sociallıq málimleme - jıynalıw, saqlanıw hám ekinshi birewlerge beriliwiniń ózgeshe quralı sıpatında xızmet atqaradı. Milliy dástúrler, úrp-ádetlerdiń málimlemeniń nıǵızlanıp, jámiyettiń esinde saqlanadı hám ásirlerge ketedi. Usıǵan baylanıslı adamlar ózleriniń tuwılıwınan baslap qatnasıqların hár sapar qayta dúze beriw zárúrliginen azat boladı. Bul málimlemeler arqalı olar ata-babadan qalǵan materiallıq hám ruwxıy mádeniyatlardı boyına sińiredi.

Sonlıktan qaraqalpaqlarda: «Ata salǵan jol bar, ene pishken ton bar» degen naqıl-maqaldı jas ávladlardıń ata-anadan miyras etip alınıwınıń ózi dástúrlik ekenligin kórsetedi.

Jaslardıń milliy dástúrler, úrp-ádetlerge ıqtıyatlıq penen qatnası, yaǵnıy onı túsiniwi hám dástúrdi buzıp, adamlardıń kewline tiyip almawı aytarlıqtay qádir-qımbatlılıqqa iye bolıp, onday jaslardı «kórgenli» dep bahalap, al dástúrge sıymaytuǵın islerdi islegen adamlardı «kórgensiz» dep esaplap, topardıń pikirinshe awır ayıptı taǵadı.

Aytayıq, milliy dástúrler, úrp-ádetler adamlardıń keyiplerin kóteredi, quwanıshın asıradı, jeke adamdı jámáátke, birlespelerge tartadı. Adamlardıń jámiyettegi óz-ara qatnasıqlarınıń xarakterine hám dárejesine tásir jasap, ondaǵı sociallıq, psixologiyalıq halattı jaqsılawǵa múmkinshilik beredi.

“Bizlerdi bárháma oylandırıp keletuǵın jáne bir zárúrli másele - bul jaslarımızdıń ádep-ikramlılıǵı, júris-turısı, bir sóz benen aytqanda, dúnyaǵa kóz qarası menen baylanıslı. Búgin zaman tez pát penen ózgerip atır. Bul ózgerislerdi hámmeden de kóbirek sezetuǵın kim - jaslar. Meyli, jaslar óz dáwiriniń talapları menen uyqas bolsın. Biraq búgingi kúnde ózligin de unutpasın. Biz kimbiz, qanday ullı insanlardıń ávladımız, degen shaqırıq olardıń kewilinde mudamı jańırap, o'zligine sadıq qalıwǵa baǵdarlap tursın. Buǵan neniń esabınan erisemiz? Tárbiya, tárbiya hám tek tárbiya esabınan” - dep atap ótedi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev [1].

Búgingi jaslardı buzǵınshı ideyalardan qorǵaw mine usı tárbiyanıń oraylıq mashqalasına aylanadı. Bul barada ata-babalarımızdan bizge tárbiyalıq miyras bolıp kelgen milliy dástúrlerimiz, úrp-ádetlerimizdiń ornın ayrıqsha atap ótiw zárúr. Usı orında atap ótiw kerek, 2019-jıl 31-dekabrde Ministrler Kabinetiniń 1059-sanlı qararı menen “Úzliksiz ruwxıy tárbiya koncepciyası” tastıyıqlandı. Koncepciyanıń maqseti – jas ávladtı ǵárezsiz turmıs ushın zárúr sociallıq kónlikpe hám pazıyletlerdi jasına say, basqıshpa-basqısh qáliplestiriw tiykarında joqarı pazıyletli, bárkamal ávladtı jetkiziwden ibarat.

Shańaraqta perzent tárbiyasına mánawiy jaqtan jantasıwǵa barlıq dinlerdegi sıyaqlı islam dininde de úlken áhmiyet beriledi. Islam dininde ata-analardıń minneti, perzent tárbiyalawdaǵı juwapkershilik kriteriyaları belgilep berilgen. Bunıń ushın ata-ana perzentine tuwılǵanda shıraylı at qoyıwı, ul balalardı súnnetlewi, ózin tanıp bilgennen soń ádep-ikramlılıqtı úyretiwi, Allahtı tanıtıwı, Allah kámilligindegi tálim-tárbiyaǵa baylanıslı úgitlerden xabardar etiwi, hadal haramdı, gúná hám sawaptı parıqlaw, pákize júriw, kásip-óner úyreniw hámde dúnyalıq ilimlerdi iyelew sıyaqlılardı sińdiriwi kerek. Shıǵıslıq milliy dástúrlerimizden biri perzentlerdiń ata-anaǵa miyirman bolıwı, olardıń barlıq aytqan gáplerin sózsiz orınlaw bolıp tabıladı. Ómirde usınday insanlar da ushırap turadı, perzentlerin kúni-túni miynet etip baǵıp, er jetkizip, úylijaylı qıladı, biraq waqtı kelse tárbiyasız perzentler ata-ananı baǵıwǵa qurbı jetpey qaladı. Bul bolsa shańaraqta mánawiy ortalıqtı jaqsı jolǵa qoyılmaǵanlıǵın, perzentte jaslıǵınan bilim alıp óner úyreniwge, miynet etip ózin, shańaraǵın, bala-shaǵasın baǵıp, perzenttiń ata-anaǵa, aǵayın-tuwısqanlarına bolatuǵın húrmet-izzet sıyaqlı insanıylıq tuyǵıları qáliplestirilmegenliginen dáliyllik beredi. Qanday bolmasın perzent tárbiyasında milliy dástúrler, úrp-ádetlerge ámel qılǵan halda tárbiyalıq jantasıw talap etiledi.

Xalqımızda “Ne ekseń sonnı orasań” degen naqıl bar. Ata-ana tárbiya processinde perzentleri qálbine qanday nál ekken bolsa, keyin ala ashshı yaki dushshı miyўelerdi ózleri tatıp kóredi.

Ata-ana, perzentler ortasındaǵı isenim, húrmetke tiykarlanǵan múnásebetler – shańaraq bekkemliginiń jáne bir kórinisi bolıp tabıladı. Shańaraqta mánawiy tárbiyanı kúsheyttiriwde atanıń ornı sheksiz bolıp tabıladı. Xalıqımız shańaraqlarında ataǵa bolǵan húrmet kózabaǵa sıyınıw emes, al onıń abırayın qádirlew, oǵan iseniw hám sıyınıw bolıp tabıladı. Danıshpan atalar ǵana perzentlerin bilim, kónlikpe hám tájriybeler menen qurallandıra aladı hám ómirdegi barlıq awırlıqlardı aqıl-parasat, sabır-shıdam menen jeńip ótiwge shaqıradı. Jaqsı perzentler ata izinen baradı. Atanıń dosların, qádirdanların húrmet qıladı, inilerin tárbiyalaydı, aǵayın-tuwısqanlarǵa miyrimli, aqıbetli boladı. Álbette, bulardıń barlıǵı kópti kórgen, aqıllı atalardıń mehir hám muhabbat penen perzent qálbine ornatılǵan mánawiyat nurınan derek beredi.

Ключевые слова: Творческий педагог, творческая личность, творческая способность, педагогическое мастерство, способность, музыкальное образование, практическое занятие, обучение, инновационная технология.

Bugungi kunda yangi O’zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o’rin egallashga intilish yo’lidagi keng ko’lamli islohotlarni amalga oshirish bilan kechmoqda.

Respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi ta’lim mazmuniga ham izchil ravishda o’zgartirishlar kiritish borasida ―ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo’g’inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda [2:24].

Ta’lim to’g’risidagi Qonunning 46 moddasida Pedagog xodimlarning majburiyatlari xususida so’z borganda, o’quv mashg’ulotlarni sifatli o’tkazilishi alohida ta’kidlangan [1].

Ta’lim tizimi olib borilayotgan keng islohatlar har bir o’qituvchidan tashabbuskorlik, ijodkorlik, keng dunyoqarashga ega, kasbiy faoliyatidagi mavjud muammolarini yeshimini topa oladigan, tafakkuri keng bo’lmoqlikni talab etmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Rrezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak” nomli kitobida muhim muammolardan biri, - pedagoglar va professor o’qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko’mak beradigan muhitni yaratish zarur ekani aytib o’tilgan [3:45].

Musiqa o'qituvchilari va musiqa rahbarlari uchun ta'lim muassasalaridagi (maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, musiqa va san'at, umumta'lim maktablarida) darslar, mashg'ulotlar musiqiy pedagogik ijodkorlikning bosh asosi hisoblanadi.

Musiqiy pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy kayfiyatda tashkil etilishi lozim. O'sib borayotgan yosh avlodga o'z bilim va tajribalarini uzatish jarayonida musiqa o'qituvchisi pedagogik mahoratini, musiqiy va ijodiy qobiliyatlarini namoyon qiladi.

"Ijodkor shaxs", "ijodiy yondashuv", "ijodiy yutuqlar"," ijodiy o'ylang"," ijodkorlikning namoyon bo'lishi "... Ushbu tushunchalar jamiyatda yuqori malakali kadrlar tayyorlashda, zamonaviy kasbiy mahorat ko'rsatkichlarini aniqlashning asosiy mezonlaridan biri bo'lib, eng yaxshilar orasida eng yaxshisi hisoblanadi.

Ijodiy qobiliyatni shakllantirish – bosqishma-bosqich hal qilinadigan muammodir. Shaxs ijodiy qobiliyati kasbiga qadriyatli yondashuvida, amaliy mashg'ulotlar, turli tadbirlarni tashkil etishga o'rgatish kabi faoliyatlar ta'sirida shakllanadi. Ijodiy qobiliyat faoliyat jarayonida talabada asta-sekin ishning qaysi joyini, nimani o'zgartirish, yaxshilash, takomillashtirish ushun nimalarga e'tibor berish masalasini o'ylash tamoyili vujudga keladi. Natijada mavjud bilimlarni taqqoslash, umumlashtirish, kuzatish va ijod jarayonida kelib chiqadigan vazifalarga muvofiqlashtirish, ko'zda tutilgan yechim umumiy tuzilishini tasavvur etish zarurati tug'iladi. Shunday qilib, umumiy holda ijodiy qobiliyatlar mavjud muammoni samarali yechimini tez va aniq torishga yordam beradi. Shundan kelib shiqib, ijodiy qobiliyatlarga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiqdir:

Ijodiy qobiliyatlar – bu turli ijodiy faoliyatning samarali bajarilganligini aniqlaydigan talabaning individual psixologik xususiyati bo'lib, talaba faoliyatida turli ijodkorlik ko'rinishlari, badiiy-ijodiy, musiqiy-ijodiy, ilmiy-ijodiy, pedagogik mahorat, musiqiy qobiliyatlar, texnik ijodkorlik kabilarda namoyon bo'ladigan jarayondir.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik mahorat, ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning muhim jihatlari o'rganilar ekan, avvalo, musiqa san'ati va ta'lim – tarbiyasini xalqimiz va millatimizning ma'naviy hayotida, yosh avlodni badiiy – estetik tafakkurini yuksaltirishda, qalbida insoniy fazilatlarni kamol tortirish bilan ahamiyatlidir.

Musiqa orqali dunyoqarashni, ahloqiy, ma'naviy, aqliy, mexnat, jismoniy tarbiyani shakllantirish o'ziga xos xususiyatga ega. Ahloqiy, ma'naviy tarbiya, insonparvarlik, niyat va harakatlarning pokligi, ishonsh, ahloq normalarini ishlab chiqish, Vatanga muhabbat, vatanrarvarlik baynalminallik va boshqa tushunshalar bilan bog'liq. Musiqa san'ati anashu hissiyotlarni tovushli badiiy obrazlarda ifodalaydi. Muiqiy badiiy obrazlarning nozikligi, ohangdorligi, lirikligi eng nafis va noyob tuyg'ularga ta'sir etish imkonini beradi. Shu bilan birga aniq ritm, dramatizm, ohanglar keskinligi, tantanavorligi, garmoniyaga boyligi insonga dadillik, g'urur, jasorat, Vatanni himoya qilishga tayyorgarlik tuyg'usini uyg'otadi [4:31].

Jamiyatning ijtimoiy yangilanishi sharoitida musiqiy ta'limning natijalari va samaradorligi inson tomonidan asl madaniy qadriyatlarni va ijtimoiy tajribani o'zlashtirish va ko'paytirishni qanday ta'minlayotgani bilan emas, balki jamiyat a'zolarining ongli va mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorligi bilan belgilanadi.

Muayyan musiqa, shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini rivojlantiradi, ma'naviy salohiyatini oshiradi. Musiqa badiiy madaniyat hodisasi sifatida inson tarbiyasiga ta'sir qiluvchi, odamlar o'rtasidagi ijobiy muloqotni rivojlantiruvchi vositadir.

Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassis sifatida yetishib chiqayotgan barcha bo'lajak musiqa o'qituvchilarni, musiqa ta'lim tizimining barcha jabhalarida birdek musiqa darslarining spesifik xususiyatiga qo'yilgan talablarni mukammal darajada bajarishga qodir deb bo'lmaydi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarda musiqiy va ijodiy qobiliyatni shakillantirish, pedagogik mahoratini oshirish orqali, darslarni samarali va qiziqarli tashkil qilish imkoniyati ortadi.

Shu o'rinda savol tug'uladi, musiqa o'qituvchisi mutaxassis kadr sifatida pedagogik mahoratni qanday samarali egallashi mumkin? – Shu o'rinda R.I. Chaykovskiyning quyidagi so'zlarini keltirish mumkin: "Eng avvalo mexnat, mexnat va yana mexnat qilish zarur. Hatto zakiy aql egasi bo'lgan kishi ham, mashaqqatli mexnat qilmas ekan, nafaqat buyuk, balki, o'rtamiyona narsani ham yarata olmaydi"[4:15]. Darhaqiqat, jamiyatimizda musiqa o'qituvchilaridan serqirralik, ijodkorlik, ijro texnikasida mukammallikka erishishlari ushun tinimsiz o'z ustida ishlash, ko'proq mexnat qilish talab etiladi.

Shuni alohida takidlash joizki, yangi O'zbekistonni ravnaq torishida xalqimizning ma'naviyati va ma'rifatini yuksaltirishda musiqa darslari fan sifatida keng va badiiy tafakkurga ega shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Buni jamiyatimizning har bir a'zosi (avvalo musiqa o'qituvchisi, maktab direktori, bog'cha mudirasi, ota – onalar va boshqalar....) anglab yetishi maqsadga muvofiqdir. Zero, o'quvchi - yoshlar tarbiyasida hammamiz birdek mas'ulmiz…..

Musiqa ta'limida har bir o'quvchining o'z badiiy imkoniyatlarini ochish va ijodiy rivojlanishi ushun yanada kengroq shart-sharoitlar yaratish vazifasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari o'quvchilarda, kelajakda qaysi kasbni tanlashlaridan qattiy nazar, badiiy estetik tarbiyasi, yuksak ma'naviyat va keng dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqa darslari aslida boshidan oxirigacha ijod darsi. Ammo bugungi kunda musiqa darslari ijod darsi sifatida tashkil qilinayardimi? Bunday ijod darslari musiqa o'qituvchilari zimmasiga qanday ko'nikma, malakalarni va qobiliyatlarni talab qiladi? Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishdan ko'zlangan maqsad nimada? Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirish omillari tizimida musiqiy pedagogik bilimlar va musiqa o'qitish metodikasining o'rni qanday?

Shaxsning ijodiy qobiliyatini oshirishda, musiqiy ta'lim-tarbiyasining asosiy tarkibiy qismlarini rivojlantirishning ijtimoiy mexanizmlarini aniqlash, musiqaning mazmun-mohiyati orqali ma'naviy salohiyatga ta'sir etuvshi vositalar bilan ishlash, musiqiy asarlarni tinglash, idrok etish va ijro etishni o'rgatishning estetik tarbiyaga ta'siri, musiqiy ta'lim-tarbiyaning samarali olib borishning davomiyligini ta'minlashda ijodiy qobiliyatga ta'siri juda muhim sanaladi.

Oliy ta'lim tizimida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitiladigan barsha mutaxassislik fanlari, jumladan, musiqa o'qitish metodikasi, musiqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash, musiqa nazariyasi, musiqa tarixi, cholg'u ijroshiligi, vokal asoslari, dirijyorlik kabi mutaxassislik fanlari bo'yicha olinadigan bilim, ko'nikma va malakalar musiqiy ta'lim- tarbiya samaradorligini oshirish yo'lida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Afsuski, talabalar har doim ham pedagogik mahorat va psixologik bilimlarning muhim qoidalarini amalda qo'llashmaydi. Ko'p bilimlar tegishli ko'nikma va malakalar bilan ta'minlanmagan holda nazariy bo'lib qolaveradi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarni ijodiy qobiliyatni shakllantirishda quydagilar muhim ahamiyat kasb etadi.

- Bo'lajak musiqa o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda nazariy bilimlar bilan amaliyotning chambarchas bog'liqligi;
- Ijodiy qobiliyatni shakllantirishga oid mashg'ulotlarda, bo'lajak musiqa o'qituvchilarning kasbiy

malakalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi muammoli vaziyatlar yaratish.

- Talabalarning ijodiy qobiliyatini shakllantirishga texnologik yondashuv.

Talablarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda ular egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma malakalarga quyidagi talablar qo'yiladi.

-musiqiy pedagogik mahoratga oid materiallarni qay darajada o'zlashtirganligi;

-berilgan topshiriqlarga doir asosiy tushuncha va qoidalarni o'zlashtirganligi;

-mashg'ulotlarga oid torshiriq bo'yicha berilgan vazifalarni mustaqil bajara olishi;

-torshiriqlarni bajarishda innovatsion texnika va pedagogik texnologiyalardan foydalana olishi;

- o'z musiqiy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va uni rivojlantira olishi;

-kasbiy faoliyati bo'yicha o'z oldiga maqsad va vazifalarni qo'ya olishi, rejalar tuzishi va natijalarni baholay olishi;

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida o'sishini ta'minlaydigan, ijodiy faoliyat va shartlar sirasiga quyidagilar kiradi:

1) Musiqa nazariyasi, tarixi, pedagogikasi, psixologiyasi borasida bilim, ko'nikma va malakalarni muntazam ravishda, rejali tarzda egallab borish va o'z ustida tinimsiz ishlash;

2) Musiqiy ijroni talab darajasida amalga oshirishni ta'minlash maqsadida cholg'u sozida (yoki xonandalik bo'yicha) muntazam, har kuni reja asosida mashq qilish, bunda rivojlantiruvchi gamma va etyudlar, murakkab cholg'u asarlaridan fragmentlar ijro etib borish, xor yoki ashulashilar ansambli bilan ishlash malakalarini oshirish maqsadida vokal-xor mashqlari, vokalizlar, turli asarlar, ijro repertuaridan asarlar parchalarini yoki to'liq holda solfedjio qilib kuylash, takrorlash, mustahkamlash;

3) Bo'lajak musiqa o'qituvchilarda innovatsion texnika va pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikma, malakasi hamda kompyuter dasturlaridan foydalanib slaydalar asosida dars va mashg'ulotlarni tashkil etishga o'rgatishning muhimligi. Musiqa darslari ushun taqdimot materiallari tayyorlashda, metod va pedagogik texnologiyalardan foydalanish, bolalarning yosh xususiyatlarni hisobga olish, dars va mashg'ulotlarni sifat va samaradorligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi;

4) Musiqa darslarini musiqiy faoliyat turlari (musiqa tinglash, jamoa bo'lib kuylash, musiqa savodxonligi) asosida loyihalash va darslarni tashkil etishda bo'lajak musiqa o'qituvchilarida ijodiy qobiliyatlarning shakllanganligi va rivojlanganligi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki ko'pchilik musiqa o'qituvchilari vokal ijroda kuchli mahoratga, cholg'u ijrochiligida kuchli texnikaga ega ammo o'quvchiga yetarli darajada yetkazib berishda ayrim muammolar kelib chiqadi. Bunda notalarni sanab chalish bilim ko'nikmasining yetarli emasligi. Ba'zi o'qituvchilar musiqa nazariyasi yoki metodikasi yoki tarixini yaxshi biladi o'quvchilarga musiqa haqida umumiy tushunchalarni yetarli darajada beradi, ammo ularning ijroshilik ko'nikma malakasida (milliy bezak berish yoki qo'l texnikasida) kamchilik bo'lishi mumkin. Bundan tashqari jamoa bo'lib kuylash faoliyatida talabalar darslikda berilgan asarni o'rganishlari va o'quvchilar jamoasiga o'rgatishlari lozim bo'ladi. Bunday holarda o'qituvchi qo'shiq o'rgatish bilan birga cholg'u asbobda jo'r bo'lib asarni ham chalib, ham aytib o'rgatishi, nota cho'zimlarini hisobga olib, dastlab, qo'shiq so'zlarini bo'g'inlarga bo'lib o'rgatish maqsadga muvofiq. Bu kabi hollarda o'qituvchidan bir vaqtning o'zida ham qo'shiq ijroshiligi va cholg'u asbobini chala olish imkoniyatga ega bo'lish hamda nota savodxonligi ham talab qilinadi. Bo'lajak o'qituvchilar bunga tayyormi? Muammo nimada? Muammo shundaki, ko'pchilik o'qituvchilarda o'zlaridagi bor ko'nikma va malakani muntazam oshirib borishmaydi yoki ijro texnikasi haqidagi bilimlarni o'rganuvchilarga yetkazib berish mahorati yetishmaydi. Shu o'rinda, amerialik psixolog olim Richard Bendlerning fikrini keltirish maqsadga muvofiq. "O'qituvchi o'z fani sohasi bo'yicha keng va chuqur bilimga (kompetensiyaga) ega bo'lishi mumkin, ammo ular shu bilimlarga qanday erishganliklari va uni boshqalarga o'rgatish haqida juda kam bilishadi". Darhaqiqat, musiqa o'qituvshisi savodli musiqachi bo'lish bilan birga, pedagogik bilim, ko'nikma va makalarni egallagan, o'z pedagogik texnikasiga ega, kasbiy faoliyatida har tomonlama ijodkor shaxs bo'lmog'i lozim. Ijodiy qobiliyatlarning shakllanganligi o'qituvshi faoliyatida ayrim pedagogik muammoli vaziyatlarni ijobiy hal etishda muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarda ijodiy qobiyatlarni shakllantirishning o'ziga xos jihati ularning kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi. Musiqa o'qituvchisi tasavvuri va badiiy tafakkuri rivojlangan, ma'naviy madaniyatga boy ijodkor bo'lishi kerak. U badiiy-pedagogik muloqot san'atini yaxshi biladigan, odamlarga xayrihoh qiziquvchan, aqlli, bilimli zamonaviy inson bo'lishi kerak. Musiqa o'qituvchisi milliy va jahon musiqa madaniyati tashuvchisi va targ'ibotchisidir.

Musiqa darslarini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va tashkil etish musiqa o'qituvchisidan ijodiy yondoshishni, kasbiy tajribaning faol namoyon bo'lishini talab qiladi.

Musiqiy san'atning ijodiy tabiati, ayniqsa, musiqa o'qituvchisi ijodida katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Bular, musiqa asaridagi kompozitorning g'oyasi, badiiy qiyofasi uning mazmunini anglash asosida izohlashda, musiqa o'qituvchisining musiqiy eshitish qobiliyatlari, musiqiy tajribasi va badiiy ifoda vositalarini anglab yetishi va ulardan samarali foydalanishida juda muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, san'at sohasidagi ijodiy faoliyat insondan yuksak tuyg'u, tafakkur boyligini talab qiladi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida ijodiy qobiliyatini shakllantirish jarayoni musiqa ta'limi yo'nalishida o'qitiladigan "Musiqa o'qitish metodikasi", "Maktab repertuaridan kuy va qo'shiqlar", "Musiqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash", "Cholg'u ijroshiligi" va boshqa mutaxassislik fanlarini o'qitishning mazmunida mujassamlashgan va amaliy mashg'ulotlarda amalga oshirish imkonini beradi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, kelajakda o'z faoliyatlarini rivojlantirish ushun quyidagi qoidalarga tayanishi lozim:

- o'quv jarayonini shunday tashkil etish lozimki, bunda talaba faol harakat qilishi, mustaqil izlanishi, yangi bilimlarni o'zi kashf etishi va muammoli xarakterdagi masalalarni yechish ushun sharoit izlash;
- talabalarga bir xil o'qitish usullari va bir turdagi ma'lumotlarni berishdan voz kechish;
- o'rgatilayotgan fanga nisbatan qiziqishning namoyon bo'lishi ushun ayni shu fan talabaning o'zi ushun qanshalik ahamiyatli va muhim ekanligini bilish.

Bo'lajak musiqa o'qituvshilarida musiqiy-ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishda innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash va unga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirishda talabalarni har bir fanni o'qitishda pedagogik texnologiyalarni qo'llay olish mahoratlarini egallab borishlariga o'rgatish zarur. Masalan, dirijyorlik mashg'ulotlari jarayonida "Talaba treningi", "Men dirijyor"; Musiqa nazariyasi fanini o'qitishda "Aqliy hujum", "Skarabey", "Bahs - munozara", "Muloqot; Xor va xorshunoslik asoslari mashg'ulotlarida "Kishik guruhlarda ishlash", "Differensial guruhlarga bo'lish"; Musiqa tarixi fanini o'qitishda "Aqliy hujum", "Klaster" "Muammoli vaziyat", "Viktorina darsi", "Savol - javob"; Cholg'u ijroshiligi fanini o'qitishda "Individual ishlash", "Kuyni

davom ettir", "Musiqa ijod etib", "Konkurs darslar", "O'zaro tahlil" Musiqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash, Musiqa o'qitish metodikasi, Musiqa o'qitishda innovatsion texnologiyalar fanlarida "Aqliy hujum", "besh minutlik esse", "o'zaro tahlil", "Rolli o'yin" "Klaster", "Idrok xaritasi" "Venn diogramma", "Muammoli vaziyatlar" "Rolli o'yinlar", Guruhlarda ishlash", "Hamkorlikda o'qitish" "Dars konsert", "Kishik guruhlarda ishlash", "SWOD-tahlil hamkorli pedagogik texnologiyasi", "Assisment texnologiyasi" kabi innovatsion pedagogik texnologiyalarini va metodlarni qo'llash va talabalarni bunday faoliyatga tayyorlab borish muhim jihat sanaladi.

Dars, o'quvchi-talabalarning tarbiyalashning uzluksiz jarayonidagi muayyan bir bosqich hisoblanadi. O'z navbatida ularni tarbiyaviy vazifalari musiqa o'quv ishini tashkil etishga va uning metodikasiga jiddiy ta'sir o'tkazadi. Masalan: talabalarda bilim olish faoliyatini shakllantirish, darsda ijrochilik mahoratini oshiruvchi torshiriqlarini, ijodkorlikka yo'naltiruvshi vositalarni mustaqil ravishda ishlashning har - xil turlariga ko'proq e'tibor berilishini taqozo etadi. Musiqa darsining o'ziga xos tomoni shundan iboratki, darsda musiqa ta'limi vazifalaridan tashqari, badiiy ijodkorlik vazifalari ham qo'yiladi. Ijodkorlik-o'quvchi-talabalarning xotirasini faollashtiradi, fikrlashni, kuzatuvchanlikni, maqsaga intilishni rivojlantiradi [5:43].

Hozirgi zamonda shaxsni ijodiy shakllantirish muammosi o'rta va oliy ta'limning rivojlanish bosqichida muhim masalalardandir. Jamiyatda musiqiy ta'lim – tarbiyaning sifati va samaradorligini oshirish, bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarning nafaqat muttaxassis sifatida tayyor bo'lishi bilan, balki, professional pedagogik ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, ijodiy rivojlanishi bilan ham bog'liq.

Bugungi kunda rivojlanish sur'ati keskin oshib, o'quvchilarini ortib borayotgan talablariga mos kadrlarni tayyorlashda, yuqorida keltirilgan kasbiy tayyorgarlik bosqishlarni Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish jarayonidan shakllantirib borishni nazarda tutadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. (23.09.2020) // O'RQ-637-son Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 46-modda. Pedagog xodimlarning majburiyatlari.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: — O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T. "O'zbekiston", – 2017.
4. Qodirov R. "Musiqa pedagogikasi". T., - 2013. 164 b.
5. Karimova D. Musiqa o'qitishda innovatsion texnologiyalar. Darslik T. 2012. 210 b.
6. Davronova G.M. "Musiqa o'qitish metodikasi" – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. 161 b.
7. Davronova G.M. "Musiqa o'qitish texnologiyalari va loyihalash" - T. 2019. 166 b.
8. Yo'ldoshev I.A. Ta'limda zamonaviy texnik vosita va texnologiyalar . Monografiya – T.: "Fan va texnologiya" 2015. 172 b.
9. Norpo'latova X. Zamonaviy pedagogikada ijod va ijodiy qobiliyat masalalari. // "MADANIYaT VA TA'LIM: DAVR MULOQOTI" // ilmiy-amaliy anjumani. Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2015. - 856 b.

REZYUME. Ushbu maqolad bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini zamon talablari darajasida kasbiy faoliyatga tayyorlashd ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning muhim pedagogik, metodik jihatlari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье выделены важные педагогико-методические аспекты формирования творческих способностей при подготовке будущих педагогов музыкального образования к профессиональной деятельности на уровне современных требований.

SUMMARY. In this article, the important pedagogical and methodical aspects of the formation of creative abilities are highlighted in the preparation of future music education teachers for professional activities at the level of modern requirements.

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINI XOR DIRIJORLIGI FAOLIYATIGA TAYYORLASH MUAMMOLARI

J.A.Xodjayev – *dotsent*

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Tayanch so'zlar: dirijorlik san'ati, dirijor, dirijorlik fani, oliy ta'lim, maktab musiqa ta'limi, musiqa o'qituvchisining pedagogik faoliyati, bo'lajak musiqa o'qituvchisi, musiqa san'ati.

Ключевые слова: дирижерское искусство, дирижер, дирижерская наука, высшее образование, школьное музыкальное образование, педагогическая деятельность учителя музыки, будущий учитель музыки, музыкальное искусство.

Key words: conducting art, conductor, conducting science, higher education, school music education, pedagogical activity of a music teacher, future music teacher, musical art.

Ma'lumki o'zbek qo'shiqchilik madaniyati o'zining rivojlanish an'analariga ko'ra asosan monodik (bir ovozli) o'zakda shakllanib kelgan. Tabiiyki, o'lkamizga Yevropa musiqa janrlari va ko'p ovozlilikka asoslangan shakllarni kirib kelishi natijasida o'zbek musiqasida ham bu janrlarni va ko'p ovozlilikni tadbiq etilishi jahon xalqlari musiqa madaniyatidagi o'zaro bir-birini boyitish jarayonini natijasi sifatida ijobiy ahamiyat kasb etdi.

Musiqiy janr va shakllar, xususan, xor, orkestr, musiqali drama, simfoniya, oratoriya, operalarni paydo bo'lishi jahon xalqlarining zamonaviy musiqa madaniyatiga keng ravishda kirib borgan bu san'at turlarini bizning mamlakatimizda ham milliy musiqamizni o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq o'zlashtirilishiga erishildi.

Ko'p ovozli musiqa janri havaskorlik, professional jamoalar ijrosi bilan cheklanmasdan o'quv yurtlarida musiqa maktablari, o'rta umumta'lim maktablari musiqa amaliyotiga ham tadbiq etildi. Maktablar, o'rta maxsus bilim yurtlari, oliy ta'lim (musiqa ta'limi ixtisosliklari bo'lgan) tizimida xor ijrochiligi o'quv rejalariga kiritildi va fan sifatida o'qitila boshlandi. Xor ijrochiligi ommaviy qo'shiqchilik san'ati sifatida maktab musiqa darslarida yetakchi faoliyatga aylandi. Bu esa o'z navbatida umumta'lim maktablari uchun maxsus musiqa o'qituvchilari tayyorlashni yo'lga qo'yilishiga olib keldi [4].

Oliy pedagogik ta'limda musiqa o'qituvchilarini maktab musiqa o'qituvchisi amaliy faoliyatiga tayyorlash musiqa san'atining bir necha yo'nalishlari bo'yicha bo'lgusi kadrlarda zarur bilim, ko'nikma, malakalarini egallashlarini taqazo etadi. Bir soatlik dars jarayonidagi musiqa mashg'uloti o'qituvchidan musiqa nazariyasi, tarixi,

solfedjio, vokal ijrochiligi, cholg'u ijrochligi, dirijorlik va xor bilan ishlash bo'yicha malakaviy tayyorgarlikni talab qiladi. Tabiyki, bu san'at yo'nalishlari bo'yicha yitarli darajada zarur nazariy va amaliy (cholg'u asbobida chalish, dirijorlik qilish, vokal – xor malakalari xor bilan ishlash) bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari bir xil darajada bo'lmaydi.

Oliy o'quv yurtlari "musuqa talimi" yo'nalishi o'quv rejasida "xor va xorshunoslik asoslari va xor-dirijorligi" o'quv predmetlari aynan talabalarni xor dirijorligi faoliyatiga (yani xor raxbari, xor jamoasi bilan ishlay oladigan) tayyorlash maqsadini ko'zda tatgan bo'lsa-da, aytaylik "xor va xorshunoslik asoslari" fani bo'yicha o'quv amaliyotlari asosan fan dasturi bo'yicha asarlar kuylash, vokal-xor malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon bilan cheklanib, bu jarayonda talabalarni musiqiy ravishda xor jamoasi bilan ishlash (xorga asar o'rgatish, xorga dirijorlik qilish), xususan bizning tadqiqotimiz muammosiga tegishli bo'lgan asarlar bilan ishlashi uchun imkoniyat, vaqt, pedagogik shart sharoitlar yaratilgan. Vaholanki talabalarning xor bo'lib kuylash, vokal xor malakalarini egallashlari bilan xor jamoasi bilan ishlash bo'yicha amaliy ko'nikma va malaka, ma'lum tayyorgarlikka ega bo'lishlari muayyan pedagogik talab va mezonlar asosida ish yuritishni taqazo etadi. Xuddi shuningdek "dirijorlik" mashg'ulotlari jarayonida talaba bir yil davomida 6, 8ta asarda (shundan 2tasi "jo'rsiz", "a'kapella" bo'lishi mumkin) dirijorlik qilishni o'rganadi. Dirijorlik qilish davomida asarni partiturasini, ovoz partiyalarini fortepianoda chalishni, ularni ovoz yo'li (melodiyasi) yoddan kuylash, nazariy jihatdan tahlil qilish kabi bilim va malakalarni ham o'zlashtirishadi va tabiiyki bularning hammasi ham talabani xor dirijorligi faoliyatiga tayyorlashda o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin bu jarayonni ham jiddiy e'tiborga molik "kamchilik"lari shundan iboratki, hozirgi vaqtda "dirijorlik" mashg'ulotlari "yakka tartibda" emas balki, guruh holida (5-6 talabadan iborat) qo'yilmoqda va bu o'z navbatida ushbu fanni o'qitilishida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda[1]. Jumldan:

-bir guruhda o'qiyotgan talabalarni musiqiy mashg'ulotlari (kimdir musiqa maktabida o'qigan, kimdir san'at kollejida, kimdir pedagogika kollejlarini musiqa bo'limida, kimdir umumta'lim maktablarini bitirib o'qishga kirgan) hamda musiqiy qobiliyatlari (musiqiy eshituvi, amaliy ijrochiligi, ovoz imkoniyatlari va hokazo) turlicha bo'lganliklari uchun ular uchun alohida- alohida asar berib ishlash imkoniyatini yo'qligi;

-ma'lumki musiqa pedagogikasi va metodikasi dirijorlik sinfi mashg'ulotlarida har bir talabani musiqiy ma'lumoti, qobiliyati, qiziqishi, tayyorgarlik darajasiga qarab asar tanlash va individual talablar qo'yish lozimligini uqtiradi. Guruh holidagi mashg'ulotlarda esa tabiiyki bunday ish tutib bo'lmaydi. Natijada bunday holat nisbatan yuqori malaka, qobiliyat, bilimga ega bo'lgan talaba o'z darajasidan past asar bilan, ishlashga, aksincha muhim bo'lmagan, bilimi qobilyati nisbatan past bo'lgan talabani asarni yetarli darajada o'zlashtira olmasligiga olib keladi.

-dirijorlik darsida ham asosiy talabani berilgan asarlarni dirijorlik qilish tamoyillariga ko'ra o'zlashtirishlariga qaratiladi. Talaba bu mashg'ulotlarda turli o'lchov, janr,turli xor turlariga yozilgan turli darajadagi asarlarga shu jumladan jo'rsiz (a' kapella) asarlarga ham dirijorlik qiladi. (a' kapella asarni to'liq fortepianoda chaladi, ovoz partiyalarini yod oladi, asarni nazariy tahlil qiladi va hokazo). Afsuski bular ham talabani jo'rsiz yoki har qanday xor asari bilan ishlash bo'yicha yetarli darajada amaliy ko'nikma va malakalarini egallashlari uchun kerakli darajadagi imkoniyatni beraolmaydi.

- va nihoyat xor asarini kuylash, xor asariga dirijorlik qilish bilan xor asari bilan ishlashning (ya'ni xor jamoasiga, aytaylik bolalar xoriga, maktab musiqa darsida xor jamoasiga) o'ziga xos farqli va e'tibor talab jihatlari mavjud. Xor bilan ishlashda xor rahbarining asarni mustaqil o'rganish, partiturani, vokal partiyalarni yod olish, dirijorlik sxemalarini mukammal o'zlashtirishi, asar xarakteri, tempi, o'lchovi, lad- tonalligi, dinamikasi, xorni boshqarishga ruhiy va amaliy tayyor bo'lishi, o'ziga ishonchi, xor jamoasining xususiy va umumiy ansambl sadosini eshita bilishi, bu kompanentlar asosan amaliy ishlash jarayonida asta-sekinlik bilan shakllanadigan jihatlardir.

Ushbu muammolarni ta'kidlash barobarida yana shu jihatlarga ham to'xtalib o'tishni, ya'ni jo'rsiz xor ijrochiliginining o'ziga xos murakkablik va ijrochilik bilan amaliy xususiyatlari haqida o'z fikr-mulohazalarimizni bildirib o'tishni lozim topdik. Xorshunoslik fanining hamda xor ijrochiligi bo'yicha ulkan yutuqlarga erishgan xor-dirijorlari va xor rahbarlarining uqtirishicha har qanday xor jamoasi bilan ishlash (xor jamoasiga xor o'rgatish yoki xor jamoasini xor bo'lib qo'shiq kuylashga o'rgatish) malakalarini egallashlarida xor rahbarining (maktabda musiqa o'qituvchisining) eng birinchi navbatda ko'p ovozli asar bilan ishlash, ko'p ovozli xor ijrosini yo'lga qo'yish, boshqarish, ishtirokchilarni ko'p ovozli kuylashga o'rgatish borasidagi bilim, malakalari va orttirgan tajribalari asosiy rol o'ynaydi. Ko'p ovozlilikni his etish, ijro paytida ovoz ohang yo'li, har bir partiyani yagona tonallikka sozlanishi, ansamblikni hosil qilishi (garmonik, milodik, temp) sof intonatsiya, aniq va toza diksiya, vokal-tovush hosil qilish, uni yo'llash, legato kuylash, stakatto, popligato, morkato kuylash, dirijorlik ishoralarini tushunib asar xarakterini ovozda ifoda etib kuylash kabi elementlar asosan ko'p ovozli kuylash yoki ko'p ovozli asar bilan ishlash jarayonida shakllanib boradi. Bunday ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan xor rahbari "jo'rsiz" (a' kapella) bilan ham qiynalmasdan ishlab keta oladi, ya'ni jo'rsiz asarlarni xor jamoasiga o'rgata oladi [3]. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini xor bilan ishlash, xususan jo'rsiz asarlar bilan ishlash amaliyotiga tayyorlashda eng avvalo ularda ko'p ovozli kuylash, ko'p ovozli asarlarga dirijorlik qilish va amaliyotda xor jamoasiga o'rgatishlarni shakllantirishning dastlabki bosqichida talabalarni o'zbek xalq qo'shiqchilik san'atidagi ko'pchilik bo'lib aytiladigan qo'shiqchilik an'analari bilan tanishtirib borish yaxshi natija beradi. Shundan so'ng bolalar xalq qo'shiqlari, bolalar uchun yozilgan kompazitorlarning kichik hajmli asarlarini o'rganish, xalq qo'shiqlarining band (yakkaxon ashulachi tomonidan kuylanishi), naqorat(ko'pchilikning jo'r bo'lib kuylashi)li namunalari yoki qarsak jo'rligida (cholg'u jo'rligisiz) aytiladigan namunalarini eshitish ulardan ko'p ovozlilik elementlarini idrok etishlariga erishish muhim qadamlardan hisoblanadi.

Maktabda musiqa tarbiyasiga oid erishilgan ilg'or nazari va amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, xor bo'lib kuylashga o'rgatishda o'quvchi-yoshlarning ko'p ovozli kuylash malakalarini shakllantirish ishlarini aslo kechiktirmaslik zarur. Asardagi ikki va undan ziyod ovoz uning murakkabligini ko'rsatmaydi. Zotan bir ovozli kuylarning ijrosi, ikki-uchovozlikka nisbatan ham ancha murakkab bo'lishi mumkin.

Xor so'zi qadimgi grek tilidan "xoros" so'zidan olingan bo'lib, u "yig'ilish", "majlis", "to'da" ma'nolarini anglatadi. Vaqt o'tishi bilan jamoa bo'lib kuylovchilarni ham xor jamoasi, xorda kuylashni – xor ijrochiligi deb atash odat tusiga kirib kelgan.

O'zbekistonda xor san'ati asosan o'tgan asr birinchi yarmidan shakllandi. Hozirgi kunda bu san'at umummusiqa madaniyatimizning eng muhim bo'lagi hisoblanadi. Respublikamizda juda ko'plab professional, havaskorlik o'quv xorlari mavjud. Umumta'lim maktablaridagi musiqa darslarining jamoa bo'lib qo'shiq kuylash faoliyati xor san'ati ijrochiligiga asoslangan bo'lib ushbu san'at turini boshlang'ich asosi bo'lib xizmat qiladi. Maktab

o'quvchilarini pedagogik ta'lim jarayonida ushbu faoliyatga tayyorlash bugungi kundagi musiqiy ta'lim-tarbiya oldida turgan eng muhim vazifalardandir [5].

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ko'pchilik mutaxassis xor-dirijorlari, pedagog-o'qituvchilarning ta'kidlashlaricha xor bilan ishlashga, shu jumladan bizning tadqiqotimizning bosh muammosi bo'lgan jo'rsiz kuylashga tayyorlash o'ta murakkab va yuqori malakaviy tayyorgarlikni talab qiladi [2]. Bu jarayonda eng muhim quyidagi nazariy va amaliy bilim va malakalar hal qiluvchi rol o'ynaydi:

-xor ijrochiligini tashkiliy tuzulish xususiyatlari haqidagi bilimlarni egallash;

-xor partiyalari ovoz xarakteristikasi (ovoz turlari, diapozonlari) haqidagi bilimlarga ega bo'lish;

-xor turlari, ularning ko'rinishi va ularning tarkibi haqida bilish;

-xor ijrosining asosiy badiiy-ifoda vositalari (jumlasi, dinamikasi, sezura, nafas, tembr, artikulyatsiya, ritm, temp, fermato, o'lchov kabilar) yaxshi bilish, ularni xor ijrochiligi amaliyotida qo'llay olish malakalariga ega bo'lish;

-xorning muhim elementlari-ansambllik, yaxshi sozga erishish, so'z talaffuzi, diksiya, ohang talaffuzi (intonatsiya), to'g'ri nafas olish, vokal tovush barpo qilish bo'yicha yetarli tayyorgarlik va malakasiga ega bo'lish;

-nafas, nafas olish turlari, nafasni ishlatish (zanjir usuli, og'izni yumib va ochib kuylash) holatlari bilan ishlay olish;

-ohangni (tovushni) yo'llash (legato, stakato, markato) usullaridan kuylash qoidalarini, yo'llarini yaxshi egallash;

-xor ishtirokchilarining ovozlarini qo'shiq aytishga tayyorlash (ovoz sozlash mashqlari orqali xonandalar ovozini qo'shiq aytish) holatiga keltirish;

-xor ansambli turlarini (xususiy ansambi, umumiy ansambl, to'liq ansambllikni ta'minlovchi gorizantal intonatsiya), ovoz xarakteri (tembri), ovoz kuchining dinamikasi, tovushlar cho'zimi (ritm), harakat birligi (agogiko), talaffuz birligi (diksiya-orfoepiya) va boshqalarni xor ijrosidagi o'rni, ahamiyati va qo'llanish holatlarini yaxshi bilish;

-xor asari fakturasining tuzilishi bilan bog'liq ansambl turlari- unison va oktavali unison ansambli, akkord-garmonik asarlardagi xor ansambli, polifonik asarlardagi xor ansambli, xor va ansambl o'rtasidagi ansambl, xor, jo'r va solist o'rtasidagi ansambllik, ularni xarakterli jihatlari, xor ijrochiligi amaliyotidagi o'rni va ahamiyati haqidagi zarur bilim, tushuncha, malakalarga ega bo'lish;

-xor sozi, turlari (melodik (gorizantal)va garmonik (vertikal)) haqida soz ustida ishlash uslublari bo'yicha kerakli bilim va malakalarga ega bo'lish;

-xorga ton berish (yuqori pozitsiyada kuylash, interval va akkordlarni to'g'ri talaffuz qilish) asarni o'z tonligida (sozni ko'tarmay yoki pasaytirmay) ijro qilish uchun xorni jo'rsiz uslubda mahoratli kuylay olish malakalarini hosil qilish uslubida ishlash tajribasini egallash, xorga ton berish yo'llarini mukammal egallash;

Xorga ton berish o'ta masuliyatli ish bo'lib, ziyraklik, maxsus tayyorgarlikni talab qiladi. Aytib o'tganimizdek buning uchun xor rahbari yoki musiqa o'qituvchisi xorga ton berish yo'llarini puxta egallagan bo'lishi lozim. Ba'zida turli asarlarni boshlashdan oldin ham xorga ton beriladi. Masalan ijro qilinadigan turli asar hechqanday muqaddimasiz bo'lib, xor va musiqa ijroni birga boshlashi mumkin. Xor ishtirokchilari xonandalar asar tonligiga sozlanmagani uchun ular kerak bo'lgan tovushlarga (asar boshlanadigan pardaga) darhol tusha olmaydilar. Shunday paytlarda jo'rli xorga ton beriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, musiqiy ta'lim-tarbiya mazmunida xor bo'lib qo'shiq kuylash eng qulay, ommaviy ya'ni o'quvchilarni qamrab oluvchi san'at turi bo'lib xor ijrosi uchun yozilgan asarlar yoshlarni ma'naviy, ma'rifiy estetik ruhda tarbiyalashda kuchli ta'sirchanlik kasb etadi. Bugungi kunda umumta'lim maktab musiqa o'qituvchilarini xor dirijorligiga tayyorlash dolzarb vazifalardan bo'lib, maktab musiqa darslarini yuqori sifat va samaradorlik kasb etishida bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini xor ijrochiligi amaliy faoliyatiga tayyorgarlik darajasi yetakchi omil hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Dirijorlik. Namunaviy fan dasturi. -S.: O va O'MTV, 2022y.
2. Azimov K. O'zbekiston dirijorlari. –T.: G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 2011yil.
3. Qudratov I. Talabalar va bolalar ashula va xor jamoalarini tashkil qilish va ishlash metodikasi. - Toshkent, Fan va texnologiyalar nashriyoti 2006y. 126 b
4. Ro'ziyev Sh. Xorshunoslik. –T.: O'qituvchi, 1987y.
5. Toshmatov E. Dirijorlik. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008y.

REZYUME. Oliy pedagogik ta'limning musiqa ixtisosligidagi amaliy ijrochilik bilan bog'liq fanlar o'quv mashg'ulotlarining o'ziga xos muhim xususiyatlaridan biri shundaki, darslarda talabalarni fan bo'yicha maxsus kompetensiyalarni egallashga yo'naltirilgan vazifalardan tashqari ularni amaliy faoliyatda mustaqil qo'llay olish, ya'ni ijodiy ijrochilik malakalarini egallashlari ham talab etiladi. Bu ayniqsa talabalarni maktab faoliyatiga eng muhim bo'lgan xor ijrochiligiga ko'proq taalluqlidir.

РЕЗЮМЕ. Одной из уникальных важных особенностей учебных занятий по предметам, связанным с практическим исполнением музыкальной специальности высшего педагогического образования, является то, что помимо заданий, направленных на приобретение специальных компетенций по предмету, студентов учат самостоятельно применять их в практической деятельности, требуется также приобретение творческих исполнительских навыков. Особенно это касается учащихся хорового исполнительства, которое является важнейшей частью школьной деятельности

SUMMARY. One of the unique important features of the training sessions of the subjects related to practical performance in the music specialty of the higher pedagogical education is that in addition to the tasks aimed at acquiring special competences in the subject, students are taught to independently apply them in practical activities. it is also required to acquire creative performance skills. This is especially true for students in choir performance, which is the most important part of the school's activities

ТАЛАБАЛАРДА ПОЗИТИВ ДУНЁҚАРАШНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ

Ш.Э.Якубова – *мустақил тадқиқодчи*

Урганч давлат университети

Таянч сўзлар: Алишер Навоий, Захриддин Муҳаммад Бобур, Жалолиддин Румий, бунёдкорлик, шахслараро ижобий муносабат, тажриба, фидоийлик, ватанпарварлик, дўстлик, толерантлик, маънавий олам.

Ключевые слова: Алишер Навои, Захриддин Мухаммад Бабур, Джалалуддин Руми, творчество, позитивные межличностные отношения, опыт, преданность, патриотизм, дружба, толерантность, духовный мир.

Key words: Alisher Navoi, Zahriddin Muhammad Babur, Jalaluddin Rumi, creativity, positive interpersonal relationships, experience, devotion, patriotism, friendship, tolerance, spiritual world.

Талабаларнинг билиш имкониятларини кенгайтириш орқали уларда позитив дунёқарашни ривожлантириш бугунги куннинг долзарб масалалар сирасига киради. Мутафаккир аждодларимиз ўз педагогик таълимотларида таълим олувчиларнинг билиш имкониятларини кенгайтириш орқали уларнинг дунёқарашини ривожлантиришига алохида эътибор қаратганлар. Шу мақсадда шахснинг мантиқий фикрлаш фаолиятини ривожлантиришга бўлган ёндашувлар кўлами кенгайтирилган. Ўрта Осиёда яшаб фаолият кўрсатган алломалар мадрасаларда тахсил олаётган талабаларда билимларни ўзлаштиришга рағбат уйғотиш орқали уларнинг дунёқарашини риожлантиришга харакат қилганлар. Ушбу меросдан фойдаланган холда олий таълим муассасаларда талабаларнинг позитив дунёқарашини шакллантириш учун етарлича назарий асослар ва педагогик шарт-шароитлар мавжуд.

Бунинг учун олий таълим мазмунига мутафаккир аждодларимизнинг шахс дунёқарашини ривожлантиришга хизмат киладиган ғоялар ва маданий педагогик моделларни сингдириш зарурияти вужудга келмокда. Олий педагогик таълим мазмунида мутафаккир аждодларимиз томонидан яратилган педагогик таълимотларни сингдириш натижасида талабаларда позитив дунёқарашни ривожлантиршга хизмат киладиган дидактик модулларни яратиш имокнияти вужудга келади. Натижада талабалар позитив дунёкараш ва фаол фукаролик позициясига эга бўлган мутахассис сифатида фаолият кўрсатишга муваффак бўладилар.

Позитив дунёкарашга эга бўлган талабаларнинг мухим шахсий сифатларидан бири ижтимоий фаолликдир. Олий педагогик таълим жараёнида талабаларни шахслараро муносабатларга тайёрлаш ўзига хос педагогик жараёнда амалга оширилади. Бунинг натижасида бўлажак мутахассисларнинг позитив дунёкарашлари кенгайиб билимларни ўзлаштиришда фаоллик кўрсатишга муваффак бўладилар.

Олий педагогик таълим жараёнини талабанинг позитив дунёқарашини ривожлантириш нуктаи назардан ёндашган холда ташкил этишда дидактик воситалар мухим ахамият касб этади. Мазкур жараёнда талабалар истиқболдаги ижтимоий, касбий фаолияти учун алохида ахамиятга эга бўлган билимлар, илмий ахборотлар, амалий фаолият тажрибалари модул шаклида такдим этилади. Мазкур модуллар таркибида мутафаккир аждодларимизнинг педагогик таълимотларига алохида ўрин ажратиш назарда тутилиши керак. Чунки мазкур таълимотлар талабаларнинг касбий хамда маънавий соҳаларини ривожлантиришда алохида ахамиятга эга.

Уларнинг позитив дунёқараши мазкур таълимотлар ёрдамида касбий эътиқодга айланади. Аждодларимизнинг педагогик таълимотини такдим этиш натижасида талабаларнинг маънавий ахлоқий сифатлари, касбий билимлари, дунёқараши тизимли тарзда ривожланади. Олий педагогик таълим жараёнида талабаларга касбий билимлар ва маънавий сифатларни хосил қилувчи ахборотлар тизимли тарзда турли ўқув материаллари таркибида такдим этилади. Натижада талабаларда бир катор сифатлар ва дунёқарашнинг асосини такшил этувчи кўникмалар хосил бўлади.

Инсоннинг дунёкараши унинг атроф-мухитга ва одамларга бўлган муносабатини ифодалайди. Мазкур муносабатни эса касбий хамда маънавий-ахлоқий йўналишдаги билимлар вужудга келтиради. Талаба томонидан эгалланган кўникмалар касбий-ижтимоий характерга эга.

Аждодларимиз шахснинг дунёқарашини ривожлантириш учун тажрибалар ўтказиши, лойиҳалар устида ишлаши, мустакил билим олиши, эврестик изланишларни амалга ошириши, тадқиқотлар ўтказиши зарурлигини ўз педагогик таълимотларида алохида таъкидлаб ўтганлар ва педагогик фаолиятлари давомида шунга эътибор қаратганлар. Шахснинг дунёкарашини кенгайтириш педагогик жараённинг ўз ечимини кутаётган долзарб муаммолардан бири хисобланади.

Педагогика соҳасидаги тадкиқотларда шахснинг позитив дунёкарашини шакллантириш масаласига қуйидагича ёндашилган:

- шахснинг позитив дунёкараши унда ижтимоий фаолликни вужудга келтирувчи асосий восита сифатида талкин этилади;
- инсоннинг шахслараро муносабатга киришиши, жамиятдаги моддий-маънавий бойликларни кўпайтиришга интилиши, ўзининг ижодкорлигини намоён этиши позитив дунёқарашнинг асосий белгиси сифатида рўёбга чиқади.

Мутахассислар (А.В.Петровский) нинг таъкидлашича талаба мазкур ёндашувларнинг интеграциялашувини таъминловчи фаол ижтимоий субъект сифатида намоён бўлади. Инсоннинг ижтимоий фаоллиги унинг дунёкараши билан бевосита боғлик.

Педагогик энциклопедиясида шахснинг ижтимоий фаоллигига қуйидагича таъриф берилган: ижтимоий фаоллик – ижтимоий субъектларнинг ижтимоий сиёсий жараёнлардаги иштироки, мехнат хамда маданий-маърифий фаолиятининг кучайиши, конунда белгилаб кўйилган хукук ва бурчларни тўлиқ амалга оширишга интилиши; субъектнинг жамият хаётидаги онгли холда мустакил иштирок этиши, ижтимоий-маънавий соҳада вужудга келадиган муаммоларни ҳал этишга қаратилган харакати.

Ижтимоий фаолият шахснинг жамиятда ўз ўрнини топиши ва хулқ-атворини онгли равишда асосий шарти хисобланади. Ижтимоий фаоллик таълим олувчилар эгаллайдиган билимларнинг кўлами ва сифатига хам бевосита боғлик. Ижтимоий фаоллик шахснинг дунёкараши унга таъсир кўрсатадиган омиллар, шарт-шароитлар, конун-коидалар, хулқ-атвор, ижтимоий хамда ўқув фаолият мотивлари, шахснинг кизикишлари ва маданий йўналишларини ўзида мужассамлаштиради. Депозитив дунёкараш инсоннинг ички кечинмаларида ўз ифодасини топиб хатти-харакатлар мазмунини белгилайди.

Талабаларда позитив дунёкарашни шакллантириш максадида уларнинг мустакил билим олиш мотивларини ривожлантириш хам мухим ахамиятга эга. Позитив дунёкарашга эга бўлиш натижасида талабаларда фикрлаш фаоллиги вужудга келади. Бу эса ўз навбатида уларнинг мантиқий ва танқидий фикрлаш имкониятларини кенгайтиради.

Бу эса ўз навбатида талабаларда касбий билимларни эгаллашга нисбатан мотивацияни хосил килади. Бунда мотивициянинг мохияти талабаларда билимларни ўзлаштиришда фаолликни вужудга келтиришдан иборат. Талабаларда билиш фаоллигини шакллантиришда кутилган самарадорликка эришиш учун уларнинг хиссий билиш имкониятларини кенгайтириш талаб қилинади.

Позитив дунёкарашнинг кенгайиши натжасида талабаларда хосил бўладиган креативлик, кизикувчанлик, синчковлик, ўқув материалларни ўзлаштиришдаги фаоллик, уларнинг касбий ривожланиш траекториясини аниқ белгилаб олишларига кўмаклашади.

Мутафаккирларнинг таълимоти воситасида талабаларнинг позитив дунёкарашга эга бўлишлари натижасида уларнинг билиш харакатлари фаоллашади. Мутафаккирлар таълимоти асосида талабаларда позитив дунёқарашни шаклалантиришга йўналтириган

педагогик жараён ўзининг назарий тавсифи ва талқинига эга бўлиши лозим.

Шунга кўра талабаларнинг позитив дунёқарашларини мутафаккирлар мероси воситасида шакллантиришга йўналтириган педагогик тизимни назарий жиҳатдан асослаш максадга мувофик. Бундай позтив дунёқарашга эга бўлиш натижасида талабаларда ўз ўзини ривожлантириш имконияти кенгаяди.

Мутафаккирлар таълимоти воситасида талабаларнинг позитив дунёқарашини шакллантиришда муайян технологияларда фойдаланиш талаб килинади. Бунда технологиялар талабаларнинг касбий ижодий ривожланишларига йўналтирилганлиги билан алохида ахамиятга эга. Бундай дидактик бирликлар аждодларимизнинг педагогик фаолиятида устувор ўрин эгаллаган бўлиб шахс тараккиётини таъминлашга йўналтирилганлиги билан характерлидир. Бундай технологияларнинг натижада талабаларнинг позтив дунёкараши кенгайиб фаоллиги, ишчанлиги, ижтимоий маданий моделларни ўзлаштириш имконияти кенгаяди. Жумладан, Т.И.Шамова талабаларнинг фаоллигини таъминлашда кўйидагиларнинг муҳим ахамият касб этишини алохида таъкидлаб ўтган:

- таълим мазмунини белгиловчи ўкув блокларининг талабалар фаоллигини таъминлашда алохида ўрин эгаллаши;
- шахснинг дунёкараши билимларни фаол ўзлаштириш имконини бериши;
- талабаларнинг дунёкараши ва билиш фаоллигини таъминловчи билимлар уларнинг ривожланиш динамикасидан келиб чиккан холда боскичма боскич такдим этилиши кабилар.

Талабаларда позитив дунёкарашни шакллантиришда дидактик воситалар билан бир каторда уларнинг аждодларимиз томонидан яратилган бадиий асарлардаги кахрамонларнинг рухий олами, хис-туйғу ва кечинмаларини идрок этишлари хам муҳим ахамиятга эга. Талабаларда позитив дунёкарани шакллантиришда кўйидагилардан фойдаланиш лозим: бахс мунозаралар, мухокама, диалокка асосланган сухбатлар, маърузалар, хикоялар ва ривоятлар, талабаларнинг хиссий кечинмаларини намоён килувчи, уларнинг хиссий оламига таъсир кўрсатувчи вокеа, ходисалар баёни кабилар.

Талабаларда позитив дунёкарашни шакллантиришда ўкув машғулотлари билан бир каторда мустакил билим олиш жараёнлари хам алохида ўрин эгаллайди. Талабаларда хосил бўлган билим, кўникма, малакалар ва компетенциялар билан бир каторда уларнинг мавжуд билимлари ва ижтимоий тажрибаларини фаоллаштириш орқали позитив дунёкарашларини кенгайтириш мумкин. Бунинг учун талабалар ўкув материаллари устида ишлаш тажрибаси ва топшириқларни ечишга оид фаолият усулларини эгаллашларига хам алохида этибор каратилади. Талабалар билимларни ўзлаштиришга оид фаолият усулларини эгаллаш натижасида кўйидагиларга эришадилар: вокеа-ходисаларни тахлил килиш, ижобий ва салбий холатларини ўзаро киёслаш, натижаларни умумлаштириш, ўз карашларини оммалаштириш, ижобий вазиятларни бахолашга оид топшириқларни ечиш алгоритмларидан ўз ўринида фойдаланиш кабилар.

Хулоса. Мустакил билим олиш вазиятларида хам талабалар топшириқларни ечиш алгоритмларидан фойдаланишлари лозим. Талабаларда позитив дунёкарашни шакллантириш натижасида ўкув фаолиятига нисбатан мотивация вужудга келади. Бу эса уларнинг топшириқларни ечиш фаоллигини ошириб, мазкур харакатни амалга ошириш учун сарфланадиган вакт самарадорлигини таъминлаш имконини беради.

Олий таълим жараёнида талабаларда позитив дунёкарашининг шакллантирилишининг турли усул ва методларидан фойдаланиш имконияти мавжуд. Талабаларда позитив дунёкарашни шакллантириш учун ўқитишнинг самарали шакллари, усуллари ва методларидан фойдалиниш тавсия этилади. Бундай методлар сирасига талабаларни изланишга мантикий фикрлашга ундайдиган эвристик хамда ташкилий фаолиятли методларни кўллаш тавсия этилади. Талабаларда фикрий фаолликни вужудга келтирувчи вазиятларни ташкил этиш орқали уларнинг позитив дунёкарашини ривожлантириш имкониятларини кенгайтириш мумкин. Дидактик характердаги асарларни такдим этиш натижасида талабаларнинг маънавий олами кенгайтирилади. Бундай асарлар сирасига ёшларни бунёдкорликка ундовчи асарларни киритиш мумкин. Алишер Навоий, Захриддин Мухаммад Бобур, Жалолиддин Румий каби мутафаккирларнинг асарлари талабаларни бунёдкорликка ундаш имкониятига эга. Мазкур асарлар шахслараро ижобий муносабат тажрибасини хосил килиш орқали талаба-ёшларда фидоийлик, ватанпарварлик, дўстлик, толерантлик туйғусини ривожлантиришга хизмат килади. Талабалар бадиий асар кахрамонлари билан мулокотга киришиб уларнинг маънавий оламидан бахраманд бўладилар.

Бадиий асарлар устида ишлаш жараёнида муаммоли топшириклардан фойдалниш, талабаларни бунёдкорликка ундовчи вазиятларни лойихалаш, интернировка яъни сахналаштириш ёрдамида асарларни тўлик ўзлаштириш имконияти вужудга келади. Мазкур асарлар талабаларнинг дунёкарашини кенгайтириб, уларнинг мустакил фикрлаш имкониятларини кенгайтиради. Талабаларда позитив дунёкарашни кенгайтиришда тарихий педагогик тажрибалардан фойдаланиш алохида ахамиятга эга.

Интеллектуал жиҳатдан ривожланиш натижасида ўз-ўзини ривожлантириш компетенциясига эга бўладилар. Шунинг учун хам олий таълим муассасаларида талаба-ёшларларда позитив дунёкарашга хизмат киладиган таълим жараёнини ташкил этишга алохида эътибор каратиш талаб килинмокда. Бундай машғулотлар хар бир талабада позитив дунёкарашни шакллантиришга хизмат килиши, бунинг натижасида улар жамоа ютуклари учун масъулиятни хис килишлари, эгаллаган билимлари жамият тараккиётига хизмат килиши лозимлигини англаб етишлари керак. Талабаларда позитив дунёкарашни шакллантиришга йўналтирилган ўкув жараёнини ташкил этиш учун ўкув материалларининг мазмунига эътибор каратиш муҳим ахамиятга эга. Бу соҳада мутафаккир аждодларимиз улкан тажриба тўплашга муваффак бўлганлар. Улар панд-насихат йўли билан ёшларда позитив дунёқарашни шакллантириша эришганлар. Бунда,

- талабаларнинг маданий меросга нисбатан қизиқишларини ривожлантириш;
- талабаларда мантиқий фикрлаш кўникмаларини тизимли тарда таркиб топтириш;
- талабаларни жамоа манфаатлари йўлида ҳаракат қилишга одатлантириш;
- талабаларда тарихий воқелик асосида шахслараро ижобий муносабатларни таркиб топтириш;
- талабаларнинг ностандарт қабул қилишларига имконият яратиш;
- талабаларда ўз қарорлари учун масъулият ва жавобгарлик хиссини тарбиялаш;
- миллий ва умуминсоний қадриятларга амал қилиш тажрибасини шакллантириш кабилар муҳим ахамиятга эга.

Олий таълим муассасаларида талабаларда тизимли фикрлаш тажрибаси хосил қилинади. Ўқув жараёнида

миллий-маънавий қадриятлар ёрдамида талабаларда инсоний муносабатлар, ҳис-туйғулар, ҳамдардлик ҳисси ривожлантирилади. Таълим жараёнида талабалар аждодларимизнинг бой маънавий меросидан баҳраманд бўлишлари учун қулай педагогик шарт-шароитлар вужудга келтирилади. Талабалар ўзлаштирган қадриятларини ҳиссий жиҳатдан идрок этишлари, назарий қабул қилишлари ва рефлексилай олишлари муҳим аҳамиятга эга. Талабалардаги позитив дунёқараш атрофдагилар билан ўзаро муносабатга кириши натижасида кенгаяди. Бунинг натижасида талабалар орасида дўстона муносабатлар кўлами кенгаяди.

Адабиётлар

1. Malikova D.M. Improving student's expressive reading and artistic word performance skills // Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation; 32(3) ISSN 2651-4451 | e-ISSN 2651-446. PaGES:37656 – 37668 www.turkjphysiotherrehabil.org
2. Машарипова Н.Р. Ўқувчиларда маънавий сифатларни ривожлантиришнинг педагогик имкониятлари. Science and Innovation International scientific journal Volume 1 issue 6. Uif. 2022: 8.2 Issn: 2181- 3337.P.62-66. https://doi.org/10.5281/zenodo.7105342
3. Safarova R.G. Mutafakkir ajdodlarimiz merosi ta'lim oluvchilarni intellektual ma'naviy va madaniy jihatdan rivojlantirish manbai // Pedagogika.- Toshkent. 2022 yil 5-son. – B. 6-12

РЕЗЮМЕ. Ушбу мақолада Шарқ мутафаккирларининг педагогик таълимотлари асосида талабаларда позитивлик дунёқарашни таркиб топтиришнинг дидактик томонлари ёритиб берилган.

РЕЗЮМЕ. В данной статье описываются дидактические аспекты формирования положительного мировоззрения учащихся на основе педагогических учений восточных мыслителей.

SUMMARY. This article highlights the didactic aspects of creating a positive worldview in students based on the pedagogical teachings of Eastern thinkers.

Psixologiya

OILADA DASTLABKI ODOB QOIDALARINI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONANING O‘RNI

A.M.Ibragimova – *magistrant*
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogik instituti

Tayanch so‘zlar: oila, oilaviy munosabatlar, ota-ona va bola munosabati, oilaning jamiyatdagi o‘rni, bola tarbiyasida odob ahloq qoydalarining o‘rni

Ключевые слова: семья, семейные отношения, детско-родительские отношения, роль семьи в обществе, роль нравственности в воспитании ребенка

Key words: family, family relations, parent-child relations, the role of the family and society, the role of morality and the upbringing of the child

Kirish. Bugungi o‘z-o‘zini boshqarish, ya`ni mahallalar tizimida oila jamiyatning ijtimoiy poydevoridir. Shunga ko‘ra, jismoniy soo‘lom, ma`nan barkamol, axloqan pok va yuksak madaniyatli yosh avlodni voyaga etkazish oiladan boshlanadi. Oila hayotning asosiy maqsadi aholini qayta tiklash, bolalar tarbiyasidir. Bolalar tarbiyasining bosh maktabi esa ota-onaning o‘zaro munosabatidir. Mana shu oilaviy munosabat madaniyatning takomillashishi yosh avlodning moddiy olam, ijtimoiy hayot haqidagi tasavvurlari, nuqtai nazarlari, tushunchalari, dunyoqarashlari va sharqona odob-axloq qoidalari, ularga rioya etishning to‘o‘ri yo‘lini ko‘rsatadi. Yosh avlodning ma`naviy qiyofasi, ularning hatti-harakati, xulq-atvori dastlab oilaviy munosabat madaniyatida boshlanadi. Har bir inson, u katta va kichikligidan qat`i nazar, o‘zining his-tuyo‘usini, ichki tuo‘yonini, orzu-umidlarini munosabat jarayonida bayon etadi. Shuning uchun ham jamiyat taraqqiyoti, insonlarning yaxlit holda shakllanishi, ularning bir-birlari bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatida, hamkorligida, o‘zaro ta`sirida vujudga keladi.

Uzoq asrlardan buyon ajdodlarimiz oilaviy hayotni soo‘lom turmush tarzining asosiy qismi deb, oilaviy hayotning muqaddasligini e`tirof etib, oilada farzandlarni hayot gulshani deb, ularni baquvvat, aqlli, odob-andishali qilib o‘stirishga katta ahamiyat berishgan. Oila pokligi, ma`naviy madaniyati, uning islom shariati asosida shakllanishi, zo‘ravonlik asosiga qurilgan munosabatlarga yo‘l qo‘ymagan. Farzand tarbiyasi oilaning muqaddas vazifasi bo‘lib hisoblangan.

Bugungi kunda oila va oilaviy munosabatlar masalasi, eng dolzarb bo‘lib, prezidentimizning olib borayotgan dono siyosati natijasida oila institutini qayta qurish, milliy urf-odatlar negizidan kelib chiqib, oilaviy tendentsiyalarni vujudga keltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Oilada farzand tarbiyasida ota-onalar e`tiborning qaratilayotganligiga boo‘liq ekanligini nazarda tutib, biz maqolamizni “Oilada dastlabki odob qoidalarini shakllantirishda ota-onaning o‘rni” deb nomladik.

Asosiy qism. Oilada bolalarning ruhan va jismonan soo‘lom bo‘lib o‘sishiga oila muhitining ta`siri kattadir, chunki oilaviy muhit qanday bo‘lsa, bolalar xuddi shu muhit ta`sirida ulo‘ayadilar. Oila muhiti bolalarga ta`sir ko‘rsatish bilan birgalikda uni atrofidagi hayotga moslaydi. Jamiyatda esa bolalarni ruhan va jismonan soo‘lom qilib voyaga etkazish ota-onaning nafaqat shaxsiy ishi, balki, ijtimoiy burchi hamdir. Shunday ekan har bir ota-onaning burch va vazifasiga mas`uliyat bilan yondoshib, oilada har tomonlama soo‘lom turmush tarzini qaror toptirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, farovonligiga erishish bila bir qatorda, bilimli, aql-zakovatli, udduburon, zukko, ruhan va ma`naviy barkamol insonni voyaga etkazish, shuningdek, oila an`analari, kasb-kori, shajarasining davomiyoligini ta`minlash, farzandni bo‘sh vaqtini unumli o‘tkazishga erishish, giyohvandlik, maishiy nopoklik, axloqsizlik, nosoo‘lom e`tiqod, aqidaparastlik, xoinlik kabi ba`zi bir illatlarning paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik va boshqalar kiradi. Bizning mentalitetimizda farzandlar ota-onalariga o‘xshashga harakat qiladilar, ota-onalar esa o‘zlari bilib bilmasdan zo‘z xarakter va xususiyatlarini, orzu-havaslarini farzandlariga singdirib boradilar. Aynan ana shunday xarakter xususiyatlaridan biri bo‘lgan mehr-muruvvatlilik ota-onadan farzandlariga o‘tadi. Ayniqsa, o‘smirlik davridagi bolalarga ota-onaning mehribonligi, doimiy nazorati va do‘stona maslahati katta ahamiyatga ega. Ammo afsuski, ko‘pgina ota-onalar farzandini “bebosh” qilib qo‘ymaslik uchun bu ajoyib insoniy tuyo‘udan cho‘chiydilar. Ular bolaning tantiq, shaxsiyatparast bo‘lib qolishidan tashvishlanadilar. Lekin juda ko‘p salbiy xususiyatlar bola ota-onaning to‘o‘ri muruvvatidan, erkalashidan, e`tiboridan mahrum bo‘lgan sharoitlarda vujudga keladi. Shuning uchun ham bola o‘zining sevishlariga, o‘ziga o‘amxo‘rlik ko‘rsatishiga ishonch hosil qilishi ota-onaning muhim vazifasidir [1:54].

Oilaviy kelishmovchiliklar ko‘pgina biror bir muammo asosida kelib chiqishini inobatga olsak, ayrim oilaviy kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan ota-ona bilan o‘smir bolalr munosabatidagi milliy xususiyatlardan yana biri namoyon bo‘ladi. Nisbatan olib qaralganda oilaviy muamolar yuzasidan ota-onalar o‘z bolalari bilan deyarli fikrlashmaydilar, ba`zan fikr so‘raydiganlar qishloq oilalariga xosdir. Jinsga oid oladigan bo‘lsak, ota-onalarning bolalaridan fikr so‘rashi o‘o‘il bolalarga nisbatan qiz bolalarda ko‘proqni tashkil etadi. Ularga nisbatan qizlarning mavqelari yuqoriroq. Bu albatta, bir tomondan o‘smirlarga xos maksimalizm bo‘lib, qizlarning onalari bilan emotsional jihatdan yaqinligini ko‘rsatadi. Shuning uchun aynan qizlar oilada biror nizo chiqib qolsa, unga aralashib, uni to‘xtata olishlariga ishonadilar.

Inson kamolotining ko‘rinishlaridan biri-obro‘-e`tiborga ega bo‘lishdir. Obro‘ bir kun yoki bir yil mobaynida hosil bo‘ladigan jarayon emas. Obro‘ni inson hayot mazmunidagi faoliyati jarayonida asta-sekin shakllanib boradi. Ota-onaning oiladagi obro‘si tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Obro‘ oilaviy munosabatlar jarayonida shakllanadi.

Ma`naviy axloqiy xislatlarni, zamon ruhiga mos tushadigan fazilatlarni shakllantirishga qaratiladi. Mazkur toifadagi oila a`zolari davrasidagi suhbatlar, munozaralar, bahslar mulohazalar o‘zaro tenglik, hurmat ruhiga bo‘ysundiriladi. Oilaviy munosabatlarining ushbu ko‘rinishda turli yoshdagi, jinsdagi bolalarga maqsadga muvofiq tarbiyaviy ta`sir o‘tkazish imkoniyati mavjuddir.

Shu boisdan tasodifiy voqea va hodisalarning sodir bo‘lish turli tarzda baholanadi va ularga bevosita aloqador oila a`zolari turmush tajribasidan kelib chiqqan holda yo rao‘batlantiriladi yoki tanbeh beriladi, jazolanadi. Bunday odilona amalga oshirilgan muloqot ta`sirida o‘o‘il-qizlar ruhiy dunyosida ota-onaga nisbatan dilkashlik, xushmuomalalik, o‘z faoliyati uchun javobgarlik, o‘z-o‘zini boshqarish kabi muhim insoniy fazilatlar paydo bo‘ladi.

Oilada munosabatning yana bir turi «avtoritar» - yoki «obro‘talab» munosabat deb atalib, bunda ota-onaning obro‘si shaxslararo muloqotda hal qiluvchi, etakchi rol o‘ynaydi. Shaxslararo teng huquqlilik, erkin xatti-harakat qilish, tashabbuskorlik bunda o‘z ahamiyatini yo‘qota boshlaydi. Oila a`zolarining yurish-turishi, xatti-harakati ko‘pincha kattalar tomonidan cheklab qo‘yiladi. Ota-ona tomonidan tarbiyaviy ta`sir o‘tkazishning asosiy usuli bu jazolash hisoblanadi, biroq, onda-sonda rao‘batlantirish usulidan foydalanilganda ham ma`naviy rao‘batlantirish

imkoniyatiga ega bo‘lmaydi, munosabatdagi bunday nox-noxushlik ota-ona ko‘zlagan tarbiyaviy maqsadni amalga oshirmaydi va past samara beradi. Buning oqibati natijasida oila a`zolari o‘rtasida, mehr-oqibat hissi pasayadi. Ushbu paydo bo‘lgan salbiy nuqtayi nazar ota-onaga nisbatan qo‘llaniladi.

Farzandlarda ota-onaga yaqinlik mehr-muhabbat hissi biroz bo‘lsada kamayadi, keyinchalik bu tuyo‘u uzoqlashishi “begonalashish” tomoniga o‘sib o‘tadi. Oilaviy turmush munosabati ichida «liberal» (murosasozlik) toifasi ham ko‘zga tashlanib turadi. Oila davrasida ota yoki ona murosasoz, ko‘ngilchang bo‘lishlik tashqi ko‘rinishidan iliq ruhiy iqlimini o‘ziga aks ettiiganday bo‘lib tuyulsa ham, aslida unda hamjihatlik, o‘zaro tushunish etishmaydi. Murosasozlik ta`sirida farzandlar fe`l-atvorida munofiqlik, ikki yuzlamachilik, kelishuvchilik kabi illatlar tarkib topishi mumkin.

Ota-ona obro‘si oiladagi axloqiy tarbiyaning garovi hisoblanadi. Buyuk allomalarning mulohazalariga ko‘ra, tarbiyada hazilga yo‘l qo‘yuvchi jiddiylik hukm surishi lozim, lekin hamma ish hazilga, ermakka, sertakalluflikka, adovat, tirnoq orasidan kir izlashga aylanib ketmasligi kerak. Shu boisdan muayyan pedagogik-ruhiyat qonun-qoidalariga rioya qilingan holda ota-onalar tarbiya printsiplari, usullari, vositalari bilan qurollangandagina haqiqiy nazokatga va odobga erishish mumkin. Bu narsa ulardan chuqur izlanishlarni talab qiladi. Oilada farzandlarga tarbiyaviy ta`sir ko‘rsatishining iltimos, maslahat, ishontirishi, talab qilish, buyruq va tanbeh berish, jazolash, rao‘batlantirish singari qator usullaridan o‘z o‘rnida va me`yorida foydalanilmasa, ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi [2:41].

Mezon tuyo‘usi va me`yor hissiga amal qilish ota-ona ruhiy dunyosiga, ma`naviyatiga singib borsa, u holda farzandlaridan uzoqlashishi, begonalashish, bordi-keldiga borish, anglashilmovchilik o‘oyalarining vujudga kelishi, bachkanalashish, badjahllik, asabbuzarlik hulq-atvori namoyon bo‘lmaydi.

Tarbiyaning muhim roli nutq hisoblanadi, shuning uchun ota-ona o‘z nutqida yoqimsiz ohang bilan, mantiqsiz va qaytariq so‘zlarini ishlatish va qo‘llash bilan farzandlarni ranjitishlik, ularda ishonch hissini so‘ndiradigan, hazil-mutoyiba, samimiy bo‘lmagan fikr va mulohazalardan saqlanish kerak. Hayotda muloyimlikka, shirinsuhanlikka, samimiylikka, sof vijdonligi, dilkashlik va hotamtoylikka hamdardlikka nima etsin!

Odatda, ota-ona nazokatli bo‘lgandagina haqiqiy obro‘-e`tiborga erishadi. Bundan tashqari, obro‘li bo‘lmoq uchun ishonch har tomonlama rivojlangan bo‘lishi, shuningdek, aqliy, axloqiy estetik jihatdan muayyan cho‘qqiga erishgan bo‘lishi darkor. Bularning barchasi ota-onadan aql-zakovatli, milliy udum va urf-odatlarni mukammal egallagan shaxs bo‘lishni talab qiladi.

Oilaviy turmushda farzand kamol topishini to‘o‘ri yo‘lga qo‘yishning asosiy vositasi bolada e`tiqodni shakllantirishdir. Buni bolani faqat ishontirish yo‘li bilan amalga oshirsa bo‘ladi. Shuning uchun ota-ona o‘o‘il-qizlarni voyaga etkazishda ularni ko‘r qilishga yoki asossiz buyruq berishga tayanmasligi kerak. Xo‘sh, ota-ona obro‘si farzandlarda qachon paydo bo‘ladi? Oilaviy turmush tajribalaridan shu narsa ma`lumki, ota-onaning obro‘si davlat va oila a`zolari oldida javobgarlikni his qilishdan boshlanadi. Mabodo, ota-ona o‘z ishi, o‘z burchi uchun javobgar ekanligini tasavvur qila olsa va unga amaliyotda rioya qilsa, mana shu narsa ularning obro‘-e`tibor qozonishi uchun asosiy zamin hisoblanadi. Ularning ruhiy dunyosi, ma`naviyati oilaviy iliq muhit uchun etarli va ta`sirchan bolsa, o‘z-o‘zidan obro‘- qozonilaveradi, oila a`zolari o‘rtasida mehr-muhabbatga erishadi.

Agarda ota-onalar o‘zlarining hulq-odob xislatlari, his-tuyo‘ulari, xatti-harakatlarida bularga rioya qilsalar, oila a`zolari hamda jamoatchilik o‘rtasida etarli darajada obro‘ qozona oladilar. Lekin, obro‘ qozonish shaxsning tezkorlik bilan amalga oshiriladigan sifati emas. Ota-ona obro‘si butun hayot davomida kundalik ibratli hulqi, axloqi, intizomi, aql-zakovati, kamtarinligi, ishbilarmonligi bilangina qo‘lga kiritishadi. Ibrat, namuna, chekilgan zahmat, zakovat, chin ezgu niyat, hayrli ish, samimiylik evaziga yuzaga kelgan obro‘ haqiqiy obro‘ bo‘ladi.

Bunday obro‘ farzandlar xayrxohligi va hamdardligiga sazovor bo‘ladi. Natijada, oila a`zolari totuv, osoyishta, inoq, ahil, xotirjam, hamjihat turmush kechiradilar. Oiladagi farzandlar yuksak his-tuyo‘uli, ma`naviyatli madaniyatli inson sifatida ruhiy ozuqa oladilar, ular ota-onalari bilan behad faxrlanadilar, his-hayajonga to‘ladilar va shu o‘urur bilan yashaydilar, asta-sekin eng zarur shaxsiy fazilatlarini egallab boradilar. Oilaviy turmushda ayrim ota-onalar faqat tazyiq o‘tkazish yo‘li bilan farzandlari hamda boshqa oila a`zolari davrasida obro‘ orttirishni xohlaydilar, bu narsani yashashning asosiy vositasi deb hisoblaydilar. Bunda ular qo‘rqitish, buyruq berish, ruhan ezish, tahqirlash, u tazyiq o‘tkazish usullarini qo‘llaydilar. Goho ular zaharxandalik va badjahllikni bola tarbiyasining eng muhim usuli deb biladilar. Qo‘rqinch asosida bolada vujudga kelgan «tobelikni», «bo‘ysunishni» ular o‘zlaricha farzandlari davrasida erishgan obro‘si deb o‘ylaydilar, tarbiyaning bu usuli yuqorida aytib o‘tilganidek avtoritar deb aytiladi.

Ayrim ota-onalar esa o‘z farzandlari bilan kamroq muloqotda bo‘lishni, o‘zlarini ulardan uzoqroq olib yurishni shu yo‘l bilan obro‘ orttirishni ham hayol qilishadi. Ularning nazarida go‘yo farzand bilan qancha kam uchrashishsa, ma`lum masofadan muomala qilishsa, shuncha ko‘proq obro‘ qozonish mumkin emish. Bu noto‘o‘ri tushuncha, yuzaki qarorga kelish hisoblanadi. Aksincha, ota-ona o‘z farzandi bilan qancha kam muloqotda bo‘lishsa, ularning ruhiyati bilan yaqindan tanishmasa, o‘z ta`sirini o‘tkazmasada, ular o‘rtasida begonalashish, befarq bo‘lish, his-tuyo‘ulari, ishonishlari, xohishlari kelib chiqadi.

Hozirgi paytda shunday ota-onalar ham uchraydiki, ular bolaga faqat rasmiyatchilik bilan munosabatda bo‘lish orqali obro‘ orttirishga harakat qilishadi. O‘z maqsadlarini amalga oshirish uchun ular qildan qiyiq qidirishadi, xatti-harakatlarni keltirib chiqargan asl sababdan ko‘z yumishadi. Bolaga hadeb tanbeh berishadi, begonalar davrasida kalaka qilishadi. Uning yurish-turishlarini cheklab qo‘yishadi, bo‘lar-bo‘lmasga tanbeh berishadi, arzimas harakat uchun jerkib, siltab tashlashadi. Farzandlariga ko‘p pand-nasihat qilaverish ham shaxslararo munosabatda noxush kechinmalarni vujudga kettiradi. Ota-onalar arzimagan mayda-chuyda muammo, mulohaza, ko‘mak uchun ham uzuridan-uzoq o‘git-nasihat qiladilar. Farzand erkini poymol etib, mustaqil fikr yuritishi, intilishini oyoq osti qilishgacha borib etadilar. Ular o‘zlarming nasihatgo‘yliklarini ota-onalik burchi deb baholaydilar.

Mayda gaplik, ezmalik bilan o‘o‘il-qizlar o‘rtasida haqiqiy obro qozonib bo‘lmaydi. Turmushda soxta yaxshilik qilish orqali farzandlari oldida obro‘ orttirishmoqchi bo‘ladigan ota-onalar ham bor. Bunday ota-onalar o‘zlarining yumshoq muomalaligi, beozorligi, kechiruvchanligi, yon beruvchanligi, kam talabchanligi bilan farzandlarini o‘zlariga rom qilib olishni istaydilar. Ularning fe`l-atvorida, na ma`naviyatida qat`iyatlilik, na talabchanlik, na barqarorlik mavjud. Tilyoo‘lamachilik, soxtalik, sun`iylik bilan bolada yuksak insoniy xislatlarni, oliyjanob his-tuyo‘ularni, irodaviy sifatlarni tarkib toptirib bo‘lmaydi. Ota-ona obro‘sini orttirishda ibrat ko‘rsatish usuli muhim rol o‘ynaydi, oilada tarbiya ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ota-ona tinmay o‘zlarini ham pedagogik, ham ruhiy jihatdan tarbiyalab borishlari kerak, ular o‘zlarida etishmaydigan sifatlarni egallab borib, mavjud illatlarni batamom tugatishlari lozim.

Chunki ota- onaning tarbiya jarayonidagi iste`dodi — bu farzandlarga nisbatan muhabbat va sadoqatdan iboratdir.

Ota-onalar o‘z farzandlari o‘rtasida obro‘ga ega bo‘lishlari uchun qator chora-tadbirlarni amalga oshirishlari zarur. Farzandlarni yoshiga mos holda qator tarbiyaviy ishlar olib borishlari darkor.

- Ota-onalar farzandlari davrasida obro‘ orttirish uchun ularning ruhiy dunyosiga kirib borishlari ayni muddaodir. Chin obro‘ga ega bo‘lmoqchi bo‘lgan har bir ota-ona qimmat vaqtlarini o‘z norasidalaridan hech mahal ayamasliklari kerak.
- Oila davrasida ota-onalarning kuzatuvchanligi, ziyrakligi, sezgirligi, fahmliligi, hozirjavobliligi, samimiyligi muhim ahamiyat kasb etadi.
- Ota-onalarning o‘z farzandlariga va oilaning boshqa a`zolariga (buva, buvi, kelin va boshqalar)ga mehribonligi obro‘ orttirishning eng muhim yo‘lidan biridir. Farzandlarining kuchiga, qobiliyatiga, aql-zakovatiga xotirasiga, diqqat-e`tiboriga, irodaviy xislatiga, qiziqishlariga, ko‘nikma va malakaiariga qarab aqliy va jismoniy topshiriqlar berishi hamda o‘z vaqtida, uzluksiz ravishda ularning natijasini tekshirish va oqilona baho berish, rao‘batlantirish bolalarda qat`iylik, dadillik fazilatini vujudga keltiradi, mustaqil ilmini, tashabbus ko‘rsatish sari chorlaydi, kattalarga nisbatan ixlosi ortadi.
- Ixlos, hurmat, intilish, tirishqoqlik obro‘ning uzviy zanjirlari hisoblanadi.
- Ota-onalarning ijtimoiy muhitda, jamoatchilik o‘rtasida va oila davrasidagi samimiyligi va o‘amxo‘rligi ularga katta obro‘ keltirishi mumkin. Ulardagi samimiylik, o‘amxo‘rlik fazilatlari farzandlar ruhiy dunyosiga katta ta`sir etadi, ruhlanish, to‘lqinlanishi, shijoat, ehtirosni vujudga keltiradi. Ularning ibratli xislatlari, shaxsiy fazilatlari, irodaviy sifatlari, o‘z-o‘zini qo‘lga olish kabi jihatlari yigit va qizlar qalbida o‘chmas iz qoldiradi. Ota-onaga nisbatan ishonch, intilishi moyillik hamdardlik sifatlari shakllana boradi. Oilada ruhiy muhit totuvlik mavjud bo‘lishi uchun ota-onalarda haqiqiy ma`nodagi nazokat hamda obro‘ mustahkam shakllangan bo‘lishi kerak.

Hozirgi ilmiy adabiyotlarda oilaning ma`naviy asosi masalasida, shaxsning kamol topishi bilan uzviy boo‘liq bo‘lgan bilim, san`at, arxitektura, milliy, diniy, axloqiy, badiiy va boshqa qadriyat turlari, milliy istiqlol mafkurasi kabi talay ma`naviyat va ma`rifat xususida gapiriladi. Bolaning ma`naviy tarbiyasida oilaning ahamiyati muhimligi ta`kidlanadi [3:23].

Ota-onaning oiladagi moddiy, tashkiliy, tarbiyaviy va o‘zaro shaxsiy masalalar yuzasidan bir-biri bilan bo‘ladigan munosabatlari sof, samimiy, erning xotiniga, xotinning eriga nisbatan o‘zaro hurmati, iffati asosida qurilsagina, bunda u oilada musaffo ma`naviy muhit va hamjihatlik vujudga keladi. Ayniqsa, ota-ona munosabatidagi, ularning bir-biriga mehribonligi, farzandlariga bir xil muomalada bo‘lishi, har ikki tomonning qarindosh-uruo‘lariga bir xilda mehr-oqibat, hurmat bilan qarashi, bir so‘zligi, haqiqatni gapirish kabi (ijobiy fazilatlarga ega bo‘lishi, shuningdek, soo‘lom hayot kechirishi, chekish, yolo‘onchilik, maishiy buzuqliq, dimoo‘dorlik, manmanlik va boshqa shu kabi illatlardan holi bo‘lishi oilaviy munosabatlar madaniyatining sofligini ta`minlovchi xususiyatlardir.

Bunday ijobiy xususiyatlarga ega bo‘lish, serfarzand oilalarda ham, yoki faqat er va xotin yashaydigan oilalarda ham oo‘ir kechadi. Chunki er-xotin turli sharoitda, muhitda tarbiyalangan, ularning qarashlari, ma`lumoti, yoshi, ma`naviy saviyasi va boshqalarda nomuvofiqlik mavjud bo‘lishi mumkin. Er-xotinning bir-biriga ko‘nikishi, o‘zaro hurmati, do‘stona munosabatlarining shakllanishi uchun ular orasidagi sevgi dastlabki manba bo‘lsa, axloqiy qadriyatlarning gultoji bo‘lgan ibo, hayo, xushmuomalalik, mehnatsevarlik, sarishtalik, ozodalik, pazandalik, o‘amxo‘rlik, mehr-shafqat kabi azaliy odatlarimiz oilani mustahkamlashda ikkinchi manba bo‘ladi.

Xulosa. Oilaning jamiyatdagi tutgan o‘rni, tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab etmasdan turib, xalqimiz mafkurasini yarata olmaymiz. Ushbu so‘zlar zamirida oilaning muqaddasligiga ishonch hissi, zo‘r ehtirom yotadiki, barchamizga dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek oilasi qadimdan ezgulik va sadoqat, ahillik va poklik timsoli bo‘lib shakllangan va bugungi kungacha xalqimiz bu an`anani muqaddas saqlagan holda davomiyligini saqlab kelmoqda. O‘zbek oilasida an`anaviy tarbiya hamisha bosh mezon bo‘lib kelgan va undagi ma`naviy muhit muhim o‘rin tutadi. Qush uyasida ko‘rganini qiladi, deyilgan xalqimizning mashhur maqoli aynan oiladagi ma`naviy tarbiyani, muhitni shakllatirishda muhim vositadir. Ota-onaning bir-birlariga bo‘lgan munosabatlaridan bola andoza oladi va o‘zi ham shunga intiladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, olib borilgan tajriba sinov natijalariga asoslanib, oilada dastlabki odob qoidalarini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari samaradorligini oshirish uchun quyidagi **tavsiyalarni** taqdim etish mumkin:

- ota-onaga, aka-ukaga, opa-singil, qarindosh-uruo‘larga, keksa kishilarga, mahallaguzar aholiga hurmat hissini farzandlarda shakllantirish;
- farzandlarning ma`rifat va madaniyatga e`tiborini jalb etish ularning badiiy-estetik tarbiyasiga ahamiyat berish;
- farzandlarga ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelgan dasturxon odobi, mehmondorchilik, muomala odobi singari ko‘nikmalarni singdirish;
- ommaviy axborot vositalari orqali yoritilgan dasturlarning odob-axloqqa molik holatlarini oilaviy muhitga ta`sirchanligini hisobga olgan holda yondoshish;
- maktabda, o‘quv yurtlarida, ish joyida o‘rtoqlari va hamkasblari bilan odob doirasida muomala qilishni shakllantirish;
- oilada ijtimoiy, ma`naviy muhitni soo‘lomlashtirish yo‘lida olib borilyotgan tadbirlarni amalga oshirishda farzandlar tarbiyasiga alohida e`tibor berish;
- oiladagi odob-axloqni shaklantirishda umumiy tarzda ota-ona, aka-uka, opa-singil, qarindoshlarga bo‘lgan yaxshi munosabatlarni o‘zlashtirashni bosh mezon deb tushunish.

Oiladagi odob-axloqni shakllantirishdagi muhim omillardan yana biri mahallada tashkil etiladigan tadbirlarda, yaxshilik va oo‘ir kunlarda mahalladoshlar orasida bo‘ladigan oqibatli ishlardan farzandlarni ogoh etish va ularning yoshlariga va jinslariga qarab tadbirlarda ishtirok etishlarini ta`minlashdan iboratdir. Umuman olganda o‘zbek oilasi hamisha milliy tarbiyaga alohida e`tibor berilgan holda odob doirasidagi ko‘rinishlarda tarbiya mezoniga tayanadi. O‘zbek oilasida milliy tarbiyani shaklantirish va unga alohida e`tibor berish hamisha bosh vazifa bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar

1. Otavalieva U. Bola tarbiyasida boo‘cha va oila hamkorligi. –T.: 1994, 54-b.
2. To‘raeva O. Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi. –T.: “O‘qituvchi”, 1998, 41-b.
3. Hasanboeva O. Oilada ma`naviy-axloqiy tarbiya. –T.: 1998, 23-b.

REZYUME. Ushbu maqolada oilaviy munosabatlar va ularning bola tarbiyasiga ta’siri, bolalarda odob ahloq tarbiyasini shakllantirishda ota-ona, aka-opa, uka-singil munosabatlaridagi tartib qoidalar haqida so‘z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье говорится о семейных отношениях и их влиянии на воспитание ребенка, правилах порядка в родительских, сиблинговых, сиблинговых отношениях в формировании нравственного воспитания детей.

SUMMARY. In this country, they talk about family relationshipsx and ix influence on the upbringing of the child, halts in a row in parental, sibling, sibling relationships in the formation of the moral education of children.

M A Z M U N Í

Fizika. Matematika. Texnika. Informatika

Асанов Д.Ж., Маркевич М.И., Камалов А.Б. Формирование пленок дисилицида титана в модификации c49 на кремнии, структура, свойства ……. 3

Berdimbetova A. Trikotaj matolari naqshlarni shakllantirish va loyihalashda zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish …….. 6

Mamatov N.S., Jalelov K.M., Samijonov B.N., Samijonov A.N., Madaminjonov A.D. Qaraqalpaq tilindegi tekstti sóylewge sintezlew sisteması ushın maǵlıwmatlar bazasın qáliplestiriw …… 9

Mamatov N.S., Niyozmatova N.A., Jalelova M.M., Samijonov A.N., Tojiboeva Sh.X. Agronomiya tarawındaǵı súwretlerde kontrasttı asırıw usılları …..... 12

Ekonomika

Жамалова Г.Б. Солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштиришда рақамли технологияларни жорий этиш …… 16

Geografiya

Утепова Г.Б. Халықты дизимге алыў мәмлекетлик сиясат тийкары …….. 20

Tariyx

Есназарова З.Б. Қарақалпақстанда районлардың дүзилиў тарийхынан ……... 23

Til bilimi

Абдимуратова К. Миллий концептлар тадқиқининг лингвомаданиятшуносликка доир аспектлари ……. 27

Aymanova Sh. Comparative analysis of color idioms in english and karakalpak languages… 29

Арзиева Б.А. Инглис ҳәм қарақалпақ тиллериндеги салт-дәстүрлер ҳәм исеним (ырым) лексикасының этнолингвистикалық анализи …….. 31

Bayimbetova M.B. Probability in the modality category of the english and karakalpak languages …… 33

Борибаев К. Лингвомаданиятшунослик тилшуносликнинг тилни маданият феномени сифатида ўрганадиган йўналиши сифатида …….. 35

Dauletmuratova M.Y. Effectivness of using inductive and deductive approach of teaching english for shcool and university students ……. 37

Даулетмуратова Х.Е., Ерназарова Т.К. Использование спортивных англицизмов в современном каракалпакском языке …….. 40

Худайбергенов А.А. Маданиятлараро мулоқот тушунчасининг таърифи ……... 41

Жалгасов Н.М. Антропоцентрические провербиальные образования с оценкой внешности и возраста человека …….. 44

Сапаров С.П. Инглиз ва қорақалпоқ тиллари компаратив фразеологик бирликлари антонимияси …….. 46

Турсынмуратова З.М. Шекспир сонетлерин қарақалпақ тилине аўдарыўдың айрым лексикалық ҳәм стилистикалық мәселелери ҳаққында …… 47

Ádebiyattanıw

Ayapov S.B. Qobız saz áspabı haqqında ańız ápsanalar ……... 50

Баўатдинова С.Ж. Ҳәўжардың жанрлық ҳәм композициялық өзгешелиги ……. 51

Jamalova F. I.Yusupovtıń "Paseydonnıń ǵázebi" shıǵarmasınıń syujeti, poetikası ……. 52

Pedagogika

Abdreymova D.A. The relevance of verbal prefix formationsin daf lessons ……... 54

Allayarov M.J. Kishik maktab yoshidagi o`quvchilarga zamonaviy ekologik ta`lim-tarbiya berish mazmuni …….. 55

Ахмедова Л.Т. Образование в области иностранных языков в республике Узбекистан: актуальные проблемы и современные тенденции …… 57

Atadjanova D.A., Jaksimuratova K.O. The role of productive skills in foreign language learning …….. 60

Bakhieva M.T. Employing case technology to improve speaking skills in efl classes …… 61
Бозорова М.Қ. Үшинши ренессанс шараятында «узликсиз руўҳый тәрбия» концепциясын әмелге асырыў мазмуны ……..... 64
Bisenova A. Teaching english for young learners using a total physical response (tpr) method …….. 68
Dauletmuratova M.Y. Ingliz tili grammatikasini induktiv va deduktiv usullardan foydalangan xolda o`rgatishning bir biridan farqi …… 70
Djumaniyazova T.A. Yosh badiiy gimnastikachilarni xoreografik mashqlari orqali jismoniy sifatlarini rivojlantirish …… 71
Джураев А.С. Битирувчиларнинг шахсий ва касбий ривожланишида мослашувчан ижтимоий-педагогик таълимнинг ўрни ……..... 75
Erejepov M., Maxsetova X. Bilimlendiriw sapasın támiyinlew haqqında mámleket kepillikleri ……. 80
Хожаниязова У. Развитие коммуникативной мобильности как один из важнейших компонентов универсальных компетенций ……..... 81
Ибодуллаева И. Она тили таълимида ўқувчилар нутқий тафаккурини шакллантириш –педагогик муаммо сифатида …….. 83
Жалилова Н.Х. Типология трудностей при формировании письменной речевой компетенции у студентов вузов при обучении китайскому языку …….. 84
Камилова М.К., Ещанова С.Т. Актуальные проблемы преподавания технологии в школе и опыты зарубежных стран …… 86
Koyshekenova T.K. Advantages of using music and songs in elt classroom …….. 88
Қанназаров А.Г Бўлғуси ёш кадрларни тайёрлашда жисмоний тарбиянинг роли ……. 91
Mamirbaeva D. Dj. Jumamuratova D. Project-based learning approach in developing language skills: presett experiences ……..... 93
Narshabaeva A.Yu. Talabalarda tolerantlik tarbiyasi – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida..... 95
Омонова Н.О. Талабаларда миллий қадриятлар асосида мулоқот маданиятини ривожлантириш …….. 97
Otepbergenov J.S. Talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida …….. 101
Reymbergenova D., Sultanova N., Tleumbetova Q.D. Pedagog-tarbiyachining kasbiy mahoratini oshirish texnologiyasi ……..... 103
Тажбенова С.С. Она тили таълим мазмуни орқали лингвистик компетенция шакллантириш …… 105
Tlektesov F.M., Yusupova D.M. Effective approaches of teaching writing ……..... 106
Uzakova K.Y. Talabalarda muloqat madaniyatini rivojlantirish samaradorligi …… 108
Utepbergenova S.M. Milliy dástúrler, úrp-ádetlerdiń tiykarǵı funkciyaları hám ruwhıy tárbiyadaǵı áhmiyeti ……..... 112
Yuldasheva Sh.Sh., Ktaybekova G.K. Multimediaviy mashqlar o‘zbek va ingliz tillarini o‘qitishning muhim vositasi sifatida …… 114
Зияева С.А. Влияние культурных различий на речевое поведение узбекских студентов в контексте обучения иностранному языку ……..... 117
Zohirov Sh. The role of ict in massive open online courses ……... 119
Boltayev B.R. Musiqa to’garaklari jarayonida ta’lim metodlaridan foydalanishning samarali yo’llari 120
Володько' О.М. Воспитание социальнаой ответственности будущих менеджеров …..... 123
Davronova G.M. Bo’lajak musiqa o’qituvshilarining pedagogik faoliyatga tayyorlashda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning muhim jihatlari …..... 127
Xodjayev J.A. Bo’lajak musiqa o’qituvchilarini xor dirijorligi faoliyatiga tayyorlash muammolari …..... 130
Якубова Ш.Э. Талабаларда позитив дунёқарашни шакллантириш омиллари …..... 132

Psixologiya

Ibragimova A.M. Oilada dastlabki odob qoidalarini shakllantirishda ota-onaning o`rni ……..... 135

Ájiniyaz atındağı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutında «Zamanagóy talaplar sharayatında pedagogikalıq bilimlendiriw sapası» atamasındağı «IFTE-2023: Uzbekistan» xalıqaralıq konferenciyası bolıp ótti.

«IFTE-2023: Uzbekistan»

Konferenciya sheńberinde 3 plenar hám 30 sekciya májilisi, 5 dógerek sáwbeti, Rossiyalı pedagoglar qatnasıwında ulıwma bilim beriw mekteplerinińmuǵallimleri hám mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemleriniń tárbiyashıları ushın master-klasslar, joqarı oqıw orınları doktorant hám magistrantları ushın ashıq lekciyalar ótkerildi.

Xalıqaralıq konferenciyaǵa Rossiya, Germaniya, Qıtay, Sloveniya, Ispaniya, Malayziya, Pakistan, Filippin hám Qazaqstan mámleketlerinen dúnyaǵa belgili pedagog ilimpazlar, joqarı oqıw orınları hám ilimiy-izertlew oraylarınıń wákilleri qatnastı.